

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI

RUS FILOLOGIYASI KAFEDRASI



**ZAMONAVIY FILOLOGIK TA’LIMNING LINGVISTIK
VA KULTUROLOGIK ASPEKTLARI: LISONIY VA
MADANIY MULOQOT**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari
Samarqand, 2025-yil 26-27-aprel**

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ
АСПЕКТЫ СОВРЕМЕННОГО ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО
ОБРАЗОВАНИЯ: ДИАЛОГ ЯЗЫКОВ И КУЛЬТУР**

**Материалы международной научно-практической конференции
Самарканд, 26-27 апреля 2025 года**

**“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
Samarqand – 2025**

Zamonaviy filologik ta’limning lingvistik va kulturologik aspektlari: lisoniy va madaniy muloqot. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025. – 216 bet.

Mazkur ilmiy maqolalar to’plami Samarqand davlat chet tillar instituti rus filologiyasi kafedrasining fidoyi olimlari ilmiy-pedagogik jamoasi tashabbusi va tashkilotchiligida “Zamonaviy filologik ta’limning lingvistik va kulturologik aspektlari: lisoniy va madaniy muloqot” mavzusidagi nufuzli Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan tashkil topgan. Unda sohada e’tirof etilgan taniqli filolog olimlar, yetuk mutaxassislar bilan bir qatorda, sohaga endi qadam qo’yayotgan yosh tadqiqotchilar, magistrant va aspirantlarning dastlabki tadqiqotlariga bag’ishlangan maqolalari, ilmiy xabarlari joy olgan.

Ilmiy konferensiya materiallari filolog-mutaxassislar, sohada faoliyat olib borayotgan pedagoglar hamda zamonaviy filologik ta’lim va tadqiqotlar bilan qiziquvchi keng mutaxassislar jamoasiga mo’ljallangan.

Tahrir hay’ati:

Umurova G.H., f.f.d., professor - rais
Jo‘raqulov R.D., f.f.n., professor - kotib
Eshqobilov A.K., PhD, dotsent - mas’ul muharrir
Xudoyberdieva D.M., PhD, dotsent - a’zo
Musinova Z.T. dotsent - a’zo

Maqolalar mazmuni, ularda keltirilgan dalillar va iqtiboslar sifati hamda originalligi uchun mualliflar shaxsan mas’ul hisoblanishadi.

FILOLOGIK TA'LIM - MA'NAVIY TARBIYA OSTONASI

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ta'mal toshi qo'yilayotgan davrda, har bir fan bo'yicha ta'limning qaysi bosqichida nimani, nima maqsadda va qay yo'sinda o'qitish masalasi umummilliy muammo darajasiga ko'tarilmog'i tabiiy hol. Zero, muammo yechimiga jamoatchilik diqqat-e'tibori qaratiladi, tegishli soha ilmiy salohiyati bu muammo yechimiga yo'naltiriladi. Ta'lim maqsadi belgilanib, ta'lim mazmuni tayyorlanadi, amaldagi o'qitish uslublari takomillashtirilib, shunga muvofiq ta'lim usuli ishlab chiqiladi.

Yangicha tarix, yangicha davr mavjud ta'lim tizimlarining barchasiga mazmunan tubdan yangicha talablarni qo'yadi: endilikda bilimli mutaxassisga, yetarli darajada kasbiy saviyaga ega bo'lgan shaxsgagina emas, balki bilim olish yo'llarini puxta o'zlashtirgan, mustaqil idrok qilish, izchil, tinimsiz takomillashish ko'nikmasiga ega bo'lgan ongli fuqaroga ehtiyoj sezmoqda. Yangi davr talablari asosida ta'limda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullarga ustuvorlik berilishiga qaramasdan, muayyan hollarda badiiy adabiyot ta'limi, tilshunoslik borasida ko'p jihatlardan amaliy tatbiqdan yiroq, kam samarali lingvistik hamda adabiyotshunoslik bilimlarini berishdan iborat eski va ma'lum ma'noda amaliy ahamiyati sust an'analar hanuz saqlanib qolmoqda.

Tan olib ta'kidlab aytish mumkinki, bugungi kunda boshlang'ich va o'rta ta'lim tizimlaridan boshlab, oliy ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, til ta'limi borasida, jumladan xorijiy tillarni o'rgatishda ham, beriladigan nazariy bilimlar hissasi, muayyan tildan amaliy foydalanish kompetensiyasidan ancha ustunlik qiladi. Amaldagi vaziyat shunday tus olganki, jiddiy e'tibor berilib tahlil qilinsa, umuman til ta'limining maqsadi, ijodiy tafakkur sohibi va til imkoniyatini amaliyotda bimalol qo'llay oladigan, uni tarjimon, siyosatdon yoki boshqa bir omma, millat manfaati yo'lida muhim yangilik va xabarlarini bimalol sharhlab, xalqona talqin etib berish darajasida egallagan ijodiy-ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalash emas, balki tilshunos olimni yetishtirishga o'xshab qoladi.

Mustaqil yurtimiz dadil qadam tashlayotgan, mazmunan tubdan yangicha bunyodkorlik asrida jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan globallashuv jarayoni dunyo miqyosida xorijiy adabiyotshunoslik va tilshunoslik ta'limining zimmasiga ham yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda. Davr jahon adabiyotining ilg'or yutuqlaridan hamda muayyan tildan amaliy foydalanish samaradorligini fanning ham, ta'limning ham asosiy vazifasiga aylantirib qo'ydi. Tabiiy ravishda paydo bo'lgan umumbashariy filologiya fanlari borasida adabiyot tarixi, nazariyasi sohalarida hamda lingvistikada ma'lum bir til tizimini tavsiflaydigan yuzakiroq, quruq nazariyabozlikdan badiiyat va kitobxon, til va shaxs mushtarakligi masalasi bilan shug'ullanadigan filologik tadqiqotlarning amaliy yo'nalishlariga o'tish keskin ko'payib bormoqda.

Adabiyot ta'limi ham, til ta'limi ham amaliy xarakter kasb etib, umuman olganda, filologiya va til o'qitish sohasida ta'lim oluvchilarning muayyan nutqiy vaziyat, sharoit va madaniy muhitda tildan oqilona, samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish va uning filologik ta'minotini vujudga keltirish masalasi bilan shug'ullanishi doimiy tarzda nazardan qochirib bo'lmaydigan dolzarb vazifaga aylantiradi. Zero, oliy ma'lumotga, bakalavr yoki magistr diplomiga ega bo'lgan yetuk mutaxassis milliy manfaatlarimizni, xalq va mamlakat kelajagini nazarda tutib, millatimizning ertangi kuni uchun zarur bo'lgan umumbashariy qadriyatlarni milliy ma'naviyatimiz xazinasiga qo'shilishi hamda milliy qadriyatimiz durdonalarini umumbashariy qadriyatlar sirasiga qo'shilmog'i uchun amaliy hissasini qo'sha olishi zarur. Buning uchun esa, ta'lim tizimimizda yangicha islohotlar, qarashlar, usullar joriy etilishi, ular borasida bahs-munozalar o'tkazilishi taqozo etiladi.

Samarqand davlat chet tillar instituti rus filologiyasi kafedrasining fidoyi olimlari ilmiy-pedagogik jamoasi tashabbusi va tashkilotchiligida "Zamonaviy filologik ta'limning lingvistik va kulturologik aspektlari: lisoniy va madaniy muloqot" mavzusidagi nufuzli Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining tashkil etilishi va o'tkazilishi aynan ushbu maqsadlarga qaratilgan. Konferensiyada ishtirok etayotgan ham turli elektron platformalar orqali ishtirok etish istagini

bildirgan o'ndan ziyod mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari, oliy dargohlarining yetakchi mutaxassislarining anjumanga taqdim etgan materiallari, uning mavzusi hamda amaliy ahamiyatga nihoyatda kattaligi, amalda uni o'tkazishni domiy tarzda an'anaga aylantirish borasidagi takliflari, institutimiz jamoasining amalga oshirayotgan tadbirlari, bu yerda yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya ishlarining ibratli tus olayotganligining dalolatidir.

Ta'kidlash joyizki, so'nggi yillarda Samarqand davlat chet tillar institutining katta jamoasi bunday nufuzli xalqaro hamda respublika miqyosidagi konferensiyalar va turli anjumanlarni o'tkazish markaziga aylanib bormoqda. Bu keng miqyosdagi samarali jarayonlarning ortida institutda tashkil etilgan ilmiy-pedagogik jarayonlarning sifati, muvaffaqiyati bilan bir qatorda, zaxmatkash, fidoyi ziyolilarimizning ulkan mehnatlari yotibdi. Institut rahbariyati, tadbir ishtirokchilari buni har tomonlama chuqur his etadi, anglab tushunadi hamda qadrlaydi. Shu sababli tadbir tashkilotchilari hamda tashrif buyurishgan barcha mehmonlarga konferensiyaning samarali o'tishida va ilmiy-amaliy muvaffaqiyat qozonishlarida omad tilab qolaman.

Baxodir Xolikov, SamDCHTI rektori

1-sho'ba. ZAMONAVIY FILOLOGIK TA'LIMNING DOLZARB

LINGVISTIK MUAMMOLARI

Секция 1. АКТУАЛЬНЫЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

FAN VA TA'LIM CHORRAHASIDA: TIL, TILSHUNOSLIK MASALALARI

X.Z. Xayrullayev f.f.d., SamDCHTI professori,
Gulmira Sabirovna Amangeldiyeva,
jurnalistika kafedrası mudiri,
PhD, dotsent
Qozog'iston, Karaganda universiteti

Insoniyat hayoti jamiyatda kechadi. Jamiyat doimo o'zgarib boraveradi. Bu o'zgarish taraqqiyot bo'lishi ham, tanazzul bo'lishi ham mumkin. Taraqqiyot ham, tanazzul ham o'zgarish bo'gani bois, insoniyat hayotining barqarorligini ta'minlash, mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning yechimini topish, oldini olish yashashning birdan bir shartidir. Bu muammolarni faqatgina bir fan doirasidagi bilimlar bilan hal qilib bo'lmasligi aniq. Shunday ekan, tanazzulning oldini olish yoki undan chiqish, shuningdek, taraqqiyot uchun mustahkam rivojlanish chiziqlarini chizib olish va bu yo'lda muvaffaqiyat qozonish uchun doimo ilmiy yuksalish hamda uning hayotga tatbiqi muhimdir. Bu borada tilshunoslik fanining rivoji, uning ilmiy yutuqlari, o'z davri va zamonasi muammolari doirasidagi masalalar yechimi bilan uzviylik hamda izchillikdagi xulosalari ham juda muhim ehtiyojlarni hal etishga xizmat qiladi. Zotan, kishi o'z atrofini, keng ma'noda o'z olamini kognitiv tasavvur etar ekan, bu olam va uning kognitiv ifodashi shakllanishi, rivojlanishi va bu bilan bog'liqlikdagi barcha masalalar yechimi til vositasida shakllanadi, amalga oshadi.

Dunyo yaralibdiki, unda tinimsiz harakat – faoliyat mujassamdir. Harakat bizning nazarimizda, hayot – tiriklik belgisidir. Hayot tushunchasi keng ko'lamlidir. Zotan, mazkur tushuncha zamirida ko'plab qarashlar va tasavvurlar mujassam. Tiriklikning eng muhim belgilaridan biri – o'zgarishlarning sodir bo'lishidir. Inson tirik ekan, u albatta, bu hayotiy dunyoda shu o'zgarishlarning qurshovida bo'ladi. Bu o'zgarishlar uni doimo faoliyatda bo'lishga, ya'ni o'zgarishlarga qarshi kurashish yoki unga moslashishga majbur etadi. Majburlik tushunchasi bu o'rinda mavjud ikki yo'ldan birini tanlash bilan bog'liqdir. Kishi bu ikki yo'lni qay birini tanlashi uchun esa doimo sezgi, bilim, tajriba va boshqalarning shunday vaziyatlarda qo'llagan yo'li – ibratiga tayanadi. Qayd etilgan holatlarda ma'lumot juda katta qimmatga ega bo'ladi. Bu esa ma'naviyatning moddiylikka aylanishi sifatida namoyon bo'ladi.

Insoniyat moddiy va ma'naviy ehtiyojlar olamida yashaydi. Shunday ekan, uning ajdodlar tajribasi avlodlar uchun bilim manbayi bo'lishi shubhasiz. Bu yo'lda insoniyat hayotida ko'plab sivilizatsiyalar vujudga kelgani, ularning taraqqiy etib, rivojlangani va turli sabablarga ko'ra, yo'q bo'lib ketgani haqidagi ma'lumotlarni eslashning o'zi kifoyadir. Insoniyat olamda mavjud har bir narsa va hodisani sirlilik belgisi ostida qabul qiladi. Bu sirlarni ochish uchun esa, yuqorida qayd etilganidek, doimo sezgi, bilim, tajriba va boshqalarning shunday vaziyatlarda qo'llagan yo'li – ibratiga tayanadi. Bu insoniyat uchun yashash qonuniyati, murakkabliklarni hal qilishdagi takrorlanuvchi kuch-qudratdir. Bu insoniyatning hayot haqidagi eng buyuk o'zlari ottingan intellektual tayanchidir. Buning nomini *logika* – *mantiq* deb ataymiz.

Logika tushunchasining asosi «logos» so'zi bilan bog'liqdir. Mazkur tushuncha, avvalo, *so'z* degan ma'no bilan bog'lanadi. *Mantiq* tushunchasi «logos» bilan o'zviy bog'liq ekani isbot talab qilmaydi. Chunki mantiq so'zi O'rta asrlarda Sharq (arab) ilmida yunon falsafasini tadqiq qilish davrida o'zlashtirilgan. *Mantiq* so'zining semantikasi *nutq* tushunchasi bilan uzviydir. Boshqacha aytganda, bu ikki so'z, ya'ni *mantiq* va *nutq* so'zlari o'zakdosh so'zlardir. Ma'lumki, logos ham *so'z* tushunchasida qo'llanilgan (Muhokamotul lug'atayn). Demak, hayot muammolari doirasidagi

masalalar yechimi uchun muhim bo'lgan qonuniyatlar qadimgi asrlardan boshlab, to hozirgi kungacha va ayni davrda ham ma'lum darajada *logikaga – mantiqqa* tayanib hal qilinadi.

Ammo, shuni ham aytish joizki, insonning sezgilari, bilim va tajribalari, ajdodlarining ibрати asosida shakllangan bilim qudrati hamma narasini ham anglashga imkon beravermaydi. Bunda bizga ilmning egasi, buyuk qudrat egasi tomonidan berilgan ilmlar majmui *metafizika – ilmiy g'ayb* ehtiyojlarni qondirish darajasida imkoniyatlar eshigini ochadi (Kimyoyi saodat).

Albatta, *hayot – tiriklik* tushunchalari nafaqat insonlarga xos, balki bu tushuncha keng qamrovida *hayvonot va nabototni* ham mujassam etadi. Ammo jonli mavjudod ichida so'zlashish – til – nutq faqat odamga in'om etilgan. Ana shu buyuk in'om – lisonning insoniyat hayotidagi muammolar yechimidagi kalitning yo vazifasini, yo qiyofasi (shakli) ni, yo uning mohiyatini taqazo etishiga shubha yo'q. Shu bois, bu *kalit – lisonni* ilmiy bilish, bu bilish samarasi bo'lgan bilimlardan har bir davrda to'g'ri foydalanish masalasi muhim bo'lib kelgan va bu muhimlik belgilari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini hamma davrlardagidek saqlab turibdi.

Biz yashab turgan tamaddun (sivilizatsiya) tarixiga nazar tashlaganimizda, uning bizga nisbatan yaxshi ma'lum bo'lgan davri bu uch ming yillik tarixni taqazo etishi mumkin. Mazkur tamaddunda tilshunoslik ilmining paydo bo'lishi, rivojlanishi tarixi qadimgi Hindiston, Yunoniston, Xitoy, O'rta asrlarda Arab mamlakatlari, Markaziy Osiyo, keyinchalik Eropa, Amerikada sodir bo'lgani ma'lum. Bularning barchasida ham mazkur soha ilmining shakllanishiga sabab diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolar doirasidagi masalalarga yechim topish zaruratidir.

Bugun dunyoda globallashuv davri kechayotganidan kelib chiqilsa, yuqorida qayd etilgan diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolar doirasidagi masalalarning zamonaviy tus olgani, ularning dunyo maydonida tezkor sodir bo'layotgani, o'z navbatida, ularga yechim topish ham tezkorlikni talab qilmoqda.

Bir vaqtlar bir insonning bir umrlik hayoti uchun bir til, yana ham konkret qilib aytganda, bir tilning muayyan shevasining o'zi yetarli bo'lgan. Inson bir makonda tug'ilib, voyaga yetib hayot ne'matlaridan bahramand bo'lib, yashab umr kechirib, shu makonda olamdan o'tgan. Uning butun umrlik hayoti – tiriklik davri uchun o'sha til aloqa quroli sifatida unga yetarli bo'lgan.

Bugungi kunga kelib, til – muloqot vositasiga bo'lgan ehtiyoj zamonaviy tezkorlik, rang-baranglik mezonlari va talablari asosida o'zgacha tus oldi. Shu bois tilning insoniyat hayotidagi o'rni va mohiyati ham shunga monand o'zgardi. Bugun bir tilni bilishning o'zi bizning jamiyatimizda har qanday insonga ham kamlik qilmoqda. Agar global miqyosdagi faoliyat va hayot tarzi prizmasidan bu olamga nazar tashlasak, qayd etilgan fikrlarimizning dalillari to'lib-toshib yotganining guvohi bo'lishimiz shubhasiz.

Ajdodlarimiz qayd etgan olam xususidagi ma'naviy qarashlarda o'n sakkiz ming olam tushunchasi haqida tafakkur qiladigan bo'lsak, bugungi kunga kelib insoniyat ro'yi-rost tan olib turgan yana bir olam – virtual olam xususida bema'lol gapirishimiz mumkin.

Insoniyat tarixida mamlakatlar biri boshqasining maydonini, hududini egallab olishga, moddiyatni dunyoning matohlaridan izlashga intilib ko'plab urushlar, talonchilik, bosqinchilik qilishga yo'l qo'yg'anliklarining guvohi bo'lamiz. Bu harakatlar ba'zan ochiqcha, ba'zan esa turli xil harakatlar nomi ostiga yashiringan holda bugungi kunda ham qaysidir darajada davom etib kelmoqda.

Ammo, buyuk qudrat egasi insoniyatga uning intellektiga jo etilgan yangi olam sarhadlarini in'om etdiki, bu olam yuqorida qayd etganimiz – virtual olamdur. Virtual olamda ham muloqot, bu olamni zabt etish, uni egallash, unda o'z makoni va maqomiga ega bo'lish shartlari biz yashab turgan olamnikipan farqli bo'lmagan iva tubdan farqlanuvchi jihatlar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Virtual olamda ham til kerak bo'lishi aniq. Biroq bu til insonlarning milliy tillari emas, balki kodlarga asoslangan, boshqacha aytganda algoritmlar asosida shakllangan tildir. Bu olamda millatlar xalqlar o'z o'rnini egallashga jiddu jahd bilan urinayotgan bir davrda o'zbek xalqi ham mazkur faoliyatni oqilona amalga oshirmog'i zaruratdir. Tilshunoslik fani taraqqiyotida zamonaviy yo'nalishlar sifatida kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, matn lingvistikasi, kommunikativ lingvistika, sotsiolingvistika, psixlingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv lingvistika kabi sohalar shakllandiki, mazkur zamonaviy yo'nalishlar fan taraqqiyotining

dinamikasini belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda, fanda shakllangan fundamental konsepsiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish masalalari bugungi kunning ta'lim taraqqiyoti uchun kechiktirib bo'lmaydigan muhim masalalar jumlasidandir. Shunday ekan, bugungi kunda mavjud ta'limning maqsad va vazifalarini isloh qilish, bunda til, muloqot va insonning kommunikativ ehtiyojlarining pragmatik, kognitiv masalalarini ta'lim jarayonida o'rgatish ishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tilshunoslikning dolzarb masalalari jumlasiga til va nutq, til va jamiyat, muloqotning kognitiv, pragmatik aspektlarini ham majmuaviy tadqiq etish singarilarni kiritish asoslidir. Zotan, mazkur yo'nalishlar doirasida til va inson, til va global jamiyat, til va iqtisod, til va sotsial muhit, milliy tillar va ularning algoritmik kodlarga tayanuvchi kompyuter dasturlari uchun yaratilgan versiyalari singari masalalarni hal etish mumkin.

Bugungi kunda til ta'limi masalasi zamonamizning yuksak talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilmog'i zarur. Bu kechiktirib bo'lmas masalalar sirasiga kiradi. O'zbekistonda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, diniy, ma'rifiy va boshqa masalalarga alohida e'tibor berilayotgan bir davrda tilshunoslik fani taraqqiyotining fundamental yutuqlarini til ta'limi jarayoniga olib kirish kechiqtirib bo'lmas vazifalar sirasiga kiradi. Chunki bugungi kunda o'zbek tilining milliy korpusini yaratish, sohalarga oid tezaurlarni yaratish, lingvistik dasturlash masalalarini rivojlantirish global tarmoq – internet tizimida o'zbek tilining o'ziga xos va mos maqomini olishini ta'minlash, milliy tillarning yo'qolib ketish xavfi vujudga kelayotgan kelajak davrda o'zbek tilining ravnaq topishi, uning jahonning rivojlangan, ilmiy jihatdan asoslangan zamonaviy til maqomida dunyo xalqlari tillari ichida munosib o'rinda bo'lishini ta'minlash yurt ravnaqi, millat va xalq kelajagi asosidir.

ADABIYOTLAR:

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2017. – 312 b.
2. Xayrullayev X. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2024. – 207 b.
3. Xayrullayev X., Ibragimova M. Tilshunoslik asoslari. – Samarqand, 2024. – 265 b.
4. Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимиёи саодат (руҳ ҳақиқати). – Тошкент, 2005. – 411 б.

ОСОБЕННОСТИ СОСТАВЛЕНИЯ УЧЕБНЫХ СЛОВАРЕЙ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Т.А.Бушуй, д.ф.н., профессор СамГИИЯ

Учебные словари русского языка – это особый тип лексикографических изданий, предназначенных для облегчения и оптимизации процесса изучения языка учащимися разных уровней подготовки. Они отличаются от общих толковых словарей, академических и других специализированных изданий, поскольку ориентированы на конкретные образовательные цели и задачи [6, 25].

Процесс их составления требует учитывать ряд специфических особенностей, направленных на максимальную эффективность обучения [1, 129]. Прежде всего, можно выделить следующие специфические особенности, характерные для учебного типа словарей:

- 1) целевая аудитория и уровень подготовки;
- 2) отбор лексики;
- 3) структура словарной статьи;
- 4) дидактическая направленность;
- 5) адаптация к современной языковой ситуации.

Определение целевой аудитории – ключевой этап при создании учебного словаря. Словарь для младших школьников, изучающих русский язык как родной, будет значительно отличаться от словаря для иностранных студентов, осваивающих русский как иностранный [2, 542]. Поэтому необходимо учитывать следующие важные составляющие.

Во-первых, словарная статья должна быть адаптирована к уровню понимания целевой группы, т.е. учитывать возраст и когнитивные особенности учащихся.

Во-вторых, важная роль отводится языковой компетенции. Уровень владения языком влияет на отбор лексики, сложность определений и грамматических пояснений.

В-третьих, принимаются во внимание и образовательные цели. Определяется тематика словаря (например, частотный словарь, словарь синонимов и антонимов, орфографический словарь и т.д.), ориентированная на конкретные учебные программы [4, 8].

В отличие от общих словарей, стремящихся к максимально полному охвату лексики, учебные словари содержат строго отобранный вокабуляр [7, 161]. Критерии отбора включают такие факторы, как:

- 1) частотность употребления. Включаются наиболее употребительные слова, необходимые для понимания и активного использования в речи.
- 2) актуальность. Отдаётся предпочтение словам, отражающим современную языковую картину и релевантным для учащихся.
- 3) значимость для изучаемого курса. В словарь включаются слова, соответствующие изучаемым темам и грамматическим конструкциям.
- 4) семантическая ценность. Отбираются слова, обладающие разнообразными значениями и возможностями для формирования словообразовательных гнезд.
- 5) учёт трудностей для учащихся. Включаются слова, часто вызывающие затруднения в понимании, произношении, правописании и употреблении.

Структура словарной статьи в учебном словаре должна быть максимально ясной, последовательной и удобной для восприятия. Она, как правило, включает:

- 1) Заголовочное слово (слово, которому посвящена словарная статья). Важно указание ударения и грамматических форм, таких, как род, число, падеж.
- 2) Транскрипцию, которая обязательна для иностранных учащихся, изучающих русский язык. Она облегчает усвоение правильного произношения.
- 3) Определение значения слова.
- 4) Грамматические характеристики, т.е. указываются грамматические категории слова (род, число, падеж, вид, спряжение и т.д.).

5) Ключевой элемент учебного словаря – это иллюстративный материал. Примеры должны быть конкретными, понятными и иллюстрировать различные значения и особенности употребления слова в контексте.

6) Также помогают расширить словарный запас и углубить понимание значения слова синонимы и антонимы.

7) В таком лексикографическом источнике указываются наиболее употребительные фразеологизмы и устойчивые словосочетания, содержащие заголовочное слово.

8) Демонстрируются словообразовательные связи заголовочного слова с другими словами русского языка.

9) Указываются стилистические особенности слова (разговорное, книжное, устаревшее и т.д.) и комментарии, поясняющие трудные случаи употребления [9, 74].

В словарях для младших школьников и иностранных учащихся иллюстрации могут значительно облегчить понимание значения слова.

Учебный словарь должен не только объяснять значение слов, но и способствовать развитию языковых навыков учащихся [10]. Важно, на наш взгляд, чтобы иллюстративный материал, отражал реальные жизненные ситуации. Примеры должны быть взяты из современной жизни, литературы и СМИ, что делает изучение более интересным и релевантным [8, 62].

В словарь могут включаться упражнения на закрепление изученного материала, расширение словарного запаса и развитие навыков употребления слов в речи [5, 24]. Современные словари должны ориентироваться на использование интерактивных элементов (в электронных версиях). Скажем, включение аудио- и видеоматериалов, интерактивных упражнений, тестов и игр, позволяющих сделать обучение более увлекательным и эффективным.

Русский язык, как и любой другой живой язык, постоянно развивается. Учебные словари должны отражать эти изменения, включая: новые слова и выражения, изменения в нормах употребления, современные примеры употребления

Необходимо своевременное включение новых слов и выражений, отражающих современные реалии и тенденции в языке [3, 71]. Такие источники должны учитывать изменения в грамматических и стилистических нормах языка.

Составление учебных словарей русского языка – это сложный и ответственный процесс, требующий от составителей глубокого знания языка, методики преподавания и понимания потребностей целевой аудитории.

Успешный учебный словарь – это не просто справочник, а эффективный инструмент, помогающий учащимся освоить русский язык и развить свои языковые навыки. Он должен быть ясным, понятным, удобным в использовании и адаптированным к современной языковой ситуации. Тщательный учёт всех вышеперечисленных особенностей гарантирует создание полезного и эффективного учебного пособия.

ЛИТЕРАТУРА:

1) Фалеева А.В. Тематическая дифференциация коллоквиализмов с имплицитным значением в лексикографических источниках // Вестник ЧелГУ. – Челябинск: ЧелГУ, 2022. – № 7 (465) (Выпуск 129). – С. 128-136.

2) Фалеева А.В. Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках // Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.

3) Фалеева Е.В. Неологический бум в английском языке: проблемы и перспективы // International scientific review. – 2022. – №. LXXXVI. – С. 70-74.

4) Bushuy T.A. Features of Representation of some Word forms and Meanings of Phraseological Units in Contrastive Lexicographical Sources. – Toshkent: Til, ta'lim, tarjima. - 2-son, 4-jild, 2023. – С. 7-16.

- 5) Bushuy T.A. (2023). Language in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 39, 23–26. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl>
- 6) Bushuy T.A. Grammar of Idiomatic Language in Contrastive Dictionary // XCVII International Correspondence Scientific and Practical Conference «International Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education» (Boston. USA. September 17-18, 2024). P. 24-26.
- 7) Faleeva A.V. Experience of the investigation of English colloquial system // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2021. – № 1(83). – P. 159-169.
- 8) Faleeva A.V. Investigation of the Colloquial Formation of Modern English Language // Международный журнал языка, образования, перевода. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 59-67.
- 9) Faleeva E.V. Current Status of English Neology // Til, ta'lim, tarjima xalqaro jurnali. – 3-son, 3-jild. – Toshkent, 2022. – Б. 70-80. DOI <https://doi.org/10.5281>
- 10) <https://www.slovari.ru/start2.aspx?s=0&p=5638>

KOMPARATIVISTIKANING VUJUDGA KELISHI XUSUSIDA

A.M.Turobov, f.f.d., SamDCHTI professori

Tilshunoslik chinakam fan sifatida faqat XIX asrning boshlarida shakllandi. Bunga uch xil tarixiy sharoit sabab bo'ldi.

Birinchidan, fanga tarixiy yondoshish paydo bo'ldi. Til dalillari tarixiylik tamoyili asosida izohlana boshladi.

Ikkinchidan tilshunoslik faniga romantizm qarashlari ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, sanskrit tili bilan tanishish qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi" [S.Usmenov, 1972: 58].

Bulardan tashqari, nemis olimi Fridrix Shlegel (1772-1829) erishilgan nazariy o'rganish g'oyasini ilmiy ravishda mustahkamladi. U 1808-yilda nashr qilingan "Hindlarning tili va donoligi haqida" nomli mashhur asarida birinchi bo'lib "qiyosiy grammatika" atamasini (terminini) qo'lladi. Shlegel bu asarida lotin, grek, german va fors tillarini sanskritga qiyoslash natijasida ularning leksik-grammatik jihatdan tarixan qarindosh ekanligini ko'rsatib berdi. Shlegel sanskritni turkiy tillarga ham qiyoslagan. U o'zi tekshirgan tillarni grammatik qurilishi jihatdan flektiv va qo'shimcha oluvchi tillarga ajratdi. Bu bilan u jahon tillarining tipologik (morfologik) tasnifiga asos soldi.

Ko'rinadiki, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishida Shlegel asarining mazmun va mundarijasi yanada muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Aslida qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishiga Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'atit turk" asari bilan dastlabki qadamlarni qo'ygan. Ammo, Yevropalik olimlar bu asar bilan tanish bo'lmagan. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik haqida gapirganda shu sabab ham Mahmud Koshg'ariy e'tibordan chetda qoldirishgan.

Mutaxassislar qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tarixini uning mazmun va mundarijasi asosida shartli ravishda to'rt davrga bo'ladilar:

1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik yaratilgandan boshlab yosh grammatikachilar maktabi qarashlarining shakllanishigacha bo'lgan davr (XIX asrning birinchi choragi – 1870-yil).

2. Yosh grammatikachilik qarashlarining hukmronlik davri (XIX asrning 70-90-yillari).

3. F. do' Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi" (1916) nomli asari maydonga kelgungacha va xett yozma yodgorliklari o'qilgungacha bo'lgan davr (XIX asr oxiri va XX asrning dastlabki ikki o'n yilligi).

4. F. do' Sossyur g'oyalari tarqalgan vaqtdan bizgacha bo'lgan davr.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishiga bitta muallifi noma'lum asar va 4 ta aniq mualliflarning asarlari asos bo'lgan. Ular Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm ba A.X. Vostokovlardir.

1. 1811-yilda Rossiyada muallifi ko'rsatilmagan holda "Sanskrit tilining rus tili bilan o'xshashligi haqida" nomli asar nashr qilingan.

Unda slavyan, lotin, grek va german tillarining ichki tuzilishi qiyoslangan. Ular o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar ko'rsatib berilgan.

2. Frans Bopp (1791-1867) 1816-yilda "Sanskritning tuslanish sistemasini, uni grek, lotin, fors va german tillarining tuslanish sistemasiga qiyoslash" nomli asarini nashr qildiradi. Bu bilan tilshunoslikka "Hind-yevropa tillari" tushunchasini va terminini olib kiradi. Muallif bu asarida faktlarni qiyoslash usuli bilan tillarning "ibtidoiy holati"ni tiklash mumkin va men tillarning "ibtidoiy-holati"ni tiklashga yaqinlashyapman, degan fikrni olg'a suradi.

Frans Bopp 1833-1852-yillarda "Sanskrit, zend, arman, grek, lotin, litva, beski, slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi" nomli uch tomlik asarini nashr qildirdi. Bu uning asosiy ilmiy ishi hisoblanadi. Unda muallif tillardagi flektiv shakllarning dastlabki manbalarini ochishga harakat qiladi. Ammo amalda qiyosiy tilshunoslikni yaratadi. U fleksiya tushunchasini faktlar tahlilida mustahkamlaydi. Tillarning grammatik qurilishini "organizm" deb ataydi. Bunda til elementlari o'zaro bog'liqdir degan g'oya bor.

Xett yozma yodgorliklarini 1916-yilda chex olimi Bedrix Grozniy o'qigan. Shundan keyin

Xett tilini o'rganishga qiziqish ortadi. Natijada keyinchalik tilshunoslikda xettologiya sohasi shakllanadi.

Frans Bopp tillarning grammatik qurilishini qiyosiy-tarixiy metod asosida chuqur o'rganish natijasida o'zining tipologik tasnifini taklif qiladi.

Tilshunoslik tarixi mutaxassislarining qayd qilishlaricha, Frans Bopp agglyutinatsiya nazariyasining asoschisidir.

3. Rasmus Rask (1787-1832) ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishiga munosib hissa qo'shgan. U tilshunoslik tarixini qunt bilan o'rgangan, ayni vaqtda ijodiy, tanqidiy o'rganishga harakat qilgan. Masalan, u 24 yoshida nashr qildirgan "Island tili bo'yicha qo'llanma" nomli birinchi asarida mantiqiy grammatikaning ayrim tamoyillarini asosli ravishda quyidagicha tanqid qilgan.

"Grammatikaning vazifasi so'zlarni qanday yasash haqida ko'rsatma berish emas, balki so'zlarning qanday yasalishini va o'zgarishini tasvirlashdir" [N.A.Kondrashov, 1979: 42].

Rasmus Rask ilmiy jamoatchilikka asosli ravishda 1818-yilda nashr qilgan "Qadimgi shimol tili sohasida tadqiqot yoki island tilining kelib chiqishi" nomli asari bilan tanildi. Unda muallif german tillarining slavyan tillarining, litva, lotin va grek tillarining tarixan o'zaro qardoshligini isbotlagan. Ayni vaqtda Iskandinaviya tillarining boshqa Hind-yevropa tillariga qardoshligi va iskandinaviya tillarining kelib chiqishi bilan ham qiziqqan.

Rasmus Rask grammatik va leksik qiyoslashlarga ko'proq e'tibor bergan. Frans Boppdan farq qilib, o'z oldiga katta muammolarni hal qilish vazifasini qo'ymagan. O'zi qiyoslayotgan tillarning dastlabki shakllarini tiklash bilan shug'ullanmagan. Rasmus Rask sanskritga murojaat qilmagan.

4. Yakob Grimm (1785-1863) ham 4 tomlik nemis tili grammatikasi bilan qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka munosib hissa qo'shdi. Muallif nemis tilini barcha german tillariga qiyoslash yo'li bilan nemis tilining tarixiy grammatikasini yaratdi. Bunda muallif tahlilni qo'lyozmalardagi til faktlaridan boshladi. Tilni tabiiy organizmga, moslashtiradi, o'xshatadi.

Yakob Grimm "Nemis tili tarixi" (1848) asari bilan ham mashhurdir.

Yakob Grimm german tillarining grammatik shakllarini tarixiy taraqqiyot jarayoni nuqtai nazaridan yoritib berdi. U fanda birinchi bo'lib tovushlarning o'zgarishi ma'lum qonuniyat asosida yuz berishini isbotlashga harakat qildi va shunga binoan til taraqqiyotini asosan nutq tovushlari o'zgarishida ko'rdi.

Yakob Grimm til bilan xalq, til tarixi bilan xalq tarixi o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri tushungan. U "Nemis tili tarixi" asarida shunday deydi: "Xalqlar haqida suyaklar, qurollar va mozorlarga qaraganda jonliroq bo'lgan guvoh bor." Bu ularning tilidir. Til –inson ruhining nafasidir.

Yakob Grimm tilning paydo bo'lishi bilan ham qiziqqan va 1931-yilda "Tilning paydo bo'lishi haqida" nomli asarini nashr qildirgan. Unda muallif yangi tillarning qadimgi tillardan yomon emasligini ta'kidlaydi, ammo undov nazariyasini quvvatlaydi.

5. A.X.Vostokov (1781-1864) qiyosiy-tarixiy metod asoschilari qatoriga slavyan tillari materiallari bo'yicha mansubdir. U tilshunoslik tarixida quyidagi kabi asarlari bilan mashhurdir:

1. "Slavyan tili haqida mulohazalar" (1820).

2. "Rus tili grammatikasi" (1931).

3. "Rumyansev muzeyidagi rus va slavyan qo'lyozmalarining tasviri" (1343).

4. "Ostromirovo Evangeliyasi" (1843).

5. "Buyukrus viloyati tili lug'ati bo'yicha tajriba" (1852).

6. Ikki tomlik "Cherkov-slovyan tili lug'ati" (1858-1861).

A.X.Vostokovning "Slavyan tili haqida mulohazalar" nomli asari slavyan tillarining tarixiy fonetikasi bo'yicha birinchi ilmiy ish hisoblanadi. Unga muallif qadimgi slavyan tilida alohida burun unlisi bo'lganligini isbotlab bergan. Eski rus tilining eski slavyan, polyak, serb tillariga tarixan bo'lgan munosabatini yoritgan hamda slavyan va rus tillarining taraqqiyot davrlarini belgilagan: qadimgi (IX-XIV), o'rta davr (XV-XVI) va yangi davr [A.Turobov, 2022: 26].

A.X.Vostokov rus tilining grammatik qurilishi sohasida ham chuqur kuzatishlar olib borgan. Natijada nemis tilshunosi Karl Bekker qarashlari asosida rus tilining to'rtta gap bo'lagi: subyekt,

predikat, obyekt, atribut haqida birinchi bo‘lib ma’lumot bergan.

Xulosa qilib aytganimizda, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik butun dunyodagi tillarning geniologik tasnifini yaratish imkonini berdi. Ma’lum bir tilni o‘rganish bilan yuzaga kelgan nazariy qarashlarni, to‘plangan tajribalarni boshqa tillarga ham tadbiq etish yo‘li asosida, ikkinchi tilni ham ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirish mumkinligi haqidagi qarashlar paydo bo‘ldi.

ADABIYOTLAR:

1. Усмонов С. Умумий тилшунлик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. 208 б.
2. Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. –М.: Просвещение, 1979. 224 с.
3. Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2022. – 254 bet.
4. Лингвистический энциклопедический словарь/ гл. ред. Ярцева В.Н. – 2-е изд., доп. – М. : Большая рос. Энцикл., 2002. 709 с.

INGLIZCHA KO'P MA'NOLI SPORT ATAMALARINING O'ZBEKCHA SHARHDA QO'LLANILISHI

Mirzahakim To'xtamirzayev

p.f.n., dotsent,

“Sport”, “Спорт+” gazetalari bosh muharriri

O'zbekiston vakillari xalqaro sport arenalarida muvaffaqiyat qozonishi sport reportajlariga qiziqish ortishiga sabab bo'lmoqda. Telekanallarimizda namoyish etilayotgan translyatsiyalar, xususan o'zbekcha sharhlar aholi orasida vatanparvarlik tuyg'ulari kuchayishi, sportga qiziquvchilar va sog'lom turmush tarafdorlari safi kengayishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Sport ixlosmandlari boks, dzyudo va boshqa yakkakurashlardagi g'alabalarimizga o'rganib qolgani barobarida o'yin turlaridagi muvaffaqiyatlar o'zgacha ruhda qabul qilinmoqda. 2025-yil bahorida shaybali xokkey bo'yicha o'smirlar va kattalar milliy terma jamoalarimiz ilk marotaba qatnashishlariga qaramay jahon chempionatining o'z dvizionlarida birinchi o'rinni egallashdi va kelgusi yili yuqori tabaqada ishtirok etish huquqiga ega bo'lishdi. Futbol bo'yicha 17 yoshlilar o'rtasidagi Osiyo chempionati finalida o'zbek yigitlari birinchi taymdayoq ikki kishi maydondan chetlatilgan mushkul vaziyatda mezbon Saudiya Arabistoni termasini ishonchli tarzda mag'lub etib, qit'a chempioni bo'lishgani boshqa vaqt sportga qiziqmaydiganlarni ham to'ldirib yubordi. Ana shu g'alabalarni xalqimizga yetkazishda ommaviy axborot vositalari, xususan, telekanallar katta rol o'ynamoqda. [6]

Teletomoshabinlar auditoriyasi vaziyatlarni to'laqonli tushunishi uchun sharhlovchilarning nutqi alohida ahamiyat kasb etadi. Sharh davomida sport atamalari keng qo'llanilishi barchaga ma'lum. Aksariyat sport atamalari tilimizga bevosita yoki bilvosita ingliz tilidan kirib kelgani diqqatga sazovor. Shu boisdan sharh yuksak saviyada chiqishi uchun sport jurnalistlarining til materiali, xususan, terminologiya bilan tanish bo'lishi va sport atamalarini to'g'ri va o'rinni qo'llashi talab etiladi. [7]

Terminologiyani tarjima qilish muammosi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa-da, sport terminologiyasini tarjima qilish hanuzgacha nisbatan kam o'rganilgan. “O'zbek tilining izohli lug'ati” [8], “Terminologiya sporta. Tolkoviy slovar-spravochnik” kabi lug'atlar [1,2,4], tarjimonlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanmalarining [3] amaliy ahamiyatiga qaramay, ularning formati o'zbek tilida sharh olib boruvchilarga sport turlari bo'yicha terminologiyani to'la qamragan holda ishlash uchun yetarli emas. Bu muammo, ayniqsa, bir vaqtning o'zida bir nechta sport turlari bo'yicha bahslar bo'lib o'tadigan olimpiada, Osiyo o'yinlari kabi kompleks musobaqalarda ishlaganda bir sport turi doirasida ham, turli sport fanlari chorrahasida ham bir nechta ma'noga ega bo'lgan atamalarining ma'no nozikliklarini tushunishda yaqqol sezilib qoladi. Afsuski, bu borada o'zbek tilida zarur manbalar deyarli yo'q. [7]

Ilmiy va o'quv manbalari, shuningdek bevosita sharhlovchilar nutqi tahlillariga asoslanib, polisemantik sport atamalarini quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir [5]:

- bir nechta sport turlarida turli ma'noda qo'llaniladigan atamalar;
- bitta sport turi sharhi jarayonida kontekstdan kelib chiqib bir nechta sinonimik muqobilga ega atamalar;
- sport amplualarini (sportchilarning vazifalarini) bildiruvchi atamalar;
- ko'p ma'noliligi o'zlari tarkibiga kirgan iboralarda namoyon bo'ladigan atamalar;
- aslida, umumiy ma'no kasb etadigan, lekin sport sharhlovchisi nutqida terminologik xususiyatga ega bo'ladigan leksika.

Har xil sport turlarida qo'llaniladigan polisemantik atamaning o'zbekcha sharhda to'g'ri variantini tanlash uchun ushbu sport turini hamda so'z yoki iboraning aynan mana shu sport turidagi ma'no nozikliklarini bilish talab qilinadi. Fikrimizni bir qator misollar yordamida tasdiqlashga urinib ko'ramiz.

Score – bu “hisob” (sport o'yinlarida), “baho” (dzyudoda), “ballar yig'indisi” (yengil atletikada).

Draw – ko'plab sport turlarida raqiblarni aniqlash uchun “qur'a”, futbol va boshqa o'yin turlarida esa “durang”, ya'ni g'olib aniqlanmagan vaziyat deb tarjima qilinishi mumkin. Kyorling sport turida vaziyatga qarab, raqib toshini urmasdan o'z toshini maqbul joyga o'rnatish hamda o'yin (musobaqa) borligini anglatadi. Masalan: We have a draw tonight. – Bugun kechqurun o'yinimiz bor.

Vault – sport gimnastikasida “tayanib sakrash” (Oksana Chusovitina aynan mana shu turda ko'plab musobaqalarda zafar quchgan), yengil atletikada esa **pole vault** – “langarcho'pga tayanib sakrash”.

Heat – suzish musobaqalarida “suzish”, baydarka va kanoeda eshkak eshishda “poyga”, yengil atletikada – “yugurish” tarzida ishlatiladi. Shu bilan birga aksariyat hollarda bu saralash bosqichlaridan biriga nisbatan qo'llanilishi e'tiborga loyiq. Masalan: Heat 3 was even faster than the semifinals. – Uchinchi saralash poygasi yarim finaldan ham tezroq bo'ldi.

All-around competition – qator sport turlari (konkida yugurish, badiiy gimnastika, sport gimnastikasi) bo'yicha ko'pkurash musobaqasi. Gimnastikada “mutlaq birinchilik” sifatida ham aytish mumkin, lekin konkida tez yugurishga nisbatan iboraning bu ma'nosi qo'llanmaydi.

Kick – futbol va taekvondoda “tepish” yoki “oyoq bilan urish”, kikkboksingda “tepish” yoki “oyoq zarbasi” (side kick – “yon zarba” yoki “yondan zarba”). Suzishda bu atamaning shunga o'xshash ma'nosi “tepki” yoki “oyoqlarning ishchi harakati”. Konkida yugurish va short-trekda esa “marra chizig'iga konkini keskin tashlash”, chunki sportchining vaqti konkining uchi marra chizig'i bilan kesishganda qayd etiladi.

Futbol sharhlarida **kick** atamasi o'zbekchaga noto'g'ri tarjima qilingan holatlarga duch kelamiz. Jumladan, **free kick** (“jarima zarbasi”), **corner kick** (“burchak zarbasi”) ma'nolarini berish maqsadida ayrim sharhlovchilar ma'noni buzib “jarima to'pi”, “burchak to'pi” deyishadi. Inglizchaga murojaat qilsak, sharhda **indirect free kick** – “erkin zarba”, ya'ni qoida buzilgani bois o'yin to'xtatilgandan so'ng to'pni bevosita darvozaga yo'llash mumkin emas, mabodo to'p to'rga hech kimga tegmasdan borib tushsa, gol inobatga olinmaydi hamda **direct free kick** – “jarima zarbasi” (qoida buzilgan joydan bevosita zarba bilan darvozani ishg'ol qilish mumkin) farqlanishi zarur.

Freestyle – suzishda “erkin uslub” (“krol”), chang'ida yugurishda “erkin uslub” (“konkisimon yurish”), muzda konkida figurali uchishda esa “erkin dastur”.

Shu bilan birga **Freestyle** – tog' chang'i sportining alohida turi sanaladi. Aynan mana shu turda Norvegiyada o'tgan 1994-yilgi qishki olimpiya o'yinlarida O'zbekiston vakilasi Lina Cheryazova chempion bo'lgan.

Freestyle wrestling – olimpiya o'yinlari dasturidan joy olgan sport kurashlarining bir turi “erkin kurash” deb ataladi.

Xulosa o'rnida polisemantik sport atamalarini sharhda qo'llashda ularning ko'pchiligi umumiy sport atamalari emas, balki muayyan sport turlariga taalluqliligi va hatto bir sport turi doirasida bir atama bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkinligini inobatga olish shartligini ta'kidlash zarur. Shuningdek, o'zbekcha sharhda inglizchadagi sport atamalarining tarjimasi variantini tanlashda mazkur atamaning sharhlanayotgan sport turidagi ma'nosi va foydalanish an'analarga, shuningdek, lingvistik kontekstga alohida e'tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Блеер А.Н., Суслов Ф.П., Тышлер Д.А. Терминология спорта. Толковый словарь-справочник. – Академия, 2010.

2. Звонков, В. Л. Англо-русский энциклопедический словарь хоккейной терминологии [Текст] / В. Л. Звонков. – М.: Р.Валент, 2009. – 304 с. – ISBN 978-5-93439-264-3.

3. Официальное пособие для подготовки переводчиков [Текст] : учебное пособие / под ред. А. В. Моисеева, П. Г. Караханова, И. М. Заславской, Е. А. Стибневой. – М.: Оргкомитет «Сочи 2014», 2012. – 191 с.

4. Общий терминологический глоссарий XXII Олимпийских зимних игр и XI Паралимпийских зимних игр 2014 года в Сочи [Текст] / англо-русский. – М.: Оргкомитет

«Сочи 2014», 2012. – 1050 с.

5. Писарев Я.А. Перевод многозначных спортивных терминов с английского языка на русский язык // Современные научные исследования и инновации. 2014. № 11. Ч. 3 [Электронный ресурс]. URL: <https://web.snauka.ru/issues/2014/11/40947> (дата обращения: 17.04.2025).

6. Mirzakhakim TUKHTAMIRZAEV. Развитие спорта в Республике Узбекистан с точки зрения спортивного комментатора // İmgelem | Sayı: Özbekistan Özel Sayısı | Eylül 2024 | 391-410 Doi: 10.53791/imgelem.1482254 Derleme Makale/Review Article

7. Тухтамирзаев М. Роль СМИ в освещении Олимпийских игр // Т.: “Талқин ва тадқиқотлар” республика илмий-услубий журнали. – 2022. – 4-сон. Б.294-296.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. 5 жилдли / Масъул муҳаррир А.Мадвалиев. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, – 2020.

. المبادئ والمؤثرات الخارجية في تعليم اللغة العربية وظيفيا في أوزبكستان

PRINCIPLES AND EXTERNAL INFLUENCES ON THE FUNCTIONAL TEACHING OF ARABIC IN UZBEKISTAN.

هاشم إسماعيل همام علي

أستاذ بجامعة اللغات العالمية، دكتوراه في طرق التدريس

**Hashem Esmael Hammam Ali, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doctori, PhD O'zDJTU**

Аннотация

Функциональный метод при обучении арабскому языку основывался на наборе принципов, извлеченных из нескольких теорий, разработанных различными школами, включая структурализм, формализм и бихевиоризм. Эти принципы включают в себя: принцип необходимости, принцип интереса, принцип активности, закон эффекта и его роль в обучении арабскому языку, а также закон повторения.

يقصد بتدريس وتعليمية اللغة العربية بمؤسسات التعليم العالي في أوزبكستان، أن يهدف تدريسها وتعليمها إلى تحقيق القدرات اللغوية عند المتعلم الأوزبكي ليتمكن من ممارستها في وظائفها الطبيعية العملية ممارسة. صحيحة بتوجيه نشاطات المعلم والمتعلم نحو تحقيق المهارات اللغوية الأربع التي تجعلهم قادرين على فهمها إن سمعوها أو قرؤوها، ونقل.

فكرهم إلى الآخرين شفويا أو كتابة بوساطتها ويقول نصيرات

: (إن المدرسة الوظيفية تهتم اهتماما كبيرا بوظيفة اللغة أكبر من إهتمامها بالشكل أو البنية ، كما أن هذه المدرسة تؤكد أن تعليم اللغة العربية لا يمكن أن يتم بمعزل عن الظروف المحيطة بها ، أي السياقات التاريخية والثقافية) ويقول المتوكل : (إن من أساسيات دراسة اللغات لسانيا ووظيفية ، دراسة اللغة الطبيعية في علاقتها بالوظيفية .التواصلية بين المتخاطبين، وهو ما يطلق عليه اللسانيات الوظيفية القدرة التواصلية ، أي قدرة التواصل بين مستخدميها)

إن مستعمل اللغة الطبيعية وهو ينتج ويستخدم الوحدات الكلامية ، يهدف إلى تحقيق التواصل بينه وبين المتخاطبين ، وفي تدريس اللغات يمكننا استثمار بعض فكر اللسانيات الوظيفية في إقامة علاقات تواصلية بين الدارسين والمتعلمين اللغة العربية في أوزبكستان ؛ إنطلاقا من أن اللغة نسق له علاقته بنسقه الإستعمالي التداولي وفقا للمنظور اللساني الوظيفي ، أي بوظيفته من خلال التركيز على التعلم الذي يستجيب لحاجات المتعلمين ، ويمكن أن أن يستثمرها

المتعلمون في واقعهم الحياتي وبذلك نجد معنى لهذه التعليمات الذي – سيساعد المتعلم على توظيف واستخدام مكتسباته اللغوية في واقعه الحياتي والممارسة العملية وتنمية القدرة التواصلية التي يريدها ؛ وبذلك يشعر بأن ما تعلمه من دروس وأن ما تلقاه من معلومات يمكن استثماره في المحيط الذي

. يعيش فيه كما ذهب صديقي يقول

الدليمي : (إن ذلك يوصلنا إلى التعليم الصحيح والمستمر- لأي لغة ، وهو تمكن المتعلم من فهم واستعمال اللغة الإستعمال الصحيح في ظروف مهارتها الأربع من قراءة ، أو كتابة ، أو تكلم ، أو استماع ، و أي نشاط لغوي لا يتعلق بمهارات اللغة الأساسية ، أو غايات تعلمها هو نشاط زائد قد بصرف المتعلمين عن اللغة ، أو يسبب لهم كرها ونفورا-

. منها)

اتفق مع ماذهب إليه الدليمي ، حيث نجد بعض المعلمين يصرفون الطلاب والدارسين إلى فروع أخرى من اللغة بعيدا عن المهارات الأساسية الأربع ، وهذا يؤدي إلى عزوف الكثير من الطلاب عن تعليم اللغة لأستشاعرهم بنقل ما يتعلمونه ويدرسونه ، كما يجب أن نراعي أن أي نشاط زائد سيؤدي إلى نتائج عكسية على المتعلمين يقول مذكور : (بما أن الإتجاهات الحديثة في تعليم اللغة تهتم بالمعنى والفكر ، فتعلم اللغة يتضمن التفكير بها و إن الممارسة الواعية للغة هي تلك التي تهتم بالمعنى والفكر- ، فتعلم اللغة يتضمن التفكير بها ، والممارسة الواعية للغة هي

. التي تتم في إطار من المعنى وليس في مجرد التدريب الآلي عليها)

من قول الدكتور مذكور نستنتج أن تعليم اللغة وخاصة اللغة العربية لايفصل تماما عن الإمام بثقافتها والتفكير بها، لذلك على معلم اللغة العربية أن يلم إماما كافيا بثقافة اللغة حتى يسهل عليه التواصل بها مع الآخرين ، وهنا نقصد أهل اللغة الأصليين ، وعندما يفكر باللغة التي تعلمها يسهل عليه التواصل مع أهلها لابد لمتعلم اللغة من الإهتمام بالممارسة والتطبيق اللغويين ؛ حيث أن إتقان أي مهارة لايمكن أن يتم إلا بالممارسة والتدريب ، ويكون ذلك داخل غرفة التعليم ، ثم الإنتقال إلى خارجها عندما يتم ربط دروس اللغة بالحياة ، وبموضوعات

. ثلاث النمو العقلي والفكري والثقافي للمتعلم

على كل معلم أن يراعي أنشطة الطلاب داخل غرفة التعلم ، وأن يراقب كل متعلم ويستنتج مدى تأثير الممارسة والتطبيق ، ثم أثر ذلك عليهم عندما يخرجون وربط دروسهم بالحياة .

: المبادئ التي اعتمدت عليها الوظيفية تحت مفهوم تدريس اللغة العربية

استندت الطريقة الوظيفية عند تدريس اللغة العربية على مجموعة من المبادئ المستخلصة من عدة نظريات

: وضعتها مدارس مختلفة منها البنوية والشكلية والسلوكية ومن هذه المبادئ

1 - مبدأ الحاجة :

إن الحاجة من الأساسيات التي تقوم وتعتمد عليها الوظيفية ؛ فالحاجة هي التي تحرك وتدفع سلوكنا وأفعالنا نحو أهداف تشبعها ، فالحاجات تتعدد وتختلف باختلاف أهدافنا ، فهناك الحاجة إلى المعرفة والحاجة إلى العمل والحاجة إلى البحث والحاجة إلى النجاح إلخ.....

يقول العيسى : (لا يمكن لأي حاجة أن تظهر إلا إذا أثارت اهتمام المتعلم بها ، ولا شيء يمكن أن يكسب اهتمام إلا

إذا نشطة حاجته ، لذلك نجد أن هناك علاقة قائمة بين الحاجة والاهتمام تهدف إلى تحقيق التكيف والتوازن لدى متعلم

. اللغة العربية بعد إشباع الحاجة والشعور بالرضا للاهتمام)

من خلال قول العيسى نستنتج أن حاجات المتعلمين واهتمامهم مصدر مهم من مصادر وضع مفاهيم واستراتيجيات الأهداف التعليمية لمفهوم تدريس اللغة العربية ، ولقد أكدت الدراسات الوظيفية المختلفة ذلك فكلما تحققت حاجات المتعلمين

زاد حماسهم وإصرارهم على تحقيقها ، وقد ارتبط مستوى تحصيل المتعلم بمدى

. استعدادة وقابليته للتعلم ، وبما يثيره الموقف التعليمي من دوافع وحاجات وميول يشعر بحاجته إلى إشباعها مبدأ الحاجة من المبادئ المهمة

التي ترسخ وتعمق مفهوم تدريس اللغة العربية في أوزبكستان ، فعندما تخلق

. الحاجة يزداد ويقوى الدافع وكلما قوى الدافع والحاجة تحقق الهدف

2 - مبدأ الإهتمام :

عرفت الطريقة الوظيفية مصطلح (إهتمام) على كل ما يؤدي إلى إثارة ردود أفعال المتعلمين تجاه موضوع يثيرهم

في لحظة معينة ، ويدعوهم إلى النشاط والعمل ، والتساؤل والاستفسار- ، ثم التوجه والعمل على تحصيل المعلومات ، فيختارون ما يهمهم ويفيدهم ، ويلبي الحاجة المعرفية التي خلقت لديهم ، فأوجد علاقة إهتمام بينهم وبين الموضوع ، وهذه

. العلاقة تتميز بالتجدد حسب حاجة المتعلم إن الإهتمام له

دور مهم في خلق علاقة توافق وتكيف بين المتعلم ووسطه مهما كان نوعه على أن يجد في هذا

. السياق الغني الي يمكنه من إشباع حاجته والعودة إلى التوازن والتكيف يؤكد ماندير أن ما يثير

السلوك هي الحاجة في علاقتها بالإهتمام مع ما يمكن أن يؤدي إلى إشباعها ، وإن الإهتمام

. بمفرده لن يعطي النتائج المطلوبة إلا إذا ارتبط بإحدى الحاجات ضمن مشكلة ما يجب على المعلم أن

يبحث ويصل إلى إهتمامات الطلاب ويستفيد منها في إثارة حاجاتهم المعرفية حتى تستطيع الوصول إلى تعليم يدوم ويتمتع المتعلم من توظيفه عندما يريد

للوصول إلى تعلم جيد ومفيد للدارسين ، فكلما زاد الإهتمام

. زادت الإثارة في المحاولة للحصول على تعليم أفضل توصل

الوظيفية إلى معرفة الدور الهام للإهتمام في جعل التعلم أكثر حماسة ، وأبقى أثرا ، وأشاروا- بأن الإهتمام المفروض من الخارج سيؤدي إلى ضعف التعلم ونفور الطلاب وفقدانهم ماتعلموه واكتسبوه بسرعة ، وإن الإهتمام الحقيقي

. النابع من إرادة المتعلم وحاجته الحقيقية للمعرفة سيجعل التعلم والتعليم أقوى أثرا

3 - مبدأ النشاط :

Gemini tarjiması grammatik jihatdan to'g'riroq bo'lib, “oshiq”, “yigit”, “darvoza” kabi atamalar to'g'ri qo'llangan. Biroq “qora sevda bilan” iborasi she'r muhitini yetarlicha aks ettirmaydi va asl matndagi sirni susaytiradi. “Oshiq edi har biri”ning tuzilishi ham she'r ritmini buzadi, she'r bayonini keraksiz ravishda uzaytiradi. Binobarin, u ma'no jihatdan kuchli bo'lsa-da, she'r jihatidan yetarli emas.

DeepSeek tarjiması lingvistik aniqlikka yaqin bo'lsa-da, “yosh” va “muhabbatli” kabi so'zlar she'ring ravonligiga zarar yetkazadi. “Yosh” so'zi yosh bilan bog'liq; Biroq, bu yerda nazarda tutilgan “yosh” ma'nosi uchun “yigit” ma'nosini afzal ko'rish kerak edi. Bundan tashqari, “muhabbatli” iborasi o'rniga chuqurroq ma'noli so'zlarni tanlash mumkin edi. Ritm va ifoda yaxlitligi jihatidan zaif bo'lgan bu tarjima she'ring estetik kuchini aks ettira olmadi.

Umumiy baholashda har uchala tarjimada ham turli jihatlarida kamchiliklar mavjud: OpenAI tarjiması til jihatidan noto'g'ri, Gemini tarjiması ma'noni qamrab olgan, lekin she'riy jihati jihatidan zaif, DeepSeek tarjiması esa lingvistik jihatdan to'g'ri ko'rinadi, lekin ritm va semantik yaxlitlik jihatidan zaif. Shu nuqtai nazardan ham ma'noni saqlaydigan, ham she'riy tuzilmani saqlaydigan tarjima yondashuvi zarur.

Asl matn:

Bir hayâlet gibi dünya güzeli
Girdiğinden beri rü'yâlarına;

Hepsi meshûr, o muammâ güzeli
Gittiler görmeye Kaf dağlarına (Beyatlı, 2005:116)

Open AI:

Bir **hayolot** kabi dunyo go‘zeli,
Kirgandan beri **xayollariga**;
Hamma **mashhur**, o **muammo** go‘zeli,
Ketishdi ko‘rishga Qaf tog‘lariga.

Gemini:

Bir **hayolat** kabi dunyo go‘zali,
Ularning **tushlariga** kirib qolganidan beri;
Hammasi **maftun** o‘sha **sirli** go‘zalga,
Qof tog‘lariga yo‘l oldilar uni ko‘rishga.

Deepseek:

Bir **arvoh** kabi dunyo go‘zali
Kirganidan beri **tushlariga**;
Hammasi **mashhur**, bu **jumboq** go‘zali,
Ketdilar ko‘rishga Qof tog‘lariga.

Şiirin ikinci dürtlüğünde, Mehlika Sultan’ın bir hayalet gibi gençlerin rüyalarına girmesi ve onları Kaf Dağı’na doğru mistik bir yolculuğa sürüklemesi anlatılmaktadır. Bu simgesel anlatım, yapay zekâ modelleri tarafından farklı biçimlerde çevrilmiş; ancak çevirilerde anlam kaymaları ve şiirsel yoğunlukta azalma dikkat çekmiştir.

OpenAI tarjimasida “hayolot” so‘zi qo‘llangan, ammo bu atama o‘zbek tilida na tabiiy, na she‘riy kontekstga mos keladi. Xuddi shunday “muammo go‘zeli” iborasi ham asl she‘rdagi “muamma” so‘zining sehrli muhitini yetarli darajada aks ettira olmadi. Tor tuzilishi ham zaif va ritmik yaxlitlik buzilgan.

Gemini tarjimasida ma‘nosi aniq va tavsiflovchidir. “Tushlariga kirib qolganidan beri” iborasi “tushiga kirganidan beri” turkiy qatorni muvaffaqiyatli aks ettiradi. Qolaversa, meshur so‘z uchun qo‘llangan maftun tarjimasida ham to‘g‘ri. Biroq bu tarjimada misralar ancha uzun saqlangan va nasrga yaqin kelgan. Bu holat she‘r uyg‘unligini buzgan, she‘riy shaklning she‘riy ta‘sirini susaytirgan. Qolaversa, “hayolat” o‘rniga “arvoh”, “xayoliy” kabi keng tarqalgan va she‘riy iboralarga ustunlik berish kerak edi.

DeepSeek tarjimasida she‘riyat nuqtai nazaridan eng muvozanatli misollardan biridir. “An arvoh kabi” iborasi “bir hayalet gibi” metaforasini ham ma‘no, ham estetik jihatdan muvaffaqiyatli yetkazadi. Tuzilishi va ma‘nosi to‘rtlik davomida saqlanib qolgan. Biroq, “jumboq go‘zali” iborasi hali ham tanqidga ochiq. “Jumboq” so‘zi texnik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, she‘riy jihatdan noadekvat. Aksincha, “sirli go‘zali”ni tanlash she‘rni ham, ma‘noni ham yaxshiroq aks ettiradi. Ushbu tuzatish bilan DeepSeek tarjimasida kontent va format jihatidan eng muvozanatli bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sun‘iy intellekt yordamida tarjima vositalarining she‘r matnlarida duch keladigan asosiy qiyinchiliklari madaniy havolalar, xayoliy ifodalar va ritmik tuzilishning etarli darajada o‘tkazilmasligini o‘z ichiga oladi. Bu nazm janrining nasrga nisbatan sun‘iy idrok orqali tarjima qilinishida noqulay ahvolda ekanligini yana bir bor ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Beyatlı, Y.K. (2005). Kendi Gök Kubbemiz. İstanbul: Yapı Kredi Yayınları.
2. Çakır, E. (2021). Yapay zekâ destekli çeviri sistemlerinin edebi metin çevirilerinde sınırlılıkları. *Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi*, 61(1), 89–105.
3. Koehn, P. (2017). *Neural machine translation*. Cambridge University Press.
4. Salisbury, L., & Poibeau, T. (2022). AI and literary translation: Promises and pitfalls. *Literary and Linguistic Computing*, 37(3), 240–258. <https://doi.org/10.1093/lc/fqac021>
5. Toral, A., & Way, A. (2018). What level of quality can neural machine translation attain on literary text? *Translation Quality Assessment*, 24(2), 125–140.

ARISTOTELNING “POETIKA” ASARI VA XOTIRA KONTSEPTSIYASI: ADABIYOTSHUNOSLIK KATEGORIYASI SIFATIDA

M.A.Kazakova, SamDU
o`zbek filologiyasi fakulteti magistranti

Poetik ilmlar bashariyat rivoji va madaniy taraqqiyotiga bog'liq holda dunyo ilmiy-nazariy tafakkurining alohida sohasi sifatida o'z ildizlari bilan qadimgi davrlarga borib taqaladi. Uning ilk namunalaridan xisoblangan ma'lum va mashhur Aristotelning so'z san'ati-poetik san'at to'g'risidagi “Poetika” asarining [1] yaxlit mazmun-mohiyatiga ko'ra, shoir-so'z san'atkori, ijodkor borliqni xujjatlashtirish tarzida emas, balki alohida hodisalarni tahlilga tortish orqali ularning umumlashtirgan tarzda mohiyatini yoritishi lozim.

Jahon adabiyotshunosligida Aristotel asari bilan mushtarak muammolar doirasidagi “fojeaviy poklanish” tushunchasining talqinlari qatorida “katarsis” tushunchasining alohida sharhiga doir ko'plab urinishlar kuzatiladi. Gyote ta'kidlaganidek, “Katarsis haqida gapirganda (Aristotel nazarda tutilmoqda –M.K.) u istalgan dramatik san'at turidan, umuman olganimizda, mohiyatan har qanday poetik asarlardan talab qilinadigan sokinlik baxsh etuvchi tugallanganlikni nazarda tutadi” [2]

Aristotel asari bilan yurtimizda qadimdan yaxshi tanish bo'lishgan. Uning nazariyasi, qarashlari ko'plab mumtoz milliy-ilmiy asarlarning yaratilishiga asos bo'lgan. Birgina misol, “Bu asarlar hajm jihatidan ham turlicha. Forobiy o'z davridagi fanlarning turli sohalaridan yetuk mutaxassis bo'lish bilan birga, qadimgi yunon fani, ayniqsa, Aristotel asarlarini o'rganish, ularga sharhlar yozish va targ'ib etish bilan ham shug'ullangan. Olim faylasufning mantiqqa oid “Birinchi analitika”, “Ikkinchi analitika”, “Talqin etish”, “Topika”, “Sofistika”, “Kategoriyalar”, “Etika”, “Ritorika”, “Poetika”, “Metafizika” va b. asarlari, Ptolomeyning “Almagest”, Afrodiziyalik Aleksandrning “Qalb haqida”, Yevklid “Geometriya”sining ba'zi boblari, Porfiriyning “Isagoga” kabi asarlariga sharhlar yozgan. Qadimiy grek fani, ayniqsa, Aristotel asarlari islom dini hukmronligi davrida ilm-fan va xususan tabiat fanlari va falsafa rivojiga katta yo'l ochar edi. Yuqorida aytganimizdek, Aristotel risolalari tarjimai suryoniy, yunon tillaridan amalga oshirilgan bo'lib, ilmiy atamalar hali ishlab chiqilmagani tufayli faylasuf asarlarining arabiy tarjimalarini tushunish benihoyat mushkul edi. Ye. E. Bertels aytganidek, “Forobiyning bu ishini taqlidiy va nomustaqil deb baholab bo'lmaydi. Forobiyning ishlari qadimiy ilmni to'g'ri tushunishni ta'minladi.” [3]. Xullas, poetikaning, badiiy so'z san'atining umumbashariy rivojlanishi jarayonida “Sharq va G'arb ma'naviy-madaniy muhitida, aniqroq aytadigan bo'lsak, so'z san'ati takomili bilan bog'liq madaniyat o'choqlarida o'zaro o'xshashlik va umumiyliklar bilan bir qatorda, o'ziga xos betakror holatlar ham mavjud bo'lgan. Buning erqin misoli sifatida Aristotel “Poetika”si [4] va uning dunëviy tafakkurga bo'lgan ta'siri haqida gapirish mumkin”, deb ta'kidlaydi Z.To'ychieva o'z maqolasida [5].

Biz ushbu o'ta muhim hamda katta ahamiyatga ega mumtoz manba va unga munosabat borasida yanada ko'proq manbalarni keltirishimiz, ulardan iqtiboslar olishimiz mumkin. Zero, chindan Aristotelning asari mislsiz darajada umumbashariy ahamiyatga ega va shu bilan birga mazkur tadqiqotning ma'lum bir ma'noda tadqiqotchilar, xususan, milliy adabiyotshunosligimiz vakillari nazaridan chetda qolayotgan ayrim jihatlari mavjudligi, aniqrog'i, nazariy-metologik jihatdan takomillashtirib, keng va batafsil ishlanmaganligini ham ta'kidlamog'imiz joyiz. Ana shunday tadqiqotchilar e'tiboridan chet qolgan qarashlar sirasiga olimning xotira kontseptsiyasi kiradi. Xotira, uning tarixiy va shaxsiy ko'rinishlari hamda uning badiiy matndagi in'ikosi hali hamon o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilmay kelinayotgan ilmiy hodisalardandir.

“Poetika” asari hamda xotira kategoriyasining muhim asosiy muhim ahamiyatining adabiyotshunoslikka xos tahlili asosida shunday xulosa chiqarish mumkin: umuminsoniy xotira kategoriya sifatida o'zini namoyon qilganida nafaqat falsafa, balki adabiyotshunoslik sohasining ham predmetiga aylanadi.

Jahon adabiyotshunosligi tarixida xotira kategoriyasini ilmiy jihatdan ishlagan va unga e'tibor

qaratgan tadqiqotchilarning birinchisi Aristotel xisoblanadi. Chindan qadimgi yunon olimi o'zining yana bir mashhur asari "Metafizika"da shunday ta'kidlaydi: "Xotira sharofati bilan kishilarda tajriba paydo bo'ladi: aynan bir buyum borasidagi bir qator xotiralar oqibatda bir tajriba mazmunini kasb etadi...San'at esa, tajribaning bir qancha kuzatishlari natijasida o'xshash predmetlarga nisbatan umumiy bir qarash paydo bo'lgach, paydo bo'ladi" [6]. Agar "Poetika" asarining tuzilishi va mazmuniy yaxlitligiga e'tibor qaratsak, unda "bir buyum borasidagi bir qator xotiralar" yaqqol kuzatiladi, xatto har bir bo'limi uchun alohida predmetlar takror va takror eslaniladi. Aniqrog'i, faylasuf fikr yuritayotgan tushuncha, u yoki bu bo'limda shunchaki aytilgan narsa to'g'risida mushohada bo'lmasdan, balki, o'z asosida u yoki bu "xotiralar qatori"ning tahlili ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ushbu nuqtai nazardan "Poetika" asari to'g'risida ikki xil mulohaza yuritish mumkin: a) xotira kategoriyasiga tayanish faylasufga asosiy tezisga to'xtash imkonini beradi: poeziya ko'proq umumiy narsalarni gapiradi, tarix esa – xususiy yagona narsalarni bayon qiladi; b) "Poetika" asarining matnini o'zi kattaroq universal tushunchaning -xotiraning tarkibiy qismiga, komponentiga aylanadi. Aristotel nafaqat san'atning taqlidiy tabiatini kashf qiladi, balki u asl badiiy matndagi bu taqlid predmetini aniq tasvirlab beradi: bu inson emas, balki xarakatdir. Ushbu o'ziga xos murakkab nazariyani to'liq va batafsil anglamaslik yoki nazardan chetda qoldirish, ta'bir joyiz bo'lsa, uning printsiplaridan chekinish, zamonaviy badiiy adabiyotni mumtoz ma'nodagi asl badiiylardan chekinayotganligining sabablaridan muhimidir.

Yunon faylasufi xotira kategoriyasiga jiddiy tayanadi. Majmuaviy tabta'ga ega bo'lgan va aksariyat yaxshi biladigan bir iborani shu o'rinda eslash maqsadga muvofiq bo'ladi: shoirning vazifasi chindan sordir bo'lgan narsa haqida emas, balki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan narsa, demakki, ehtimoliy taxmin yoki zarurat haqida gapirishdan iborat. Aslida bu talqin ham Aristotelga tegishli nazariya asnosida paydo bo'lganligi ma'lum. Bu fikrda qo'llanilgan atamalarning yuzaki lingvistik tahlili ham, olimning "mumkinlik" va "ehtimoliylik" tushunchalarini mantiqan sinonim xisoblamaganligini ko'rsatadi, bundan tashqari olim ikkingchi tushunchaning birinchisiga semantik tobeligini ta'kidlaydi, shu sababli go'yo "ehtimoliylik" "zaruratni" siqib chiqaradi.

Aristotel "Poetika"sining asosiy estetik xulosalari uchun xotira kategoriyasining tal qiluvchi ahamiyati haqida gapirar ekanmiz, istasak istamasak uning yashirin qismi, berkingan "aysberg" bo'lagi kabi jixatiga e'tibor qaratishimiz zarur. Faylasufning shunday fikrini xotira tushunchasi bilan qanday bog'lash mumkin: "Yaxlitlik, butunlik boshi, o'rtasi va oxiri mavjud bo'lgan narsadir" [1,62]. Boshqacha aytganimizda, faylasuf tragediya "yaxlit va tugallangan" xarakterga taqlid qilishini isbotlaydi; yanida aniqroq va soddaroq ifodalasak, asarda shunchaki xotira emas (Aristotel asarida vaqt xotira tushunchasiga sinonim xisoblanadi), balki ijodkor idrok etgan, anglagan holda tanlagan, xotirlagan narsalar adabiyotshunoslik kategoriyasiga aylanadi.

Xotira individga xos xususiyat sifatida o'tmish tajribasini obrazli tasvirlashi o'sha individning asab-psixologik apparatining ishi xisoblanadi, bu yerda yaqqol protsessuallik-jarayon kuzatiladi va o'z-o'zidan, go'yoki shartli tarzda xotira falsafa sohasiga emas, balki psixologiya sogasiga tegishli kategoriya sifatida ommaviy idrok etiladigan bo'lib qolgan. Umuminsoniy xotira uning kategorial alomatlar bilan birga, bizning nazarimizda, nafaqat falsafa, balki adabiyotshunoslik fanining ham o'rganish ob'ekti sifatida tadqiq etilmog'i lozim. Zamonaviy jahon adabiyotshunosligida ushbu qarashlarimizga mos bir qator nufuzli tadqiqotlarni sanab o'tishimiz mumkin.[7]

Umumbashariy, umuminsoniy abadiy kategoriyalarga (go'zallik, muxabbat, xayot, ezigulik, uyg'unlik) yo'naltirilgan xotira har bir individ uchun ularni o'ziga xos idrok qiladi, angelaydi, ularni bir tomondan aniq bir shaxslarga nisbat bersa, ikkinchi tomondan qarama qarshi bo'lgan umumbashariy ekvivalentlari (xunuklik, nafrat, o'lim, yovuzlik) bilan qiyoslaydi. Aynan shu sababli ham umuminsoniy xotirani qandaydir jamoaviy xotira sifatida talqin etish mumkin emas, shuningdek uni insoniyatning umumbashariy tajribasiga o'g'shatish, tenglashtirish ham xato xisoblanadi. Biz inson va umuminsoniy xotiralarni avvalo protsessuallik jihatidan differentsiatsiyalash, farqlash tarafdorimiz. Birinchidan, xotira jarayon bo'lib, yaqqol protsessuallik namoyon qiladi, ya'ni u jarayon tariqasida sodir bo'ladi (eslab qolish-saqlash-qayta yaratish), ikkinchidan – aksariyat holllarda statik, turg'unlik xossasiga ega,- u o'ziga xos insoniyatning umumiy omborxonasi bo'lib, undan hech narsa yo'qolmaydi, aksincha, u tarix bilan hamqadam

kengayib, boyib boradi. Bu tarixdan farqli o'laroq, xotira shunisi bilan ajralib turadiki, u o'zidan zamon-makon ta'siridagi talqinni istisno qiladi, zero bunday talqin boshlangan joyda – tarixning o'zi namoyon bo'ladi, u esa, umuminsoniy nuqtai nazardan ob'ektiv bo'lmagan, chunki har doim siyosat ta'sirida bo'lgan. Biz misol keltirish uchun shoira Zulfiya she'rlariga murojaat qilamiz. Shoiraning bir ma'noda talqin etish mumkin bo'lgan lirik qaxramoni butun ijodiy xayoti davomida dinamik tarzda o'sadi, evrilishlarga uchraydi – shoiraning shaxsiy xotirasi ta'sirida yaratilgan lirik qaxramoni, aksariyat badiiy personajlari, nazarimizda oddiy insoniy kechinmalar, his tuyg'ular doirasida emas, ulkan ijtimoiy-siyosiy, adabiy-falsafiy qarashlarta'sirida yaratiladi. Bir qarashda usubiy silliq, yozilish manerasi Zulfiya mahoratiga mos ravishda go'zal va nafis tus olsada, tag zamirida, deyimoiv tarzida har qaxramon talqini zamirida millat taqdiri, uni tashvishga solayotgan o'y-xayollarning ulkan umumlashma falsafasi yotadi. Xatto shoira tasviridagi ayollar obrazi ham, uning o'zi-lirik qaxramoni talqini uchun buyuk rus faylasuf yozuvchisi F.M Dostoevskiyning qaxramonlaridan biri aytgan “Men seni nafratlanib sevardim, sen esa-yo'q!”[8] sxemasini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa tariqasida ta'kidlasak, biz umuminsoniy xotira sifatida kishilar tomonidan turli manbalarda qayd etilgan tarixiy yoki to'qima shaxlar hamda ularning hatti-xarakatlari mavjudligini tushunamiz, ularning qadriyati vaqt bilan emas, balki vaqtlararo inson tomonidan, ularning bir ma'noda baholash imkoniyati mavjudligi yoki mavjud emasligi bilan belgilanadi. Shu sababli, badiiy adabiyot ham adabiyotshunoslik fani uchun bu xotiraning ayrim, alohida tarkibiy qismlarini tahlili qilish va tasvirlash imkoni mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Аристотель. Поэтика. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. У.Тўйчиев ва М.Маҳмудов таржимаси – 152 б.
2. Гете И.-В. Собрание сочинений в 13 т., Т. 10.- Москва, 1987. -С. 686. Таржималар ўзимизники – М.К.
3. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб.-Тошкент, Академия, 1997.- С.225.
4. Арасту. Ахлоқи кабир.-Тошкент: -Ўзбекистон Миллий энцикло-педияси. 2018. -350 б.
5. Тўйчиева З. Аристотель «Поэтика»си ва Шарқ ва Ғарбда филологик илмларнинг ривожланиши.- Хорижий филология №4, 2020 йил.- С. 45-52.
6. Аристотель Метафизика. Кн. 13. Гл. 3. Москва, 1934. -С. 223. [https://lib.ru/POEEAST/ARISTOTEL/metaphiz.txt_with-big-pictures .html](https://lib.ru/POEEAST/ARISTOTEL/metaphiz.txt_with-big-pictures.html). Муро-жаат санаси: 10.04.2025
7. Киор В.И. “Поэтика” Аристотеля и концепция памяти: литературоведческие аспекты анализа. // ISSN 2409-1154 Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університету. Сер.: Філологія. 2019, № 42, том 2.- С. 134-137.
8. Достоевский Ф. Ака-ука Карамазовлар.-Тошкент, Янги аср авлоди, 2021.- 474 с.

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI BADIY TARJIMA MUAMMOLARI: PRAGMATIK YONDASHUV

B.I. Abdunabiyeva, AndDCHTL,
Gavxaroy Isroiljon qizi, PhD, dotsent

Kirish. Bugungi globallashuv davrida turli xalqlarning madaniy-ma'naviy merosini o'zaro anglash, tushunish va targ'ib etish jarayonida **badiiy tarjima** muhim vosita sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek adabiyotlari o'rtasidagi badiiy tarjima faoliyati nafaqat tillararo aloqa, balki madaniyatlararo muloqotning chuqur jarayonidir. Har bir millat o'zining tarixiy tajribasi, urf-odatlar, qadriyatlari va estetik idealiga ega bo'lgani bois, bu farqlar badiiy matnlarni boshqa tilga tarjima qilishda ko'plab **lingvistik va pragmatik muammolarni** yuzaga keltiradi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarjimashunoslik fanida **pragmatik yondashuv** alohida e'tibor qozona boshladi. Taniqli tarjima nazariyotchilari — **E. Nida, K. Rais, P. Nyumark, Mona Beyker** va boshqalar — tarjima jarayonida faqat semantik muvofiqlik emas, balki **komponentlararo kontekst, madaniy xususiyatlar va o'quvchi reaksiyasi** ham muhim ahamiyat kasb etishini asoslab berishdi. Ularning fikricha, tarjima faqat so'zlar almashinuvi emas, balki ma'no, konnotatsiya va kommunikativ maqsadning to'laqonli yetkazilishidir.

Pragmatik yondashuv — bu tarjimada nafaqat lug'aviy yoki grammatik elementlarga, balki matnning **nutq vazifasi, muallif niyati, kontekst** va **madaniy fon** kabi omillarga asoslanib ishlash demakdir. Bunday yondashuv, ayniqsa, badiiy tarjimada nihoyatda zarur, chunki adabiy matnlar ko'pincha emotsional, metaforik va ko'p qatlamli bo'ladi.

Masalan, ingliz tilida keng tarqalgan "He kicked the bucket" iborasi o'zbek tiliga "U chelakni tepdi" tarzida so'zma-so'z tarjima qilinganida, u o'zining asl (ya'ni "vafot etdi") ma'nosidan mutlaqo uzoqlashadi. Bu esa tarjima asarining **emotsional ta'sir kuchini** kamaytiradi va **kontekstual moslikni** buzadi. Shu sababli badiiy tarjimon nafaqat til bilimiga, balki **madaniy bilimiga, ijtimoiy-funksional ko'nikmalarga va psixolingvistik sezgirlikka** ega bo'lishi lozim.

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri — **madaniy tafovutlarni** to'g'ri ifoda etishdir. Ingliz adabiyotida aks etgan ijtimoiy institutlar, diniy tushunchalar, kundalik hayot tarziga oid elementlar o'zbek madaniy kontekstida to'g'ridan-to'g'ri muvofiq kelmasligi mumkin. Shu sababli, bunday elementlarni tarjima qilayotganda **ekvivalentlik, adaptatsiya** yoki **izohli tarjima** kabi usullardan foydalanish zarur.

Maqolada ingliz va o'zbek adabiyotlari o'rtasidagi badiiy tarjimalarda pragmatik yondashuvning ahamiyati, uning nazariy asoslari va amaliy muammolari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, tarjimonning **madaniy kompetensiyasi, kontekstni to'g'ri tushunishi** va **o'quvchiga yo'naltirilgan strategiyasi** asosiy tahlil mezonlari sifatida qaraladi. Maqsad — badiiy tarjima sifatini oshirishda pragmatik yondashuvning rolini ochib berish va takomillashtirish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

Ushbu tadqiqotda quyidagi **ilmiy-uslubiy yondashuvlar** asosida tahlil amalga oshirildi:

1. **Deskriptiv-analitik metod** – ingliz va o'zbek adabiyotlaridagi badiiy matnlar tahlil qilinib, ulardagi tarjima muammolari va pragmatik tafovutlar aniqlab chiqildi.

2. **Komparativ (taqqosloviy) metod** – asliyat va tarjima matnlari o'zaro solishtirildi, kontekstual, leksik-semantik, stilistik va pragmatik o'zgarishlar tahlil qilindi.

3. **Pragmatik analiz** – matnning kommunikativ vazifasi, muallif niyati, auditoriyaga ta'siri va madaniy semantik qatlamlar o'rganildi.

4. **Tarjimashunoslik nazariyalari asosida taxlil** – E. Nida, P. Newmark, M. Baker, C. Nord kabi tarjima nazariyotchilarining ishlari asosida asosiy muammolar tasniflandi va baholandi.

5. **Amaliy misollar bilan tekshiruv** – tanlab olingan ingliz adabiy matnlari (Hemingway, Dickens, Rowling) va ularning o'zbekcha tarjimalari, shuningdek, o'zbek adabiyotining ingliz tiliga tarjima qilingan namunalardan (Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qodiriy) foydalanildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. **Pragmatik yondashuvsiz amalga oshirilgan tarjimalar** ko‘pincha muallif niyatini, emotsional kontekstni va madaniy ma’lumotni to‘liq yetkazolmaydi.

2. **Ingliz tilidan o‘zbek tiliga** tarjima qilingan badiiy matnlarda **idiomatik ifodalar, kulgi va kinoya, milliy realiyalar** kabi elementlar noto‘g‘ri yoki yuzaki tarjima qilinishi kuzatildi.

3. **O‘zbek tilidan ingliz tiliga** qilingan tarjimalarda esa **tasviriy obrazlar, metaforalar, stilistik o‘ziga xosliklar** yetarli darajada saqlanmasdan, asarning ruhiy-psixologik ta’siri kamayib ketgan holatlar mavjud.

4. Tarjimonlarning **madaniy kompetensiyasi** etarli bo‘lmagan holatlarda, **adaptatsiya** o‘rniga **so‘zma-so‘z tarjimaga** tayanish kuzatiladi, bu esa matnning o‘qishiligi va estetik ta’sirini kamaytiradi.

5. **Pragmatik yondashuv asosida tahlil qilingan misollar** esa muallif uslubining, konnotatsiyalarning, nutq kontekstining saqlanishini ta’minlaydi va o‘quvchida to‘g‘ri tushuncha hosil bo‘lishga xizmat qiladi.

Xulosa. Badiiy tarjima — bu oddiy tilshunoslik amaliyoti emas, balki **madaniyatlararo muloqot vositasi**, ijodiy tafakkur va til qobiliyatining uyg‘unlashgan shaklidir. Ingliz va o‘zbek adabiyotlari o‘rtasidagi badiiy tarjimalar jarayonida yuzaga keladigan **lingvistik, stilistik va ayniqsa, pragmatik muammolar** nafaqat tarjimon uchun, balki o‘quvchi auditoriyasi uchun ham murakkablik tug‘diradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, badiiy matnni o‘zga tilga tarjima qilishda **pragmatik yondashuvning ahamiyati beqiyosdir**. Chunki u orqali muallif niyati, matnning emotsional va madaniy konteksti, personajlar ruhiy holati va o‘quvchiga etkazilmoqchi bo‘lgan asosiy g‘oyalar saqlanib qoladi. Har bir millat adabiyotida mavjud bo‘lgan **realiyalar, iboralarning konnotatsiyasi, obrazlar** va **madaniy ma’lumotlarni** boshqa madaniyat egasiga tushunarli shaklda etkazish — bu tarjimonning madaniy kompetensiyasi va pragmatik sezgirligiga bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, **so‘zma-so‘z tarjima** usuli ko‘plab holatlarda muallif maqsadidan uzoqlashadi va asarning badiiy ta’sir kuchini pasaytiradi. Shu bois, badiiy tarjimada **semantik to‘g‘rilik bilan bir qatorda, pragmatik moslik va kontekstual moslashuv** ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat tarjima nazariyasida **ekvivalentlikning kommunikativ darajasi** sifatida tushuniladi.

Shuningdek, tarjima jarayonida **madaniy tafovutlarni yengib o‘tish, o‘quvchi uchun mos interpretatsiyani tanlash, lingvistik va uslubiy moslashuvni amalga oshirish** kabi vazifalar ham tarjimon zimmasidagi mas’uliyatli vazifalardandir. Ayniqsa, badiiy asarlarning tarjimasida bu jihatlar yanada muhimroq bo‘lib, o‘quvchi o‘zga til va madaniyat vakilining adabiyotini to‘laqonli idrok etishi uchun imkoniyat yaratadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, **pragmatik yondashuv** — badiiy tarjima sifati va samaradorligini oshiruvchi asosiy metodologik yo‘nalish bo‘lib, u tarjimonlarni **lingvistik ustunlikdan madaniy va psixologik tafakkurga** o‘tishga undaydi. Kelajakda bu yo‘nalishdagi izlanishlar badiiy tarjimalarning sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: E. J. Brill.
2. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. New York: Prentice Hall.
3. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. 2nd ed. London: Routledge.
4. Nord, C. (2005). *Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis*. Amsterdam: Rodopi.
5. House, J. (2015). *Translation Quality Assessment: Past and Present*. New York: Routledge.
6. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The Translator as Communicator*. London: Routledge.

O'ZBEK TILIDAGI "AXLOQ" KONSEPTOSFERASINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI AHAMIYATI

Sh.Bobojonova, PhD, dotsent

Mamlakatimizda bunyod etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyat qurilishini jadallashtirishning eng muhim sharti, uning ma'naviy-axloqiy zaminlarini mustahkamlashdir. Bu borada tinimsiz izlanish olib borib, yangi jamiyatning ma'naviy-axloqiy zaminlarini mustahkamlash, uning ma'naviy-axloqiy taraqqiyotini so'ndirmaslik eng birinchi shartlardan biri.

Milliy mustaqillik shaxsning ma'naviy kuch-qudrati hamda jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan ulkan ijodiy salohiyatiga suyanadi. Uni mustahkamlashda shaxsning axloqi, vijdonliligi, mas'uliyati, mehnatsevarligi, halolligi, jamiyat va o'z manfaatlarini uyg'unlashtirishi, vatanparvarligi, xullas, jami axloqiy fazilatlari muhim subyektiv omil hisoblanadi. Ayniqsa, tilshunoslik sohasida ona tilimizni asrash, boyitish, axborot-kommunikatsiya sohalarida qo'llanish doirasini kengaytirish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda keng miqyosdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borilayotganligi, bu sohaga daxldor ko'plab ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar chop etilayotganligi e'tiborli. Ammo hali shaxs ma'naviyatini ifodalovchi til ifodalarining tizimli tadqiq etilmaganligi, boshqa tillar bilan qiyoslash asosida ularning lisoniy qiymati ochilmaganligi va yosh avlod ongida milliy ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan ta'lim yo'nalish va sohalarida tayaniladigan tegishli lingvistik bazaning shakllantirilmaganligi hamda kerakli tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi "ma'naviyat" kategoriyasiga e'tibor yuqori ekanligini ko'rsatadi. Yoshlar uchun o'zbek tiliga oid axloq konseptosferasining ma'naviy mohiyatini oydinlashtirish va konseptuallashtirish, ma'naviyatga oid tushunchalarni o'zga tillardagi muqobillarini aniqlash, tarjimalar sifati va adekvatligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar, ilmiy-adabiy manbalar nashr etish yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishda nechog'lik dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Yuksak salohiyatli, ma'naviy yetuk va madaniyatni e'zozlaydigan yoshlarni tarbiyalash orqali farovon kelajakni barpo etish mumkin. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi".

Yoshlarga ilm-ma'rifatni, ma'naviyatni, odob-axloqni mukammal o'rgatish lozim. Yoshlarda ma'naviy immunitet, ma'naviy salohiyat, ma'naviy tarbiyani takomillashtirishda "ma'naviyat" kategoriyasiga mansub *axloq* konseptining o'z o'рни mavjud bo'lib, uni quyidagi shaklda ko'rish mumkin:

Axloq	
Tarbiya	Odob

Bugungi yangilanish, rivojlanish va taraqqiyot jarayonida ma'naviyat va axloq tushunchalarining o'z o'рни bor. Yangi O'zbekiston o'zining buyuk kelajagini bilimli, dono, salohiyatli, mehnatsevar, yuksak ma'naviyatli, jismonan sog'lom avlodlar timsolida ko'radi. Bunday talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisini tarbiyalash davlatimizning ustuvor vazifalaridan sanaladi. Buning uchun esa yoshlarni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqni, ma'naviyat tushunchalarini yanada aniq, izchil tanishtirishni yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi. Yangicha yondashuvlardan biri – zamonaviy komil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan, axloqiy fazilatlarni o'z ruhiy olamiga singdirgan yetuk shaxs bo'lmog'i lozim. Qalbi axloqiylikni o'zida uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalarga aylanmog'i kerak. Ma'rifat, ma'naviyat yo'qolgan yerda muqaddas qadriyatlarga, insoniylikka putur yetadi. Oqibatda esa jamiyat tanazzulga uchraydi. Shu sababli, doimiy ravishda insonlarga, ayniqsa, yoshlarga axloqni keng va atroflicha tushuntirish zarur.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarning tafakkurini o'stirish, ma'rifatini shakllantirish, nutq

boyligini oshirish, ma'naviyatli muloqot madaniyatini egallashlari uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunda esa yoshlarning bog'cha yoshidan boshlab axloqiy fazilatlarni o'rgatib borish va odob-axloq, ma'naviyat kategoriyalarini tushuntirish lozim bo'ladi. Sababi yoshlarning o'zbek nutqidagi sharqona odob-axloq me'yorlari, ma'naviyat tushunchalari, madaniyat ko'rinishlari kabi yuksak ma'naviyatga undovchi xususiyatlarni ifodalovchi so'zlarni bilishi, chinakam ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyatli avlod bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning ma'naviyati, nutqi odob-axloqqa oid maqollar, hikmatli so'zlar, she'rlar bilan boyitilganligi dunyoqarashining kengayishida vosita bo'ladi. Dunyoqarashi keng, mustaqil fikriga ega, ilm-ma'rifati yuqori bo'lgan yoshlar jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi va doimiy ravishda izlanishda bo'ladi, yangilikka intiladi.

Intellectual avlodni shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni juda yuqori. Ta'lim jarayonida yoshlar o'zaro aloqa va munosabatlarga kirishishni o'rganadi. Ota-onadan tashqari tarbiyani boshqalardan, ya'ni malakali ustozlardan ola boshlaydi. Tabiiyki, yoshlarga odob-axloq, axloqiy fazilatlar, urf-odatlar, qadriyatlar haqida ma'lumotlar berib, ularni atroflicha tushuntirish maqsadga muvofiq.

Yoshlarga ota-onani hurmat qilish, aka-opalarni qadrlash, yaqinlarga mehr berish, kitobga muhabbat qo'yishlarida axloqiy fazilatlarning o'rni beqiyos. Yoshlar tasavvuriga komillik, sodiqlik, vatanparvarlik, mehribonlik, mehnatsevarlik kabi yuzlab ezgu xususiyatlarni yetkazib berish, bugunning dolzarb vazifasi.

Yoshlarda axloq konseptosferasini shakllantirishda konseptual lug'atlarning alohida o'rni bor. Bunda axloqiy fazilatlar, ma'naviyat aks etgan lug'atlarni o'qib o'rganish orqali yoshlarning tasavvuri, ma'naviyati yuqori bo'ladi. Birinchi navbatda, lug'at orqali yoshlar o'zbek xalqiga xos milliy mentalitetni o'zida shakllantiradi. Qolaversa, bugungi kunda dolzarb bo'lgan turli xil yot g'oyalarga qarshi kurashishda yoshlarning ma'rifatini, ma'naviyatini yuksaltirishda lug'at yordam beradi. Chinakam fidoyi, vatanparvar, ilm-ma'rifati yuqori, dunyo bilan bo'ylasha oladigan kadrlarni tayyorlashda o'z o'rniga ega bo'la oladi.

Yosh avlodga ijodiy fikrlashni o'rgatish hozirgi davr o'quv jarayonining eng samarali usuligina bo'lib qolmay, jamiyatning kelajagi bo'lmish yosh avlod oldida masalalarni muammoli tarzda qo'ya bilish va uning erkin yechimini topish qobiliyatiga ega bo'lgan mustaqil barkamol avlodni shakllantirishning yo'lidir. Bunda esa axloq, ilm-ma'rifat, axloqiy fazilatlarning o'rni doimo sezilib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. T.: O'zbekiston, 2001.
2. Mengliyev B.R. Til yaxlit sistema sifatida. Toshkent.: Nihol, 2009.
3. Rustamov A. So'z xususida so'z. T.: Yosh gvardiya, 1987.
4. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot modeli. Monografiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
5. Bobojonova Sh. Komillik sari ilk qadam. Rangli-bezakli qo'llanma. – Qarshi: Nasaf, 2019.

ERTAK JANRI TARAQQIYOTI VA YOZMA ADABIYOTDA ERTAK JANRI

Z.N. Eliboyeva, SamDChTI tayanch doktoranti

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, “ertak” so‘zining paydo bo‘lishi XVII asrga tegishli, rus tilidagi “skazka” so‘zi “kazat” fe‘lidan olingan va ro‘yxat, aniq tavsif, ta’rif kabi ma’nolarni anglatgan. Bunga misol tariqasida o‘sha paytga tegishli bo‘lgan “Revizskaya skazka”, ya’ni ro‘yxatga olish hujjatini keltirish mumkin. Faqat XVII–XIX asrlarga kelib bu so‘z o‘zining zamonaviy, “ertak” ma’nosida ishlatila boshlangan¹⁰. Yevropa xalqlari esa folklor ertaklarini ifodalash uchun maxsus atamadan foydalanmaganlar, bu maqsadni amalga oshirish uchun ular turli xil so‘zlarga murojaat etganlar. Ushbu tushunchani anglatadigan maxsus so‘zlarni yaratgan faqat ikkita yevropa tili mavjud bo‘lib, bular – rus va nemis tillaridir. Lotin tilida “ertak” tushunchasi “fabula” (fabula) so‘zi orqali beriladi. Ammo bu so‘z nafaqat ertakni bildirib qolmay, balki, suhbat, g‘iybat, oldi-qochdi mavzular va h.k., shuningdek ertakni ham o‘z ichiga olgan hikoyani anglatadi. “Ertak” ma’nosida u nemis tilidagi Fabel (Fabel) so‘ziga o‘tgan. Nemis tilida ertak Märchen (Merxen) so‘zi bilan belgilanadi. So‘zning o‘zagi bo‘lmish “Mar-“ yangilik, xabar degan ma’nolarni anglatadi, -chen esa kichraytiruvchi qo‘shimchadir. Shunday qilib, Märchen “kichik, qiziqarli hikoya” dir. Bu so‘z XIII asrdan beri iste’molda bo‘lib, asta-sekin “ertak” ma’nosida ildiz otgan¹¹.

Ingliz tilida ertakni ifodalash uchun “hikoya, umuman har qanday voqea” degan ma’noni anglatuvchi “tale” so‘zi ishlatiladi, u qadimgi ingliz tilidagi “talun” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, – series, calculation, shuningdek, – story, tale, statement, deposition, narrative, fable, accusation, action of telling ma’nolarini beradi. Longman nashriyoti lug‘atida tale so‘ziga “kimningdir boshidan kechirgan hayajonli voqealar haqida hikoya” sifatida ta’rif beriladi.

Ertak atamasi M.Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida “etuk” tarzida qo‘llanilgan¹². Xalqimiz orasida hozirgi paytda xam cho‘pchak, utuk, matal, varsaqa kabi so‘zlar ertak manosi anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ertak so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

1. “Xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan, sehrli–sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar; cho‘pchak. Ertak aytmoq. Bir ariqda sut, ikkinchi ariqda sharbat – ertaklarda bo‘ladi! S. Anorboev, Oqsoy. Ilmiy fantastik asarlar bilan adabiy ertaklar o‘zaro yaqin aloqadadir. “Fan va turmush”.

2. Hikoya, qissa, voqea. Unsin hamma voqeani – akasi bilan Gulnorning sevgi ertagini kampiridan to‘la eshitdi. Oybek. Yolg‘iz Tiktepa qishlog‘idagina emas, tevarak qishloqlarda ham mulla Obidning ertagi, ekindagi muvaffaqiyati og‘izdan og‘izga yurib ketdi. A.Qodiriy, Obid ketmon¹³.

Ertak – og‘zaki xalq ijodi san’atining eng qadimgi janri, folklorning klassik namunasidir, va u hech qachon bolalar uchun maxsus yaratilmagan. Folklor ertaklari ibtidoiy jamiyat totemik afsonalaridan kelib chiqadi (Shimoliy Osiyo, Amerika, Afrika, Avstraliya va Okeaniya ibtidoiy xalqlari bunga misol bo‘la oladi). Masalan, mashhur ingliz xalq ertagi “Jek va loviya poyasi”ning o‘xshash syujetlarini ko‘plab hind-yevropa tillarida, shu jumladan kamida 5000 yil ilgari mavjud bo‘lgan tillarda ham (devdan xazinani o‘g‘irlab olib qo‘yishga o‘xshash syujetli ertaklar guruhi) uchratish mumkin. “Sohibjamol va maxluq” ertagi esa qariyb 4000 yildan ilgariroq paydo bo‘lgan. Qahramon yovuz ruhlar bilan shartnoma tuzish orqali ulkan kuchlarni qo‘lga kiritishi haqidagi “Temirchi va iblis” xalq ertagi kamida 6000 yillik tarixga ega¹⁴.

O‘zbek xalq ertaklari B.Karimov, F.Abdullaev, M.Afzalov, K.Imomov, X.Egamov, kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan, ular Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o‘g‘li, Husanboy Rasul o‘g‘li, Nurali Nurmat o‘g‘li kabi o‘nlab ertakchilardan yozib olganlar, tahlil qilganlar. Xalq ertaklarining eng keng tarqalgan tasnifi quyidagicha: 1) Hayvonlar haqidagi ertaklar; 2) Sehrli ertaklar; 3) Hayotiy-maishiy ertaklar.

¹⁰ Кравцов Н.И., Лазутин С. Г. Русское устное народное творчество. – Москва, 1977. – С. 103.

¹¹ Пропп В. Я. Исторические корни волшебной сказки. – Ленинград, 1946. – С. 8.

¹² 68 Қошғарий Махмуд. Девону луғотит турк, биринчи том. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. – С. 98.

¹³ ЎТИЛ. 5 Жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси ДИН, 2006. – Б. 51.

¹⁴ Jalolova F. “O‘gay ona” konseptining lingvomadaniy talqini (ingliz va o‘zbek xalq ertaklari misolida). Filol.f.fal.dok.diss. – T. 2023. – B.35.

XX asr yangi o'zbek adabiyotining chinakam xalqchilligi va yuksak badiiyati uchun kurashgan, uning mustahkam poydevorini qurishda jonbozlik ko'rsatgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, H.H.Niyoziy xalq og'zaki ijodi materiallarini qayta ishlashda ibrat bo'larli o'ziga xos maktab yaratishdi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Sulton Jo'ra singari o'zbek yozuvchilari bu maktab an'alarini o'ziga xos yo'lda izchil rivojlantirdilar. Hozirgi adabiy jarayonda ijod qilayotgan yozuvchi va shoirlarimiz ham ba an'analarni davom ettirishmoqda. So'z san'ati bilan xalq og'zaki ijodining o'zaro ta'siri va munosabati xususida borganda, san'atkorning folklor asarlariga ko'r-ko'rona ergashmasligi, ularga taqlid qilmay, o'z ijodiy niyati, uslubi, qarashi jihatidan yondashishi ko'zda tutiladi.¹⁵ Bevosita folklor syujetlari asosida yaratilgan adabiy ertaklar (ertak-dostonlar, ertak she'rlar) va xalq ijodi poetikasiga suyanib yaratilgan folklor motividagi asarlar haqida fikr bildirilsa, yuqorida ta'kidlangan asarlarda, xalq ijodidagi o'zaro yaqin va ohangdosh bo'lgan syujetlarning tahliliga alohida o'rin beriladi. Agar Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonida, asosan, "Malikai Husnobod" ertagi syujetiga asoslangan va boshqa yaqin xalqlarning shu motivdagi ertaklariga suyanib bo'lsa, "Semurg'" ertak-dostonida shoir konkret bir xalqning ertagini asos qilib olmaydi, balki unda aql bovar qilmaydigan qahramonliklar haqida hikoya qiluvchi "Kenja botir" ertagi, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytaruvchi Semurg' haqidagi Sharq xalqlari ertaklari va boshqa folklor asarlari, chunonchi, "Zevaxon" dostonining syujet yo'nalishidan foydalanadi.

Shoirlar ertak-dostonlarni yaratishda xalq ertaklari mazmunini she'riy yo'l bilan qayta hikoya qilish yo'lidangina borganlari yo'q. Ular o'z ertaklaridagi badiiyatni yuksaltirishda, fikrlarini dalillashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan eng zarur voqea va syujetlarni, tasvirlash usullarini saralab oldi va ulardan mohirlik bilan foydalandi. Ular folklor asarlaridagi eng ko'p tasvir usullarining yozuvchi badiiy fantaziyasini boyitishi mumkinligini o'z ijodlari misolida yaqqol ko'rsatishdi. Shuni ham ta'kidlash zarurki, har bir yozuvchining folklordan oziqlanish prinsipi turlicha va o'ziga xosdir. Hamid Olimjon adabiy ertak (ertak-doston) larida folklor asarlarining shakli, obrazlari, mubolag'ani tasvirlash usullari, obrazlar talqinini saqlashga moyillik seziladi.

Folklor motivlari asosida, uning ta'sirida yaratilgan epik asarlar orasida ertak dostonlar keng o'rin egallaydi. Agar Zafar Diyor boshqird xalq ertaklari syujeti asosida "Burgut" she'r-ertagini yaratgan bo'lsa, o'zining tarbiyaviy mavzudagi bir ertak-dostonini "Yangi ertak" deb ataydi. Bularda shoir voqeani hikoya qilish, fikrni ifodalashda xalq ertaklari shakli va tasvir usulini qo'llaydi. Bu o'rinda tojik xalq ertagi asosidagi "Zangori gilam", "Qaldirg'och", "Jannat" nomli yangi ertaklarni (shoirning o'zi alohida ta'kidlaganidek, bular chindan ham Yangi mazmundagi ertaklardir) yaratgan Sulton Jo'raning izlanishlari ham xarakterlidir. Bularda shoir ertaklardagi tasvir uslubi va poetik vositalardan unumli foydalanadi.

Xullas, xalq og'zaki ijodining asosini tashkil qiluvchi ertaklar, ma'lum ma'noda yozma adabiyotdagi ertaklar uchun asos bo'lib xizmat qilganki, yozma adabiyotdagi ertaklarning syujeti va kompozitsiyasi tahlili bunga misol bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Amanov U.S., Hoshimova Sh.I. O'zbek adabiyotida folklor va yozma adabiyot munosabatlar ertaklarning paydo bo'lishi. Journal of new century innovations. Volume-23, Issue-3, February 2023. <http://www.newjournal.org/>. 137-143-b.
2. Jalolova F. "O'gay ona" konseptining lingvomadaniy talqini (ingliz va o'zbek xalq ertaklari misolida). Filol.f.fal.dok.diss. – T. 2023. – B. 147.
3. Кравцов Н.И., Лазутин С. Г. Русское устное народное творчество. – Москва, 1977. – С. 103.
4. Пропп В. Я. Исторические корни волшебной сказки. – Ленинград, 1946. – С. 8.
5. Қошғарий Махмуд. Девону луғотит турк, биринчи том. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. – С. 98.
6. ЎТИЛ. 5 Жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси ДИН, 2006. – Б. 51.

¹⁵ Amanov U.S., Hoshimova Sh.I. O'zbek adabiyotida folklor va yozma adabiyot munosabatlar ertaklarning paydo bo'lishi. Journal of new century innovations. Volume-23_Issue-3_February_2023. <http://www.newjournal.org/>. 137-143-b.

ЛИНГВОПОЭТИКА: ЯЗЫК КАК ИСКУССТВО ВЫРАЖЕНИЯ ПРАГМОСЕМАНТИКИ

**А.К. Эшкобилов, PhD, доцент СамГИИЯ
Ж. Каршиева, магистрантка СамГИИЯ**

Лингвопоэтика представляет собой взгляд автора на вещи с другой стороны на мир, при помощи нее мы наблюдаем у читателя интерес и эмоции по отношению к произведениям творцов. Нисколько не умаляя значения других аспектов языка, можно сказать, что сила художественного воздействия заключается, прежде всего, в словах. Попадая в художественный контекст, слово оказывается обращенным не только к реальной действительности, но и к творчески созданному в художественном произведении особому миру. Будучи обусловлено художественным заданием писателя, слово обогащается эстетическими приращениями смысла, начинает жить по законам сложного эстетического целого. Оно предстает во всем богатстве нюансов и красок, становится орудием образного мышления. При восприятии слова в художественном тексте необходимо помнить, что оно одновременно функционирует по крайней мере на трех разных уровнях: семантическом, метасемантическом и лингвопоэтическом и, соответственно, может становиться объектом трех видов анализа. Первые два уровня относятся к области лингвистилистики и предполагают разграничение собственно смыслового содержания, семантики слова и накладывающихся на нее экспрессивно-эмоционально-оценочных оттенков, или коннотаций. Третий уровень восприятия имеет дело с более тонкими и сложными эстетическими особенностями слова, непосредственно связанными с идейно-художественным содержанием произведения.

Лингвистилистический анализ универсален, в том смысле, что он применим к любому произведению речи, независимо от функционального стиля.

Целью лингвопоэтики является исследование поэтического (художественного) языка: как словесная форма становится выразителем смыслов, чувств и эстетических категорий.

Основные задачи:

- выявление особенностей авторского стиля;
- описание художественных образов и их языковых воплощений;
- анализ структуры текста как целого;
- выявление взаимодействия лексических, синтаксических, фонетических средств в создании поэтической формы.

Языковые средства художественного текста

Художественный текст отличается особой выразительностью и многозначностью.

Лингвопоэтика исследует такие средства, как:

- Метафоры, эпитеты, сравнения — приёмы, формирующие образы;

Метафора-употребление слова в переносном значении на основе сходства в каком-либо отношении двух предметов и явлений, скрытое сравнение (без слов:словно,как будто) Сравнение-сопоставление двух предметов, присоединяемое союзами как, будто, словно и тд.;помогает ярче, глубже раскрыть предмет.Эпитет в поэтике: определение, прибавляемое к названию предмета для большей изобразительности.

- Повтор, анафора, инверсия — создают ритм и выразительность;

Инверсия — нарушение порядка слов, принятого в разговорной речи. Анафора — единоначалие, повторение схожих звуков в начале поэтической строки или предложения

- Звуковая организация — аллитерация, ассонанс, рифма, которые влияют на восприятие текста;

- Синтаксис — короткие фразы могут передавать напряжение, длинные — плавность и раздумья.

Лингвопоэтический анализ: пример

Рассмотрим строки Анны Ахматовой:

«Сжала руки под тёмной вуалью...

— Отчего ты сегодня бледна?»

Здесь всего два предложения, но уже можно увидеть:

- диалогическую форму, создающую драматизм;
- визуальный образ — “тёмная вуаль” как знак скорби;
- психологическую напряжённость, переданную через синтаксис и лексику.

Лингвопоэтика позволяет не только “прочитать”, но глубже понять такие тексты, почувствовать их настроение и внутреннюю прагмосемантическую логику.

ЛИТЕРАТУРА

1. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. — М.: МАКС Пресс, 2005. — Вып. 29. — 160 с. ISBN 5-317-01330-5
2. Г.О.Винокур (1896-1947) . Филологические исследования : Лингвистика и поэтика.
3. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. — М.: Просвещение, 1972.
4. Виноградов В.В. Стилъ. Стилистика. Культура речи. — М.: Высшая школа, 1999.
5. Гаспаров М.Л. Современный русский стих: Метрика и ритмика. — М.: Наука, 1989.
6. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. — Л.: Наука, 1977.
7. Бахтин М.М. Слово в романе // Вопросы литературы и эстетики. — М.: Худож. лит., 1975.
8. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Сов. энциклопедия, 1966.

РЕЛЕВАНТНОСТЬ ПЕРЕВОДОВ РУССКИХ ФРАЗЕСОЧЕТАНИЙ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

А.С. Мусаев, доцент ДжГПУ

В течение последнего столетия узбекский язык находился и продолжает находиться под сильным влиянием русского языка в силу разных политических, экономических и других причин. Эта ситуация имеет как положительные, так и отрицательные последствия, и об этом можно долго рассуждать. Иногда этот факт приводит к печальным ситуациям, когда состояние и развитие узбекского литературного языка подвергается негативному влиянию из-за некорректности перевода русских фразесочетаний и даже слов, что не может не вызывать раздражительность и озабоченность большей части нашего общества.

Мы не будем углубляться в способы перевода, которыми обычно пользуются переводчики. В статье речь пойдет о «переведенных», возможно, некорректно на узбекский язык фразесочетаниях и которые, можно утверждать, вошли или находятся в стадии вхождения в лексику современного узбекского языка и которыми активно пользуются журналисты в средствах массовой информации. То есть такие обороты, которые у всех на слуху.

При этом необходимо помнить о том, что «при переводе фразесочетаний задача переводчика заключается не только в том, чтобы верно передать её смысл, но и отразить эмоционально-экспрессивные характеристики, оценочную коннотацию, функционально-стилистические особенности. Также причиной возникновения трудностей при переводе фразеологизма может стать высокая степень его национальной специфичности. В таких случаях задачей переводчика будет его адаптация к культуре и языку целевой аудитории. Ещё одной трудностью является внешнее сходство фразеологических единиц в исходном и переводящем языках, имеющих разную семантику, что может привести к ложным ассоциациям и неправильному переводу»[1, с-2].

Как известно, фразеологизмы обладают оценочной функцией, придают речи живость и выразительность и являются мощным инструментом воздействия на аудиторию. Также известно, что паремии, в частности фразесочетания в нашем случае, считаются труднопереводимыми в силу различных этнокультурных особенностей с русского языка на узбекский в данном случае. Однако приводимые ниже примеры не представляют собой трудности для корректного перевода, тут скорее некомпетентность переводившего.

Приведем примеры: Вот такое объявление: *«филология факультетида <...> халқаро илмий-назарий анжуман ташиқил этилади. Анжуман 2022 <...> университети **фаоллар залида ўтказилади**», в переводе «На филологическом факультете будет организована международная научно-теоретическая конференция <...>. Конференция 2022 года пройдет в **Зале актива** <...> Университета». Словосочетание «Фаоллар зали» является переводом русского фразесочетания «Актальный зал» и обратным переводом с узбекского будет «Зал актива». 4-е значение слова Акт, которое в настоящее время в русском языке не употребляется [1, с-2], (Студенческое собрание. 4. Торжественное открытое собрание (в учебных заведениях; дореволюц. и загр.). По окончании экзаменов происходил годичный гимназический акт. Короленко.) Думается, фразесочетание «Актальный зал» необходимо перевести на узбекский как «Мажлислар\Тадбирлар зали», поскольку этот зал предназначен не только для активных студентов или учащихся, а для проведения разных мероприятий.*

Другим примером является употребление в журналистских репортажах фразесочетаний «Тезкор ходим, тезкор тадбир, ёки тезкор тасвир». Обратный перевод даёт следующие несуразицы: *Скоростной сотрудник, скоростное мероприятие или же скоростная съёмка*, - забавная ситуация для этих понятий. Тут имеется ввиду специальные операции, проводимые органами правопорядка. В русском языке слово «оперативный» имеет 4 значения, а в данном случае узбекскому варианту соответствует только третье значение (3. *только полн. формы, перен. Прил., по знач. связанное с непосредственным исполнением, практическим*

осуществлением тех или иных задач, планов, начинаний (нов.). Органы регулирующие и оперативные. Оперативная работа. [1, с-2]), и это фразесочетание необходимо переводить как «Махсус ходим, махсус тасвир» и тп..

Еще одно журналистское клише - использование фразы «Атрофлича мухокама» вместо «Батафсил мухокама», что является результатом нерелевантного поверхностного перевода или калькирования фразесочетания «Всестороннее обсуждение». Тут вроде все правильно, сочетание «все стороны – всестороннее» так и должно переводиться. Но обратный перевод «Атрофлича мухокама» даёт «Поверхностное обсуждение», что не может считаться корректным. Первый компонент фразесочетания «Всестороннее обсуждение» соответствует слову *вокруг* или *сторона*, но при употреблении со словом *обсуждение* в узбекском варианте подходит сочетание со словом *батафсил*. Таким образом, в данном случае релевантным следует считать употребление фразесочетания «Батафсил мухакама».

Xulosa. Bugungi globallashtirilgan dunyoda ingliz tilini o'rganish shunchaki bir ko'nikma emas, balki har tomonlama taraqqiyotga yetaklovchi muhim vositadir. Maqolada ko'rib chiqilganidek, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalarning uyg'unligi til o'rganish jarayonini samarali va foydali qiladi. Har bir metodning o'ziga xos afzalliklari mavjud bo'lib, ular o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi, muloqotga tayyorlaydi va ishonchni oshiradi. CLIL kabi integratsiyalashgan yondashuvlar esa til va mazmunni birgalikda o'zlashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirish orqali o'quvchilar nafaqat tilni, balki dunyoqarashni ham boyitadi. Onlayn ta'lim vositalari va sun'iy intellektga asoslangan ilovalar orqali mustaqil o'rganish imkoniyatlari kengayib, ta'limga moslashuvchanlik olib kirilmoqda. Ushbu barcha omillar til o'rganish jarayonida motivatsiyani mustahkamlab, o'quvchini global fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ingliz tilini o'rganish nafaqat bilim olish, balki jahon bilan tengma-teng muloqot qilish, o'z fikrini erkin ifodalash va o'z o'rnini topish uchun kuchli poydevor hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ellis, R. (2003). Task-based Language Learning and Teaching. Oxford University Press.
2. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Longman.
3. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2006). How Languages are Learned. Oxford University Press.
4. Nunan, D. (2003). Practical English Language Teaching. McGraw-Hill.

5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
6. Swain, M. (2000). The Output Hypothesis and Beyond: Mediating Acquisition through Collaborative Dialogue. In *Sociocultural Theory and Second Language Learning*. Oxford University Press.
7. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
8. Ur, P. (2012). *A Course in Language Teaching: Practice and Theory*. Cambridge University Press.
9. Hinkel, E. (2005). *Handbook of Research in Second Language Teaching and Learning*. Lawrence Erlbaum Associates.
10. Krashen, S. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press.
11. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.
12. Reinders, H. (2012). *Digital Games in Language Learning and Teaching*. Palgrave Macmillan.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ЯВЛЯЮЩИЕСЯ НЕОТЪЕМЛЕМОЙ ЧАСТЬЮ ЯЗЫКОВОЙ ЭВОЛЮЦИИ

И.У. Мамасолиев, доцент СамГУ имени Ш.Рашидова
М.М. Рузибоев, СамГУ имени Ш.Рашидова

Сложные взаимодействия между языками и культурами в процессе семантических заимствований которые являются неотъемлемой частью языковой эволюции, отражают адаптационные способности языков по мере того, как они включают в свои семантические поля чужеродные элементы. Эти адаптации часто сохраняют основные значения, ассимилируя их в новых культурных и языковых контекстах. Русский и узбекский языки демонстрируют это явление через богатый гобелен заимствованных лексем, которые после интеграции претерпевают процесс семантического сдвига, адаптируясь к требованиям новой языковой среды.

Например, в русском языке заимствование *"менеджер"* (manager) из английского языка сохраняет свою основную коннотацию, связанную с управлением бизнесом, но при этом расширяет сферу действия, выходя за рамки традиционного делового контекста, иллюстрируя, как заимствованные термины могут расширять сферу действия при ассимиляции. Аналогичным образом, *"брокер"* (broker), еще одно заимствование из английского языка, обозначает не только агентов фондового рынка, но и посредников в различных коммерческих секторах, демонстрируя семантическое расширение, отражающее интеграцию термина в более широкие сферы российской экономической жизни.

Напротив, узбекский язык демонстрирует свою адаптивную стратегию с помощью таких терминов, как *"банк"* (bank), заимствованных из английского и русского языков, которые не только обозначают финансовое учреждение, но и имеют расширенные метафорические значения, связанные с резервуарами любых ресурсов, - адаптация, отражающая расширительное значение термина в различных дискурсах. Другой яркий пример - *"маркетинг"* (маркетинг), который, сохраняя свое первоначальное значение, ориентированное на бизнес, был адаптирован для обозначения любой стратегической деятельности по продвижению в различных областях, что означает расширение его первоначального коммерческого контекста до более обобщенных стратегических рамок.

Эти примеры подчеркивают сложное взаимодействие между языками и культурами в процессе семантических заимствований и адаптации. Эта динамика позволяет таким языкам, как русский и узбекский, обогащать свои лексиконы, сохраняя при этом языковую целостность и преемственность. Благодаря такой адаптации языки впитывают не только новые слова, но и новые способы мышления и выражения реальности, что подчеркивает глубокое влияние семантических заимствований на языковую эволюцию. Исследование этих процессов с помощью детального и научно структурированного анализа позволяет выявить сложные механизмы того, как языки динамично адаптируют иностранные элементы, чтобы соответствовать своему семантическому и культурному ландшафту.

Семантические кальки - прямые переводы фраз и понятий с одного языка на другой - оказывают глубокое влияние на языковое сознание, тонко перестраивая восприятие и формулирование идей носителями языка в своей культурной среде. Русский и узбекский языки, являющиеся реципиентами многочисленных кальк, прежде всего с английского и других влиятельных языков, наглядно демонстрируют это явление, перенимая и адаптируя иностранные выражения, которые впоследствии проникают в повседневное общение.

Например, русская фраза *"стеклянный потолок"* (glass ceiling), заимствованная из английского языка, не только вводит новую лексическую единицу, но и импортирует социально-политический концепт, обогащая дискурс о гендерном равенстве в профессиональном контексте; этот термин включает сложную социальную динамику в краткую и мощную метафору, тем самым влияя на общественные и частные дискуссии о гендерных ролях. Аналогичным образом, узбекская адаптация *"рақамли имзо"* (цифровая

подпись), заимствованная из английского *"digital signature"*, выходит за рамки своего технологического происхождения и становится символом безопасной и аутентичной электронной коммуникации в цифровую эпоху, отражая более широкие сдвиги в сторону модернизации и цифровой интеграции в узбекском обществе.

Эти кальки, несмотря на свою лингвистическую простоту, несут в себе глубокие культурные и концептуальные смыслы, способствуя внедрению в лексикон новых идей и технологий. По мере усвоения этих заимствованных понятий они формируют языковое сознание принявших их сообществ, часто меняя восприятие и обсуждение описываемых ими тем. Такие сдвиги не только демонстрируют языковую гибкость и адаптационные возможности русского и узбекского языков, но и подчеркивают роль языка как динамичного посредника в культурном и технологическом обмене.

Анализируя такие семантические кальки, можно наблюдать, какое преобразующее воздействие они оказывают на лингвистический ландшафт, тонко определяя способы, с помощью которых сообщества договариваются об изменениях в социальной, технологической и экономической среде. Эта динамика подчеркивает глубокую взаимосвязь языка, мышления и культурной эволюции, показывая, как языковые процессы отражают и способствуют более широким сдвигам в обществе.

Культурные факторы оказывают глубокое влияние на эволюцию языковых значений, как это видно на примере русской и узбекской лексики. Эти сдвиги часто отражают значительные социокультурные трансформации. Например, русское слово *"дружба"* (дружба) в современных контекстах расширило свое значение, включив в себя не только личные отношения, но и международные союзы и связи в социальных сетях, символизируя более широкие представления о социальном взаимодействии в цифровую эпоху.

Аналогичным образом, в узбекском языке термин *"маҳалла"* (махалля), традиционно обозначающий район или общину, стал воплощением уникальной модели самоуправления и социальной организации, отражающей его ключевую роль в узбекской культуре и структуре общества. Этот термин включает в себя нечто большее, чем просто географическое местоположение, олицетворяя коллективную идентичность, взаимопомощь и культурную преемственность - аспекты, критически важные для понимания социальной структуры Узбекистана.

Под влиянием глобальных диалогов об управлении и демократии понятие *"открытость"* в русском языке превратилось из общей черты личности в более тонкий термин, который теперь также относится к прозрачности правительственной деятельности и доступности информации в общественных местах. Это семантическое расширение соответствует сдвигам в сторону более открытой государственной политики и ожиданиям общества в отношении прозрачности государственных дел.

В узбекском языке слово *"инновация"* (innovation), заимствованная из глобального лексикона, заняла видное место не только в технологиях, но и в культурных разговорах о реформах и модернизации, иллюстрируя, как внешние влияния интегрируются и локализуются, что отражает традиционные ценности, в то же время принимая современность.

Эти примеры иллюстрируют, как культурные сдвиги - будь то технологический прогресс, политические изменения или социальная эволюция - влияют на семантические поля языков, приводя к обогащению словарей, отражающих как глобальное влияние, так и местные реалии. По мере развития культур изменяются и значения слов, адаптируясь к новым контекстам и отражая меняющиеся общественные ценности и технологии, тем самым сплетая сложную сеть лингвистических и культурных взаимозависимостей, которые характеризуют динамичный характер семантического развития.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Евсеева И.В. Комплексные единицы словообразовательной системы // Вестник Кемеровского государственного университета. – 2011. – № 3 (47). – С. 188– 194.

2. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособие. –3 - еизд., испр.и доп.– М.: Флинта: Наука, 2011. – 328с.
3. Земская Е.А. Словообразование как деятельность. — М.: Высшая школа, 1992. – 220 с.
4. Исакова Н.А. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили (“Халқ сўзи” газетаси материаллари асосида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси, Самарканд, 2021 й. 164 б.
5. Нурмонов А., Маҳмудов Н. Ўзбек тили сўз ясалишига бир назар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1987. - №3. – 36-38 б.
6. Раҳимов А. Лексик семантик деривация муаммолари. Т., 2011. – 168 б.
7. Турниёзов Н.К. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. - Самарқанд, 1990.
8. Хасанова Д.О. Заимствованные лексические единицы как база словообразования. Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 3 (7) 2010. – 164-166 с.

ZAMONAVIY FILOLOGIK TAʼLIMNING DOLZARB LINGVISTIK MUAMMOLARI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Sh.F. Muxtorova, SamDCHTI

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish asrida til va uning oʻrganilishi, oʻqitilishi masalalari nafaqat lingvistika, balki taʼlim pedagogikasi, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlararo yoʻnalishlarning eʼtibor markaziga aylanmoqda. Til – inson tafakkuri va ijtimoiy ongining eng muhim ifoda vositasi sifatida oʻzgarib boruvchi, dinamik tizimdir. Shu sabab, zamonaviy filologik taʼlimda tilning oʻzgaruvchan tabiatini toʻgʻri tahlil qilish, dolzarb muammolarni aniqlash va yechim topish masalalari ustuvor ahamiyatga ega.

Bugungi kunda til oʻrganish muammolari faqat grammatikani yodlash bilan emas, balki muloqotga kirisha olish, interaktiv muhitda faol boʻlish, madaniy kontekstni tushunish, kod almashinuvi, tillararo interferensiya kabi murakkab hodisalar bilan bogʻliq. Shuningdek, ona tili va xorijiy tillarni oʻrganish jarayonida raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar til madaniyatiga bevosita taʼsir qilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi – zamonaviy filologik taʼlimdagi dolzarb lingvistik muammolarni aniqlash, ularni nazariy asoslash va amaliy yondashuvlar orqali hal qilish yoʻllarini koʻrsatishdir.

Maqolada quyidagi vazifalar belgilandi:

zamonaviy taʼlim jarayonida yuzaga kelayotgan lingvistik muammolarni tahlil qilish;

ularni nazariy yondashuvlar orqali tushuntirish;

mavjud amaliy tajribalarni koʻrib chiqish va tavsiyalar berish.

Koʻplab oʻquvchilarda grammatik bilim yetarli boʻlsa-da, ularni real hayotda muloqotda qoʻllashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Masalan, CEFR tizimida B1 darajasini egallagan talaba grammatik jihatdan toʻgʻri gap tuza olishi mumkin, lekin notiqlik, madaniyatlararo muloqot, pragmatik kontekstda javob bera olish borasida qiynaladi. Bu muammo taʼlimda faqat test va nazariy bilimga eʼtibor qaratilayotganini koʻrsatadi.

Koʻp tilli muhitda oʻquvchilar koʻpincha bir til grammatikasini boshqasiga koʻchirib yuboradi (interferensiya), yoki bir jumla ichida ikki yoki undan ortiq tilni aralashtirib ishlatadi (kod-almashinuvi). Masalan, “U meni call qildi, keyin message yozdi.” kabi jumlarlar tilshunoslikda "hibrid til" deb ataladi. Bunday aralashmalar oʻquvchilarning rasmiy adabiy til meʼyorlarini buzishiga sabab boʻladi.

Internet, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda qisqartma (brb, lol, asap), emoji, gif va vizual belgilar tilning yozma shaklini sezilarli darajada oʻzgartirib yubordi. Yangi avlod orasida “chatlashuv tili” adabiy yozuv meʼyorlariga nisbatan ustunlik qilmoqda. Bu esa ona tilining oʻquv muassasalaridagi taʼlimda rasmiy, adabiy va normativ shakllarini mustahkamlashda muammolar tugʻdiradi.

Strukturalizm tilni qatʼiy qoidalarga ega boʻlgan tizim deb qaraydi. Bu yondashuvda til bir necha darajalarga (fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis) boʻlinadi. Ammo zamonaviy tilshunoslik poststrukturalistik pozitsiyada turib, tilni doimiy oʻzgaruvchan, kontekstga bogʻliq ijtimoiy hodisa sifatida koʻradi. Masalan, Derrida va Fuko asarlarida tilning deterministik emasligi taʼkidlanadi.

Til faqat aloqa vositasi emas, balki inson tafakkuri, bilish faoliyatining mahsuli sifatida qaraladi. Kognitiv lingvistika asoschilari Langaker, Lakoff va Johnson til orqali insonning qanday fikrlashi, qanday tasniflash tizimiga ega ekani haqida tahlil yuritadilar. Oʻqituvchilar uchun bu yondashuv muhim, chunki til faqat yodlanadigan maʼlumot emas, balki tushunchalar bilan bogʻliq bilimlar tizimi.

Til – ijtimoiy guruhlarining madaniyati, urf-odati va hayot tarzining ifodasidir. Sotsiolingvistika doirasida dialektlar, til registrari, ijtimoiy sinflar tiliga oid farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, gender lingvistika, yoshga oid til farqlari, professional jargonlar ham muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bu yondashuv zamonaviy maktab va universitetlarda dars jarayonini shaxsga yoʻnaltirilgan holda olib borishga imkon yaratadi.

Filologiya va tilshunoslik sohalarida yuz berayotgan global oʻzgarishlar zamonaviy taʼlim tizimida yangi metodologik yondashuvlar talabini qoʻyadi. Xususan, til oʻrganish jarayonida

nafaqat grammatik va leksik qoidalar, balki muloqot, kognitiv va pragmatik qobiliyatlarni ham rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqola ana shu talablar asosida filologik ta'limdagi asosiy lingvistik muammolarni ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Filologik ta'limda lingvistik kompetentsiya faqat til qoidalarini bilish bilan cheklanmaydi. U tilni to'g'ri, maqsadga muvofiq va ijtimoiy sharoitga mos ravishda qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Chomski nazariyasiga ko'ra, til qobiliyati nafaqat grammatik bilim, balki nutqiy ijodiylik, jarayonli tafakkur va ma'nolarni kontseptual modellashirishga bog'liq.

Kognitiv lingvistika tilni inson tafakkurining ifodasi sifatida ko'radi. Shu nuqtai nazardan, filologik ta'limda tilni faqat grammatik tuzilmalarga emas, balki kontsept, freym va mental modellar orqali o'rganish ham muhimdir. Funktsional lingvistika esa til birliklarining funktsiyalarini va ularning nutqiy sharoitdagi rolini o'rganishga qaratilgan. Bu yondashuvlar, xususan, nutqiy kompetentsiya va muloqotdagi dinamik holatlarni o'rganishda samaralidir.

Til faqat axborot berish vositasi emas, balki ijtimoiy va madaniy munosabatlar ifodasidir. Pragmatik lingvistika nutqning kontekstda qanday anglanishini o'rganadi. Filologik ta'limda pragmatik yondashuv vositasida talabalarga nutq maqsadini, implikatura va presuppozitsiyani, ya'ni yondosh ma'nolarni tushunishga o'rgatish muhim hisoblanadi. Bu, ayniqsa, ikkinchi til sifatida til o'rganuvchilar uchun zarur hisoblanadi.

Sifrlashtirilgan lingvistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish imkonini beruvchi korpus lingvistikasi ham filologik ta'limda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korpuslar orqali real nutqiy misollar, tendentsiyalar va til birliklarining foydalanish holatlari tadqiq etiladi. Bu metod talabalarning tahliliy tafakkurini rivojlantirish va tilning zamonaviy qo'llanish xususiyatlarini o'rganishda katta rol o'ynaydi.

Onlayn platformalar, multimedia resurslar, mobil ilovalar va virtual muhitlar filologik ta'limda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu vositalar orqali individual yondashuv, adaptiv o'qitish va faol ishtirok ta'minlanadi. Shu bilan birga, talabalarning lingvistik qobiliyatini interfaol mashqlar, simulyatsiyalar va real muloqot muhiti orqali rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Zamonaviy filologik ta'lim tizimi lingvistika sohasidagi ilmiy yutuqlar, kognitiv yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar bilan bog'liq holda rivojlanmoqda. Tilni faqat grammatik qoidalar orqali emas, balki muloqot, kognitiv model va madaniy kontekstda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta'lim jarayonida lingvistik, pragmatik va madaniy kompetentsiyalarni kompleks shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy filologik ta'lim – bu doimiy yangilanish, izlanish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Чомски Н. Синтактик структуралар. – Тошкент: Фан, 2019.
2. Кубрякова Е. С. Язык и знание. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.
3. Widdowson H. G. Teaching Language as Communication. – Oxford University Press, 1978.
4. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge University Press, 2001.
5. Степанов Ю. С. Константы. Словарь русской культуры.

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA PUNKTUATION BELGILARGA XOS FUNKSIYALAR TARAQQIYOTI

I.B.Nurmurotov,
Turon universiteti Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi
Z.Z. Eshmurodova,
Turon universiteti G'arb tillari kafedrası magistri

Dunyo tilshunosligining bugungi yondashuvlarida nutqiy jarayon va uning sohibi bilan bog'liq vaziyatlarga, kommunikantlarning samarali aloqa o'rnatishida muhim ahamiyat kasb etuvchi noverbal vositalar hamda semiotik tizimlar tadqiqiga e'tibor ortmoqda. Zamonaviy lingvistik paradigmalarga taalluqli ba'zi til birliklarining antropotsentrik yo'nalganligi, xususan, punktemalarga xos funksiyalarni qayta tadqiq qilish punktuatsiya va sintaksis bilan chegaralanmay, balki lingvopoetika, semiotika, korpus lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika, ortologiya, kompyuter lingvistikasi kabi fan tarmoqlari bilan hamkorlikda o'rganishni taqozo etadi.

Tinish belgilarining yuzaga kelishi va me'yorlashuvi dunyo xalqlari yozuv tizimida bir xil shakllangan normativ jarayon emas. An'anaviy punktuatsion tizimining vujudga kelishi Yevropa xalqlari grafikasida XVI asrning 40-50-yillarida qayd etilgan va bunda tinish belgilar yahudiylarning matnlarida foydalanilgan bo'lib, avvalgi va keyingi yozuvlarni ajratib uchun ishlatilgan. Bugungi aksariyat yozuvlarda tinish belgilari soni deyarli bir xil: 10, 11, ayrimlarida, masalan, ingliz yozuvida 12 ta (ingliz tilida apostrof va defis ham tinish belgisi hisoblanadi) bo'lib, punktuatsiya tarixining ilk bosqichi – ajratish davriga oid belgilar kabi shakl jihatidan ham, funksional jihatidan ham umumiylikka ega bo'lgan bir qancha funksional-grammatik xususiyatlarga ega [1, 28].

Tinish belgilaridagi murakkab funksiyalar amaliyot bilan bog'liq holda ijodkorlar tomonidan o'zgarib turgan va bu jarayonlar turlicha individual vazifalarni o'zida aks ettirgan. Xususan, rus tilshunosi O.V.Aleksandrov o'zining "Ekspressiv sintaksis masalalari" asarida ingliz tilida qo'llangan tinish belgilarining asoslarini izohlash va amaliyotda qo'llanilish imkoniyatlarini yoritib bergan G.V.Keri qarashlarini keltirib o'tgan. U inglizcha tinish belgilarining asosiy funksiyalarini shunchaki ta'kidlab o'tish bilan cheklanib qolmaydi, balki tinish belgilarini tanlashda ularning funksiyalaridan uchdan ikki qismigagina amal qilishni taklif qiladi. Qolgan bir qism me'yorlar individual uslub uchun noan'anaviylikka xizmat qilishini ta'kidlab o'tgan [2, 112]. Ko'plab ingliz tilshunoslarining ta'kidlashicha, tinish belgilari fan hisoblanmasdan, balki san'atdir. Demak, tinish belgilaridan foydalanishda ushbu sohadagi umumiy funksiyalar va qoidalar amaliyot jarayoniga unchalik ta'sir qilmaydi. Umuman olganda, ularni ortiqcha grammatikalashtirish yoki tartibga solish maqsadga muvofiq emas [3, 85].

Ingliz tilida tinish belgilariga xos konstruksilarning turli kombinatsiyalari me'yoriy qoidalarda me'yorlashtirilgan bo'lsa-da, o'zbek tiliga xos matnlardagi ushbu murakkab qo'llanishlar uzual ko'rinish kasb etmoqda:

You won the lottery?!?! (Lotereya yutib oldingiz?!?!)

My mom screamed, "Go to your room this instant!!" (Onam baqirib yubordi: "Hozir xonangga bor!")

I can't believe I failed my test again!!! (Men yana sinovdan o'ta olmaganimga ishonmayman!!!)

Jack, we won the lottery!!!! (Jek, biz lotereyani yutib oldik!!!!)

What did you say to him?? (Unga nima dedingiz?)

You won the lottery??? (Lotereya yutib oldingizmi???) [4, 34]

– *Qayerdasiz, bayke?!!...*, – *deya yana qichqirdi.*

– *Bu yerda! Hozir o'lib qolaman, qutqaringlar!* – *degan yana bo'g'iq ovoz keldi.* (N.Hoshimov)

– *Pora,* – *dedi ota quruq qilib.*

– *...?!*

– *Ha, buni anuvilar berishdi.* (N.Hoshimov)

Kel, oqibatli Do'st, beg'ubor tuyg'ularimiz qissasiga g'oyatda oddiy, lekin bag'oyat yuksak maqomdagi so'zsiz savol-javobimiz nuqta vazifasini o'tasin:

—

— ...-..?

—.....!.. (X.Do'stmuhammad)

Xususan, til millatniki. Me'yorni davlat belgilaydi. Shunday ekan, tildan turli maqsadlarda foydalanayotganda, iste'molchi nafaqat og'zaki nutqda, balki yozma nutqda ham mavjud adabiy me'yorlar – imloviy, punktuatsion, stilistik me'yorlarga to'la amal qilishga majbur. Negaki til – millat qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgu. Tinish belgilarini noo'rin qo'llash nafaqat gap mazmuni, maqsadi, grammatik qurilishining buzilishiga olib keladi, balki milliy madaniyatning bir qismi bo'lgan yozuvga ham dog' tushiradi [5, 62].

O'zbek tilida ko'p nuqta bilan yonma-yon kelgan tinish belgilarining qo'sh va qator qo'llanilishi natijasida hosil bo'lgan kombinatsiyalardan foydalanish me'yorlariga bo'ysungan holda: ?.., !.., ?! hamda qoidalardan chetlashgan holda: .., ..!, ..?, “!...”, ? , !?, ...?!, ...?!! ko'proq badiiy matnlarda uchraydi.

Jahon tilshunosligida tinish belgilarining hatto yangi ko'rinishlarini ham uchratish mumkin. So'roq hamda undov belgisining ushbu kombinatsiyasi “interrobang” (?) atamasi bilan yuritiladi. Ushbu belgining ishlatilishi amerikalik reklama direktori K.Martin nomi bilan bog'liq. U 1962-yilda ritorik gaplar hamda ishonchsizlik ohangi ustun bo'lgan so'roqlarni ifodalash uchun so'roq va undov belgisining konstruksiyasidan tashkil topgan “interrobang”ni (?) taklif qildi. Yangi tinish belgisi 1960-yillarda keng muhokama qilingan bo'lsa-da, uning qo'llanilishiga erisha olmadi [6]. Quyidagi ikkita jumlada ushbu belgining qo'llanishini ko'rishimiz mumkin:

What did you say to him? (Unga nima dedingiz?)

You won the lottery? (Siz lotereyani yutib oldingiz?)

Bu holat ham rasman tan olingan tinish belgisi emas, shuning uchun undan foydalanish adabiy me'yordagi yozishmalarda tavsiya etilmagan.

Bundan tashqari, 1966-yilda fransuz tilshunosi Erve Bazin yana oltita qo'shimcha tinish belgilari va “emoji”larni kiritishni taklif qiladi. Ular quyidagilar: ♡ – kamsitish, salbiy yoki kulgili xarakter belgisi, ♡ – sevgini ifodalovchi belgi; † – ishonch belgisi; † – buyruq belgisi; ! – olqish belgisi; ? – shubha belgisi.

1992-yilda Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) xalqaro patentga yana ikkita yangi tinish belgilari kiritish talabnomasini topshiradi. Ular so'roq vergul hamda undov vergul. Xususan, so'roq vergulida so'roq belgisining pastki qismidagi nuqta o'rniga vergul qo'yiladi (!), undovda esa undov belgisining pastki qismidagi nuqta o'rniga vergul (?) qo'yiladi. Bular gap ichida savol va undov belgilari sifatida foydalanishga mo'ljallangan. Bu vazifa uchun oddiy so'roq hamda undov belgilari ham ishlatilishi mumkin. Ushbu belgi 1994-yil 27-yanvarda Avstraliyada va 1995-yil 6-noyabrda Kanadada o'z kuchini yo'qotgan deb e'lon qilingan.

Xulosa qilib aytganda, tinish belgilariga xos funksiyalar davr nuqtayi nazardan o'zgarib turgan. Ingliz tilida qo'llangan punktuatsion belgilar ancha ilgari me'yorlashgan bo'lsa, o'zbek tilida bu jarayon uzual va individual funksiyalar hisobiga boyib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turayeva D. Umumiy va xususiy punktuatsion me'yorlar hamda ularning mantiqiy-grammatik asoslari (ingliz, rus, o'zbek tili materiallari misolida): Filol. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) diss. – Qarshi, 2023. – 28 b.
2. Nurmurotov I. O'zbek tilida tinish belgilari lingvopoetikasi: Filol. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) diss. – Buxoro, 2025. – 112 b.
3. Александров В.О. Проблемы экспрессивного синтаксиса. – М.: Высш. шк., 1984. – С. 85.
4. The Farlex Grammar Book: Volume II Complete English Punctuation Rules. – Copyright:

by Farlex International, 2016 . – P. 34. www.farlex.com/books

5. _Baxriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 62.

6. <https://en.wikipedia.org/wiki/Punctuation>

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ КОНТРОЛЬ И ОЦЕНКА УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УРОКАХ

**Б.Б. Давронов, Таджикский пед. институт в городе Пенджикент,
М.М. Рузibaев, (СамГУ)**

В современной системе образования физическая культура занимает важное место, направленное на всестороннее развитие личности учащихся, укрепление их здоровья и формирование устойчивого интереса к занятиям физическими упражнениями. Эффективность процесса обучения физической культуре во многом зависит от качества педагогического контроля и системы оценки учебной деятельности школьников. Педагогический контроль позволяет отслеживать динамику освоения учебного материала, выявлять пробелы в знаниях и умениях, а также корректировать методику преподавания. Оценка, в свою очередь, является стимулом для учащихся, способствует развитию их самооценки и ответственности за результаты обучения.

Цель статьи: Рассмотреть теоретические и практические аспекты педагогического контроля и оценки учебной деятельности на уроках физической культуры.

Задачи статьи:

1. Определить сущность и функции педагогического контроля в процессе обучения физической культуре.
2. Классифицировать виды и методы педагогического контроля, применяемые на уроках физической культуры.
3. Раскрыть особенности системы оценки учебной деятельности учащихся по физической культуре.
4. Проанализировать критерии и показатели оценки различных аспектов физической подготовленности и освоения теоретических знаний.
5. Рассмотреть современные подходы к оцениванию, включая использование портфолио и самооценки учащихся.
6. Выявить проблемы и перспективы совершенствования системы педагогического контроля и оценки в физическом воспитании.

Сущность и функции педагогического контроля в физической культуре

Педагогический контроль в физической культуре представляет собой систематический процесс сбора, регистрации и анализа информации о ходе и результатах обучения, физическом развитии и двигательной подготовленности учащихся. Основными функциями педагогического контроля являются:

- **Диагностическая:** выявление уровня освоения знаний, умений и навыков, а также уровня развития физических качеств.
- **Коррекционная:** своевременное внесение изменений в методику обучения с целью устранения выявленных недостатков.
- **Стимулирующая:** мотивация учащихся к регулярным занятиям физическими упражнениями и повышению своих результатов.
- **Воспитательная:** формирование у учащихся ответственного отношения к учебе, развитие самоконтроля и самооценки.
- **Прогностическая:** определение дальнейших направлений обучения и прогнозирование возможных результатов.

Виды и методы педагогического контроля

Педагогический контроль на уроках физической культуры может быть классифицирован по различным критериям:

- **По времени проведения:**

- **Предварительный (входной):** определение исходного уровня физической подготовленности и знаний учащихся в начале учебного года или изучения нового раздела.
- **Текущий:** систематическое наблюдение и проверка освоения материала на каждом уроке.
- **Периодический (тематический):** контроль усвоения определенной темы или раздела программы.
- **Итоговый:** оценка результатов обучения за четверть, полугодие или учебный год.
- **По форме организации:**
 - **Индивидуальный:** проверка знаний и умений каждого учащегося.
 - **Групповой:** оценка работы группы учащихся.
 - **Фронтальный:** проверка знаний и умений всего класса одновременно.
- **По методам:**
 - **Наблюдение:** фиксация выполнения двигательных действий, поведения на уроке, уровня активности.
 - **Устный опрос:** проверка теоретических знаний по теме урока.
 - **Письменные работы:** контрольные работы, тесты по теоретическому материалу.
 - **Практические задания (тесты):** выполнение двигательных упражнений для оценки уровня физической подготовленности (бег на различные дистанции, прыжки, подтягивания, отжимания и др.).
 - **Контрольные нормативы:** сравнение результатов учащихся с установленными стандартами.
 - **Самоконтроль и самооценка:** анализ учащимися собственных достижений и определение уровня усвоения материала.
 - **Портфолио:** сбор и систематизация работ учащегося, отражающих его прогресс в физической культуре.

Система оценки учебной деятельности по физической культуре

Оценка учебной деятельности по физической культуре должна быть комплексной и учитывать различные аспекты:

- **Уровень освоения теоретических знаний:** понимание терминологии, правил техники безопасности, основ гигиены, влияния физических упражнений на организм.
- **Степень владения двигательными умениями и навыками:** качество выполнения упражнений, техника движений в различных видах спорта.
- **Уровень развития физических качеств:** быстрота, сила, выносливость, ловкость, гибкость, координация.
- **Активность и старательность на уроках:** участие в выполнении заданий, проявление инициативы, соблюдение дисциплины.
- **Динамика индивидуальных показателей:** отслеживание прогресса учащегося в течение учебного периода.

Критерии и показатели оценки

Критерии оценки должны быть четкими, понятными и доведены до сведения учащихся. Показатели оценки могут быть количественными (результаты тестов и контрольных нормативов) и качественными (уровень владения техникой, активность). При оценивании важно учитывать индивидуальные особенности учащихся, их исходный уровень подготовленности и динамику прогресса.

Современные подходы к оцениванию

В современной педагогике физической культуры все большее распространение получают альтернативные формы оценивания:

- **Портфолио:** позволяет учащимся демонстрировать свои достижения в течение длительного времени, отражает их усилия и прогресс. Портфолио может включать выполненные задания, результаты тестов, видеозаписи выполнения упражнений, рефлексию и самооценку.

- **Самооценка:** способствует развитию у учащихся критического мышления и ответственности за свои результаты. Учащиеся учатся анализировать свои достижения и определять направления для дальнейшего развития.

- **Взаимооценка:** позволяет учащимся оценивать работу друг друга по установленным критериям, развивает навыки сотрудничества и критического анализа.

Проблемы и перспективы совершенствования системы педагогического контроля и оценки

Среди проблем, связанных с педагогическим контролем и оценкой в физической культуре, можно выделить:

- Субъективность оценивания, особенно при качественной оценке двигательных умений.

- Недостаточная разработанность критериев оценки различных аспектов учебной деятельности.

- Трудности в организации индивидуального контроля при большом количестве учащихся в классе.

- Недостаточное использование современных технологий для сбора и анализа данных.

Перспективы совершенствования системы педагогического контроля и оценки в физической культуре связаны с:

- Разработкой четких и объективных критериев оценки.

- Внедрением современных информационно-коммуникационных технологий для автоматизации сбора и обработки данных.

- Активным использованием альтернативных форм оценивания (портфолио, самооценка, взаимооценка).

- Повышением квалификации педагогов в области педагогического контроля и оценки.

- Индивидуализацией процесса оценивания с учетом особенностей каждого учащегося.

Заключение

Педагогический контроль и оценка являются неотъемлемыми компонентами эффективного процесса обучения физической культуре. Грамотно организованный контроль позволяет отслеживать прогресс учащихся, корректировать методику преподавания и мотивировать к достижению высоких результатов. Внедрение современных подходов к оцениванию, основанных на объективных критериях и использовании разнообразных методов, способствует развитию самооценки, ответственности и интереса учащихся к занятиям физической культурой, что в конечном итоге приводит к повышению качества физического воспитания в целом.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Виленский, М. Я. (2004). *Физическая культура: учебник для студентов высших педагогических учебных заведений*. М.: Просвещение.

2. Лях, В. И. (2006). *Физическая культура в школе: учебно-методическое пособие*. М.: Академия.

3. Матвеев, Л. П. (1991). *Теория и методика физической культуры: учебник для институтов физической культуры*. М.: Физкультура и спорт.

4. Столяров, В. И. (2005). *Педагогика физической культуры: учебник для студентов высших учебных заведений*. М.: Физкультура и спорт.

MODERN STRATEGIES FOR STIMULATING STUDENTS' INTEREST IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES: INNOVATIVE METHODS

A.A. Akbarov, Andijon Davlat Chet Tillari Instituti

Motivation is an important factor determining success in learning foreign languages. Effective language acquisition requires not only knowledge of grammar rules and vocabulary, but also student engagement, their desire to develop and apply the acquired knowledge in practice. Modern teaching methods focus on how to support and develop students' motivation, focusing on their individual needs and preferences. This article discusses innovative approaches and practices that help increase students' motivation in the process of learning foreign languages.

Motivation plays a key role in learning a foreign language, and is divided into intrinsic and extrinsic. Extrinsic motivation is associated with external stimuli, such as diplomas or career prospects, while intrinsic motivation is manifested in interest in the learning process, the desire to understand a foreign culture and develop communication skills. Intrinsic motivation is a decisive factor for successful acquisition of material and maintaining a sustainable interest in learning a language.

One of the most relevant areas in the modern educational process is the use of innovative methods aimed at increasing student motivation. Technology plays an important role in language learning, providing opportunities to practice the language in an interactive and fun way. Using platforms and apps like Duolingo, Quizlet, or Kahoot, students can consolidate and improve their knowledge by participating in interactive activities and games. These technologies not only help in learning vocabulary and grammar, but also allow students to learn at their own pace, which helps to increase their engagement and interest in the learning process.

In addition, technology-based learning tools enable virtual classes with native speakers, giving students a unique opportunity to practice speaking and listening in a real-life setting. Video conferencing and online courses create an atmosphere close to a real language environment, which helps build self-confidence and improve communication skills. Thus, technology helps create a personalized learning experience, where each student can choose materials and tasks that match their level and interests.

Another important method of increasing motivation is project work. This method allows students to work on real problems, which makes the learning process more conscious and practice-oriented. Projects related to language learning give students the opportunity to apply the knowledge they have acquired in the context of real situations. For example, students can create videos, presentations, research, or work on group projects that require the use of language to achieve specific goals. Project work not only helps develop language skills, but also promotes the development of critical thinking, teamwork, and organizational skills.

Gamification, or the use of game elements in the educational process, is another effective way to stimulate student motivation. Game elements such as competitions, quizzes, quests and role-playing games make the learning process more exciting and less stressful. Students, by participating in such activities, can develop their language skills in conditions close to real life, which increases their interest and desire to participate in classes. It is important that game elements are integrated into the learning process in such a way that they contribute not only to the development of language skills, but also to the ability to work in a team, make decisions and solve non-standard problems.

A personalized approach that takes into account the individual interests and needs of students helps to increase motivation. Teachers can design tasks that are relevant to each student and create conditions for deep engagement. This allows students to choose topics and aspects of the language that are closest to them, which helps to form intrinsic motivation and makes learning more meaningful.

However, it is important to note that the effective use of innovative methods requires a high degree of professionalism and attention to the needs of students from the teacher. The introduction of new technologies and methods should be carefully thought out and consistent with the educational goals. The teacher must be ready to use different approaches depending on the level of students, their interests and peculiarities of perception of the material.

Examples of successful practices show how innovative methods, including technology, can

significantly increase student motivation. A number of universities actively use virtual classrooms and online courses, in which students not only master grammar and vocabulary, but also solve real problems in various fields, such as business, medicine and technology. Game elements such as role-playing games and quests are also widely used, which contributes to dynamic and exciting learning.

In today's rapidly evolving educational landscape, innovative teaching methods play a crucial role in enhancing students' motivation when learning foreign languages. Traditional approaches, while effective in some cases, often fail to fully engage learners or accommodate their individual learning preferences. As a result, educators increasingly turn to dynamic strategies that incorporate technology, project-based learning, game elements, and personalized instruction to create a more stimulating and effective learning environment.

Technology has revolutionized language learning by providing interactive tools that make lessons more engaging and accessible. Digital platforms, language-learning apps, and AI-assisted tutoring systems allow students to practice and refine their skills in ways that feel natural and immersive. These tools also enable teachers to tailor their instruction to different learning styles, ensuring that each student progresses at their own pace while maintaining a high level of motivation.

Project-based learning further enriches the educational experience by encouraging students to work collaboratively on meaningful tasks that require practical application of their language skills. Through projects such as presentations, research assignments, or cultural explorations, students develop real-world communication abilities while gaining confidence in using the target language. The hands-on nature of these activities fosters deeper engagement, making learning feel purposeful and rewarding.

Incorporating game elements into the learning process introduces an element of excitement and challenge, making language acquisition more enjoyable. Gamification techniques—such as rewards systems, competitive tasks, and interactive storytelling—create an atmosphere in which students feel motivated to reach new milestones. By transforming traditional lessons into engaging experiences, teachers cultivate enthusiasm and drive among learners, leading to sustained language development.

A personalized approach to teaching is equally vital in maintaining student motivation. Every learner has unique strengths, preferences, and challenges, and recognizing these differences allows educators to provide individualized guidance. Whether through adaptive learning programs, tailored assignments, or one-on-one mentorship, personalized instruction ensures that students remain invested in their progress and feel empowered to overcome obstacles.

Ultimately, the integration of these innovative methods leads to a more dynamic and exciting learning process. By creating an environment that is both effective and enjoyable, educators not only facilitate the successful acquisition of language skills but also nurture students' intrinsic motivation. When learning feels rewarding, students are more likely to achieve high results and maintain a long-term commitment to mastering a foreign language.

Thus, embracing modern teaching strategies enhances the overall quality of education, fostering a generation of confident, engaged, and enthusiastic language learners ready to apply their skills in global settings.

BIBLIOGRAPHY:

1. Bulanova-Toporkova M.V. Pedagogy and Psychology of Higher Education: Textbook. Rostov n / D: Phoenix, 2002. - 544 p.

2. Zaitseva S.E. Formation of motivation for learning a foreign language among students of non-linguistic specialties. [Electronic resource]. - Access mode: <http://na-journal.ru/2-2013-gumanitarnye-nauki/283-formirovanie-motivacii-izuchenija-inostrannogo-jazyka-u-studentovnejazykovyh-specialnostej>

3. Loginova A.V., Otbanov N.A. Ways to increase students' motivation to learn a foreign language // Young scientist. - 2015. - No. 11. - P.1395-1397. [Electronic resource]. – Access mode: <https://moluch.ru/archive/91/19390/>

INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TIL O'QITISHNING SAMARADORLIGI: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

**N.I. Xudaberdiyeva, AndDCHTI doktoranti,
M.E. Matqosimova, AndDCHTI o'qituvchisi,
Z.Sh. Zokirjonova, AndDCHTI talabasi**

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari ta'lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Xususan, til o'qitish jarayoni ham bu borada istisno emas. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli vositalarning keng qo'llanilishi ta'lim jarayonini interaktiv, ya'ni ikki tomonlama faoliyatga asoslangan shaklga o'tkazishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, til o'rganish samaradorligini oshirish, o'quvchilar faolligini kuchaytirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Interaktiv texnologiyalar, bu o'qituvchi va talaba o'rtasida jonli muloqot, fikr almashinuvi, o'zaro ta'sirga asoslangan o'quv faoliyatini tashkil etish vositasi bo'lib, ularning o'quv jarayonidagi ishtirokini faollashtiradi. Til o'rganishda esa bu yondashuv ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki til faqat nazariy bilim emas, balki amaliy muloqot vositasi hamdir. Shu bois, interaktiv metodlar til o'rgatuvchi jarayonni simulyatsiya qilish, ya'ni real hayotdagi muloqot sharoitlarini yaratish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kommunikativ yondashuv, CLIL (Content and Language Integrated Learning), gamifikatsiya (o'yin texnologiyalari), masala va muammo yechishga asoslangan o'qitish kabi metodlar interaktiv texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilganda, o'quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirishda yuqori natijalar beradi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarni faqat grammatik qoidalarni yod olishga emas, balki tilni hayotiy vaziyatlarda faol qo'llashga o'rgatadi. Mazkur ishda interaktiv texnologiyalar asosida til o'qitish samaradorligi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning integratsiyalashuvi orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tajriba asosida erishilgan natijalar hamda ilg'or xorijiy va mahalliy amaliyotlar asosida tavsiyalar beriladi.

Hozirda ta'lim sohasida tezkor o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot va axborot oqimining ortishi natijasida an'anaviy o'qitish usullari o'z-o'zidan yangilanishni talab qilmoqda. Xususan, chet tillarini o'qitishda samaradorlikni oshirish maqsadida interaktiv yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodikalar keng joriy etilmoqda. Bu metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Interaktiv metodlarning mazmuni va afzalliklari

Interaktiv yondashuvlarda asosiy e'tibor o'quvchining bilimni faollik bilan o'zlashtirishiga qaratiladi. Ya'ni, dars jarayonida o'quvchilar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishadi. Bunday metodlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- kichik guruhlar bilan ishlash;
- bahs-munozarali darslar;
- rolga kirish asosida topshiriqlar;
- "Aql hujumi", "Zanjirli fikr" kabi metodlar;
- vizual va texnologik vositalardan foydalanish (taqdimotlar, videodarslar, interaktiv doskalar va h.k.).

Bu metodlar o'quvchining til ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish bilan birga, ijtimoiy faollik, jamoaviy ishlash va muammolarni mustaqil hal qilish kabi zamonaviy kompetensiyalarni ham shakllantiradi.

2. Innovatsion yondashuvlarning interaktiv ta'limga qo'shgan hissasi

Zamonaviy ta'limda kommunikativ, muammoli, hamkorlikka asoslangan va integrativ yondashuvlar katta ahamiyat kasb etadi. Masalan:

- Kommunikativ yondashuv orqali o'quvchilar kundalik hayotda uchraydigan real vaziyatlarda tilni to'g'ri ishlatishni o'rganadilar;
- Gamifikatsiya (o'yin elementlarini o'qitishga qo'shish) orqali darslar qiziqarli va motivatsion muhitda o'tadi;

- CLIL (Fan va til integratsiyasi) esa tilni faqat o'rganish obyekti emas, balki fanlararo bilim olish vositasi sifatida qo'llashga imkon beradi.

Bu yondashuvlar natijasida dars jarayoni yanada mazmunli va jonli kechadi, o'quvchilar esa yangi bilimni passiv emas, balki faol tarzda o'zlashtiradilar.

3. Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar

Axborot texnologiyalari taraqqiyoti ta'lim sohasiga ham o'z ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda til o'rganish uchun mo'ljallangan ko'plab raqamli resurslar mavjud bo'lib, ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin:

- Kahoot, Quizizz, Wordwall kabi test platformalari;
- Duolingo, Memrise, BBC Learning English kabi interaktiv o'quv resurslari;
- Google Classroom, Zoom, Moodle kabi onlayn ta'lim tizimlari.

Mazkur vositalar yordamida darslar mustahkamlanadi, o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyati ortadi va oraliq baholashni aniq amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

4. Tajriba va kuzatuvlarga asoslangan natijalar

O'tkazilgan ko'plab tajriba darslari va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlardan foydalangan guruhlarda:

- o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'z fikrini erkin ifodalash va muloqot qilish qobiliyati rivojlanadi;
- darsga kechikishlar, qatnashmaslik holatlari kamayadi;
- o'zaro hurmat, jamoada ishlash va fikr almashish madaniyati shakllanadi.

Ayniqsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni darsga uyg'un tarzda qo'llash o'quvchilarda tilni amaliyotda qo'llashga bo'lgan ishonchni oshiradi.

1. Interaktiv texnologiyalarni o'quv dasturlariga integratsiya qilish: Har bir bosqich uchun mos raqamli platforma va ilovalardan (Quizlet, Kahoot, Duolingo, Google Classroom) muntazam foydalanish o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

2. O'qituvchilarni raqamli savodxonlik bo'yicha qayta tayyorlash: O'qituvchilar uchun interaktiv texnologiyalarni samarali qo'llash bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Chunki texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish ularning kasbiy samaradorligini oshiradi.

3. Talabalar faoliyatini tahlil qilish uchun analitik vositalarni joriy etish: Interaktiv darslarda to'plangan ma'lumotlar asosida o'quvchilarning yutuqlari va qiyinchiliklarini baholash imkonini beruvchi AI yoki tahlil platformalarini qo'llash foydalidir.

4. Onlayn va oflayn aralash o'qitish modellarini kengaytirish: Aralash (blended learning) metodikasi asosida darslar tashkil qilish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

5. Til o'rgatishda gamifikatsiyani (o'yin elementlarini) keng joriy qilish: O'yin asosidagi interaktiv mashg'ulotlar orqali o'quvchilar bilimni qiziqarli tarzda o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

Ushbu tezisdan shuni hulosa qilib aytamizki, til o'qitishda interaktiv texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalar va o'qituvchilar o'rtasida faol, ikki tomonlama muloqotni kuchaytiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ayniqsa, raqamli vositalar yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi. Shu boisdan, interaktiv metodlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini mustahkamlash va ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin. Kelajakda bu yondashuvlar til o'qitish tizimining muhim qismiga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bahromova, M. M. (2021). *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: Nazariya va amaliyot*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

2. Qodirova, G. N. (2022). "Interaktiv usullardan foydalanish orqali chet tilini o'qitishda erishilayotgan samaradorlik." *Filologiya masalalari*, №1(56), 75–80.

3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

INGLIZ TILIDA BOYLIKNI NOMLOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

N.G'. Qodirova, AndDU tayanch doktaranti

Kirish: Til odamlar o'rtasidagi asosiy muloqot vositasi bo'lib, odamlarning tafakkuri va ma'naviy qadriyatlarining nozik tomonlarini ochib beradi. U orqali biz madaniyatning g'oyalarni idrok etish va kontseptsionalashning o'ziga xos usulini o'rganishimiz mumkin. Til millatning o'ziga xosligi, turmush tarzi, an'analari, axloqi, qadriyatlari, dunyoqarashini kodlaydi. "Boylik" tushunchasi ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisa sifatida moddiy qadriyatlar paydo bo'lganidan beri mavjud. Ular butun dunyo tillarida o'ziga xos tarzda ifodalangan. Jamiyatning madaniy va tarixiy tamoyillarini aks ettiruvchi "boylik" kontseptual asoslari tilshunoslik sohasini chuqur o'rgangan Fozilova kabi olimlarning tadqiqot markazi bo'lib kelgan. Sainz ingliz tilida kambag'allik va boylikning tarkibiy xususiyatlarini o'rganar ekan, odamlarning boylik haqidagi tasavvurlari ularning ushbu ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro munosabatlarida hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlab o'tadi.

Bugungi globallashuv davrida tillararo tarjima jarayoni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va pragmatik bilimlarni ham talab qiladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar kabi ifodalar tarjimasida faqatgina so'zma-so'z tarjima emas, balki ularning madaniy konnotatsiyalari, ijtimoiy qadriyatlar va xalqona tafakkur tizimlarini hisobga olish muhimdir. "Boylik" konsepti – bu insoniyat tarixida doimiy ahamiyat kasb etgan mavzulardan bo'lib, uning atrofida shakllangan frazeologik ifodalar har bir til va madaniyatda turlicha aks etadi.

Asosiy qism: "Boylik" har bir jamiyatda muhim ijtimoiy va iqtisodiy tushuncha sifatida qaraladi. G'arb madaniyatida, ayniqsa AQSh va Buyuk Britaniyada boylik ko'pincha muvaffaqiyat, mehnatsevarlik, mustaqillik va shaxsiy erkinlik bilan bog'lanadi. O'zbek madaniyatida esa boylik ko'proq baraka, xudo bergan rizq, saxovat va oilaviy farovonlik bilan o'lchanadi. Bu farqlar, albatta, frazeologik ifodalarda ham o'z aksini topadi. Ingliz tilida va ingliz kommunikativ madaniyatida boylik tushunchasi asosan quyidagi ikki toifaga ajratiladi:

- 1) moddiy boylik
- 3) ma'naviy boylik.

Frazeologik birliklar ham yuqorida sanab o'tilgan toifalar semalarini ifodalab qo'llaniladi.

Frazeologik birliklar tarjimasida uchraydigan asosiy muammo bu – ularning konnotativ (yuqori darajadagi) ma'nolarini saqlab qolishdir. Inglizcha "Money doesn't grow on trees" iborasi so'zma-so'z tarjimada o'z ta'sirini yo'qotadi. Uni o'zbek tiliga "Pul osmondan tushmaydi" yoki "Pulni ko'chadan yig'ib olishmaydi" tarzida ekvivalent bilan tarjima qilish madaniy moslikni ta'minlaydi.

Cash cow- A business or investment that generates a steady and significant income.

The restaurant turned out to be a real cash cow for its owners. Bu ibora esa barqaror va sezilarli daromad keltiradigan biznes yoki investitsiya ma'nosida keladi. *Restoran o'z egalari uchun haqiqiy daromad keltiradigan biznesga aylandi.*

Money spinner, Lucrative investment leksik birliklari ham daromad keltiruvchi biznes ma'nosini ifodalab keladi.

Ingliz tilida cash cow atamasi kelib chiqishi ingliz millati uzoq tarixiga borib taqaladi. "Cash cow" atamasi dastlab "sog'uvchi sigir" ya'ni "milk cow" sifatida 1601 yilda aylanishid oldin boshlangan. Bu atama dehqonchilikni moliyaviy muvaffaqiyat bilan bog'ladi, bu 17-asrning qishloq xo'jaligiga asoslangan, sanoatdan oldingi kunlarida o'z vaqtida paydo bo'lgan g'oya. O'sha paytlarda, bu atama ishonchli, doimiy daromad manbai g'oyasini nazarda tutgan ya'ni o'sha davrlarda ham dehqonlar sigirning sutini naqd pulga sotishlari mumkin bo'lgan – va biz bilamizki bu jarayon boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish kabi mashaqqatli kuch va texnik xizmat ko'rsatishni talab qilmagan. Biroq, zamonaviy moliyaviy kontekstda bu atamaning aniq

qo'llanilishi faqat 1970-yillarda boshlangan. Mark Ellison va Kristian Mugaruraning "Cash cow" asari voqealar rijovi ushbu idiomamizni mazmunini yanada yoritib bergan.

We are the cash cows that can alleviate the poverty of our families.

Hikoya bosh qahramoni Grace "Biz oilalarimizning qashshoqligini yengillashtiradigan pul manbalarimiz" deya o'ziga va unga o'xshagan qizlarning o'sha davrdagi holatini tasvirlaydi. Ya'ni Gracening oilasi maktabni tashlab, uni notanish kishiga turmushga chiqishga majbur qiladi. Greysning hikoyasi bilan bog'liq sarlavha kontekstini tushunganingizdan so'ng, bu qanchalik dahshatli ekanligini tushunishimiz qiyin emas. Grace va unga o'xshash barcha qizlar - bu foydalanish mumkin bo'lgan manba.

The fat cats of Wall Street made millions while ordinary people lost their jobs. Boylik tushunchasiga oid bu idiomamiz biznes yoki siyosatda boy va nufuzli shaxs degan ma'noni ifodalaydi. *Uoll-stritning boy va nufuzli shaxslari oddiy odamlar ishsiz qolganda millionlab pul ishlab topdilar.*

"Fat cat" atamasi ko'pincha badavlat shaxslarni, ayniqsa imtiyozli yoki hashamatli turmush tarzini olib boruvchi deb hisoblanganlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu atamaning kelib chiqishini AQShda 20-asr boshlarida kuzatish mumkin. "Fat cat" atamasi dastlab siyosat yoki biznes bilan shug'ullangan badavlat va nufuzli shaxsni nazarda tutgan. Semiz mushukning tasviri boylik, ortiqcha boylik va kuchni anglatadi. Va yana bu atamaning kelib chiqishi 20-asr boshlarida badavlat tadbirkorlarning baliq fermalariga egalik qilish yoki ularga sarmoya kiritish amaliyotidan kelib chiqadi. Ushbu korxonalar o'zlarining daromadlilik bilan mashhur bo'lgan va "fat cat" atamasi boylik va mo'l-ko'llikni ifodalovchi muvaffaqiyatli va yaxshi oziqlangan mushuk baliqlari g'oyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan "fat cat" atamasi haddan tashqari boylikka ega yoki o'z hokimiyatini suiiste'mol qiladigan shaxslarni tanqid qilish yoki masxara qilishning mashhur usuliga aylandi. U turli kontekstlarda, jumladan, siyosat, biznes va o'yin-kulgida, boshqalar iqtisodiy jihatdan kurashayotgan paytda dardliq turmush tarzidan zavqlanadiganlarni tasvirlash uchun ishlatilgan.

What if it were not a fat-cat insurance company footing the bill but your upstairs neighbour, whose negligence had caused the leak.

Ushbu parchada qatnashgan fat cat ifodasi asosan biznesda muvaffaqiyatli sug'urta kompaniyasini nazarda tutmoqda.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydigan keyin fraza bu "living in clover" hisoblanadi.

Living in clover- Enjoying a life of ease, comfort, and prosperity. Since winning the lottery, they've been living in clover. Bu idiomamiz osonlik, farovonlik va farovon hayotdan zavqlanish deb tarjima qilinadi. Lotereya yutib olganidan beri ular farovon hayotdan zavqlanib yashashmoqda. Living the good life, Enjoying prosperity Big spender kabi leksik birliklar ushbu ibora ma'nosida keladi. Bu ibtidoiy ibora bo'lib, beda dalasida bemalol va erkin beda chaynagan baxtli sigirning tom ma'nodagi tasviridan olingan. Idiomalar mavjud holatning obrazli tavsifini beradi. Shu tarzda foydalanilganda, ular muallifning xabari bilan bog'langan qo'shimcha aloqalar orqali tilde yuzga chiqadi. Living in clover atamasi, katta qulaylik holati yoki hayotda kelajak haqida qayg'urmaslik kerak bo'lgan joyda bo'lishni anglatadi. Bunday holatdagi bo'lgan odam ko'pincha barcha asosiy ehtiyojlarini qondiradi va qo'shimcha o'yin-kulgi yoki qulayliklardan bahramand bo'lish uchun resurslarga ega.

I've lived in clover, to my thinking, Till I perceived the Rino (money) sinking The last Letters from the Camp of Germany are of the 15th [...]. The Number in that Camp is 75 Battalions and 105 Squadrons, who are allowed to live at Discretion, that is the Soldiers are permitted to go out a maroding on their private Account, and pillage or destroy at Will, whilst a regular Body of 8 Battalions and 13 Squadrons, under Lieut. General Quodt, put the Country of Wirtemberg under Contribution. This Liberty has produced great Abundance; Cows, Hogs and other Cattle, are brought daily into the Camp, with Fruits, Wine and other Things: The Soldiers live in Clover, the Officers grow rich and the Country People Wise, if Affliction can make them so.

Ushbu parchada qatnashgan live in clover frazeologik birligi ham boy va to'kis hayotda yashamoq semasiga ishora qilmoqda.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, frazeologik birliklarni tarjima qilishda tilshunoslik bilan bir qatorda madaniyatshunoslik ham muhim rol o'ynaydi. "Boylik" konsepti doirasidagi iboralar har bir jamiyatda o'ziga xos tarzda shakllanadi va ularni tarjima qilishda asl ma'no va konnotatsiyani yo'qotmaslik uchun lingvomadaniy yondashuv zarur. Bu sohada chuqur tahlil va kontekstual qarashlar talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andrew Ortony, Diane L. Schallert, Ralph E. Reynolds, and Stephen J. Antos. *Interpreting Metaphors and Idioms: Some Effects of Context on Comprehension*. University of Illinois at Urbana-Champaign, July 1978.
2. Arthur H. Cole. *The Social Significance of New English Idiomatic Phrases*. American Antiquarian Society. Page 49.
3. Ekaterina Chon. *What nominal cat metaphors tell about humans – A corpus-based study*. <https://www.researchgate.net/>
4. Fazilova, Sh. K. (2019). *The concept of "Wealth" in English, Russian and Tajik linguistic cultures (on the basis of phraseological units, proverbs and sayings)*. Russian-Tajik (Slavonic) University.
5. J. Mayo. *To the Divine Apollo. The British Apollo: or, Curious Amusements for the Ingenious*. To which are added the most Material Occurrences Foreign and Domestick. From Wednesday February 22d. to Friday February 25th. 1710.
6. Ketevan Shashviashvili. *Analysis of the Money-Related Idioms in the English Language*. International Conference on Developments in Education, Toronto, Canada, 21st June 2023. <https://econferencezone.org>

KOREYS ADABIYOTIDA ERTAK JANRINING AYRIM

JIHATLARI

Marjona To'layeva, SamDCHTI
Sharq tillari fakulteti koreys tili
yo'nalishi 1-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: Jo'raqulov R.D.

Kirish qismi: Har bir xalqning madaniyati, tafakkuri va tarixiy tajribasi avvalo uning og'zaki ijodi va yozma adabiyotida namoyon bo'ladi. Koreys xalqi ham o'zining boy og'zaki ijodi orqali qadim zamonlardan beri axloqiy, ma'naviy va estetik qadriyatlarini avlodlardan avlodga yetkazib kelgan. Bunday og'zaki ijod namunalari orasida ertaklar alohida o'rin tutadi. Koreys adabiyotida ertak janri xalq hayotining ko'zgusi, xalq donishmandligi va orzu-umidlarining ifodasidir. Ushbu maqolada koreys ertaklarining asosiy xususiyatlari, turlari, mazmuni hamda ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism:

Koreys ertaklari qadim zamonlardan og'zaki tarzda aytilib, yozma shaklga o'tgan. Ular ko'plab avlodlarning yodida saqlanib, hozirgi kungacha yetib kelgan. Koreys ertaklarining asosiy vazifasi – bolalar va yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, rahm-shafqat kabi insoniy fazilatlar bilan tanishtirishdan iborat.

Koreys ertaklari odatda quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sehrli ertaklar – mo'jizaviy hodisalar, sehrli jonzotlar, sehrli buyumlar ishtirok etadi. Masalan, "Simchong" ertagi.

2. Hayvonlar haqidagi ertaklar – bu turdagi ertaklarda hayvonlar insoniy fazilatlar bilan ifodalanadi. Misol: "Tulki va turna".

3. Ijtimoiy-ma'naviy ertaklar – ijtimoiy tengsizlik, adolat, mehr-oqibat kabi mavzularni yoritadi. Masalan, "Yaxshi akaxon va yomon akaxon".

Ertaklar nafaqat ko'ngilochar vazifani bajaradi, balki xalqning tarixiy hayoti,ri, ijtimoiy munosabatlari haqida ham muhim ma'lumotlar beradi. Ular orqali koreys xalqi o'z orzu-umidlarini, hayotiy qarashlarini, axloqiy mezonlarini ifoda etadi.

Bugungi kunda koreys ertaklari bolalar bog'chalari, maktab darsliklari, teatr asarlari va animatsion filmlarda keng foydalaniladi. Bu esa ularning zamonaviy jamiyatda ham dolzarbligini saqlab qolganini ko'rsatadi. Ertaklarning zamonaviy shakllari bolalarning tasavvurini boyitish, estetik didini shakllantirish, ona tiliga va milliy qadriyatlarga hurmat uyg'otishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, koreys adabiyotida ertak janri xalqning tarixiy, madaniy va axloqiy tajribasining boy manbai sifatida e'tirof etiladi. Ular nafaqat koreys xalqining madaniy merosi, balki bugungi avlodlar tarbiyasi uchun ham muhim vosita hisoblanadi. Ertaklar orqali xalq o'z donishmandligini, axloqiy qarashlarini va ijtimoiy haqiqatlarni ifoda etadi. Shu boisdan koreys ertaklarini chuqur o'rganish nafaqat filologiya va adabiyotshunoslik uchun, balki ta'lim-tarbiya sohalarida faoliyat yuritayotganlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kim, H.S. (2000). Korean Folk Tales. Seoul: Yonsei University Press.
2. Lee, P.H. (1997). A History of Korean Literature. Cambridge University Press.
3. 한국 구비문학 개론 (Kirish Koreys og'zaki adabiyotiga). Seul, 2012.
4. Internet manbalari: www.koreanfairytales.com, www.koreanculture.org

Adabiyotda inson qalbini, ichki dunyosini tasvirlash – psixologik tahlil uslubining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Shu bois ham A.Iyezuitov, V.V.Kompaneyets, D.N.Ovsyaniko–Kulikovskiy, A.P.Skaftimov, L.Ya.Ginzburg, A.B.Yesin kabi olimlar bu muammoni oydinlashtirishga harakat qilishadi. Birgina L.Ginzburgning “Nasrda psixologizm” nomli monografiyasida psixologik tasvirga katta e‘tibor qaratadi. U insonning xarakterini uning hujjatiga qiyos etadi¹⁶. Yoki tadqiqotchi S.L.Rubinshteyn mulohazalariga e‘tibor qaratsak, u inson kechinmalarini, kamolotga erishishidagi individual yo‘lini hayotining burilish pallasida deb biladi. Shu sabab ham, uning talqinicha inson kechinmalari real hayotining subyektiv tomoni, shaxs umr yo‘lining sub’yektiv aspektiga aylanadi¹⁷. D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy esa “Tushinish psixologiyasiga doir” asarida “psixologizm”, “psixologik tahlil”, “psixologik tasvir”, “qalb dialektikasi” singari tushunchalar haqida so‘z yuritib, uning mazmun-mohiyatini ochishga intiladi¹⁸. Umuman, ruhiy holat, ruhiy kechinma borasidagi qarashlar bir-birini to‘ldiradi. Shu bois ham ruhiy kechinmalarni ifoda etishda ayol yozuvchilar ham bu muammoga katta e‘tibor qaratishadi. Ayniqsa, badiiy asarni kechinmalar, tuyg‘ular orqali chuqur va atroflicha tahlil qilgan adibalar bugungi adabiyotda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunday ijodkorlardan biri Saida Zunnunovadir. Saida Zunnunovaning she‘riyati va nasriy asarlarida ruhiy holatlar odatda ayol qalbi, ona yuragi, muhabbat, yo‘qotish va umidsizlik kabi mavzular bilan uzviy bog‘liq. Uning hayoti – turmushdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy to‘siqlar – asarlarida tahliliy va dramatik ohang sifatida ko‘zga tashlanadi.

“Insonning ruhiy olami, inson hayotining mohiyati, uning izlanishlari, birinchi navbatda, o‘zi bilan, nafsi bilan olib borayotgan kurashi, shu kurashdagi qiyin g‘alabalari, shu jumladan, o‘zi ustidan qozongan g‘alabalari, yashash san‘atining sirlari ifodalanishi, tahlil qilinishi kerak va shu asnosida chiqarilgan yoki kitobxon o‘zi chiqarib oladigan xulosalar uchun buyuk saboq, ibrat manbai bo‘lib xizmat etmog‘i kerak. Bir so‘z bilan aytganda, qahramon ongi va tafakkuridagi o‘zgarishlar va bu yangilanishlar uning faoliyatida qay tariqa aks etishini ko‘rsatib bermog‘i zarur.”¹⁹ – deb hisoblaydi adabiyotshunos O.Sharafiddinov. Saida Zunnunova ham ruhiy kechinmalarni berishda mana shu insoh ruhiyatining mohiyati, uning izlanishlari bilan chambarchas bog‘laydi. Shu nuqtai nazardan adibaning “So‘qmoqlar” qissasiga e‘tiborimizni qaratamiz: “Egamov gazetaning sayyor muxbiri. Ko‘p umri komandirovkada o‘tadi. Toshkentda bo‘lgan kezarlarida esa o‘zi yozgan yoki o‘zi uyushtirgan maqolaning to bosilishiga qo‘l qo‘yilgan nusxasini o‘qimaguncha redaksiyadan ketolmaydi. Shuning uchun ham redaksiyada uni “onasi navbatchilikka tuqqan” deyishadi. Bu gap Egamovni qittay bo‘lsa ham ranjitmaydi, qayta xursand qiladi. Chunki u odamning o‘z kasbiga mehr qo‘yishini oliy fazilat deb biladi. Buni boshqalar ham bilib qo‘ysa yomon bo‘lmasdi”²⁰. Zavqu-shavq Egamov ruhiyatidagi parokandalik, o‘z taqdiridan norizolik kayfiyatini anglatadi. U jamiyatga hayotini moslashtirgan, u bilan hamqadam yurishga intilgan. Ushbu harakat esa dunyoni, o‘ziga tegishli bo‘lgan jamiyatni qayta anglash, idrok etishini taqozo etdi. Mana endi asta-sekin ma‘naviy hayoti harakatga keladi. Shu vaqtgacha ma‘lum ma‘noda turg‘unlashib qolgan tusunchalar o‘z o‘rnidan qo‘zg‘alib, tuslanishga yuz tutadi. Ilgari uni quvontirgan, ko‘ngil va ongini zavqu-shavqqa to‘yintirgan narsa va hodisalar endi juda ham g‘arib ko‘rina boshlaydi. Egamovning ko‘ngli esa yangilik qidirishga tushadi. To‘g‘ri adiba zamonning qaynoq nafasini ufurib turganligini, ularning hayotining asosi sifatida ko‘rsatadi. Biroq bu qaynoq nafas ham bosh qahramon, Egamov ruhiyatidagi darz ketgan holatni butlay olmaydi. Egamov va Aziza jamiyatda o‘zini o‘tga-cho‘qqa urgan, o‘zi yashab turgan jamiyat va zamonning bir parchasi. Ular davr ta‘siridan qochib keta olishmaydi. Ular real hayot sarhadlariga qadam qo‘ygan va zamonga mos bo‘lishga, o‘zgarishga intilayotgan shaxslar. Biroq bu intilish men, o‘zlik, farzand, oila qadriyatlarini qadrlamaydigan tushunchalar qurshovida qolib ketgan, shaxsning g‘alayoni singaridir. Aslida “inson tabiati, ruhiyati g‘oyat murakkab. Unda nafs, yana ko‘p biz uchun qorong‘i

¹⁶ Гинзбург Л. О психологической прозе. – Ленинград: «Художественная литература», 1976, - 448 с.

¹⁷ Рубинштейн С. Овновы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – С. 13.

¹⁸ Овсянко-Куликовский Д. Вопросы психологии творчества. – СПб.: Издание, 1902. – 301 с.

¹⁹ Шарафиддинов О. Ижодни anglash bahxi. – Toshkent: Sharq, 2004, - Б. 194.

²⁰ Зуннунова С. Сўқмоқлар. www.ziyouz.com. Saida Zunnunova. So‘qmoqlar (qissa).pdf

boshqa haqiqatlar ham bor”²¹. Egamovning intizorlik bilan kutgan farzandi ham unga keyinchalik negadir muhim emasdek. Hayotda faqat ijtimoiy muammolar qurshovida yashayotgan shaxs, oilani unutib qo‘ygandek. Bizningcha, adibaning mana shu o‘ringa keltirgan fikrlariga u darajada qo‘shilib bo‘lmaydi. Asarni o‘qish jarayonida orziqib kutilgan farzand, Nargizning taqdiri onasi Mehri xolaga topshiriladi. Ko‘nglidagi darz ketgan joyni bitib ketishi mana shu o‘rinda o‘zini oqlamagandek. To‘g‘ri, Mehri xola nabirasini jondan ortiq kuradi. Uni ardoqlashga harakat qiladi. Biroq ona va o‘g‘il o‘rtasidagi munosabatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular munosabatidagi sovuqqonlik, albatta boshqalarga ham ta’sir etishi turgan gap. Chunki asarda yozilishicha, Mehri xola bilan Qodirjon rishtalarni tiklashga harakat qiladi. Biroq, ikkalasining hatto gaplashadigan gapi ham mavjud emas. Ular xuddi begona odamlardek asardagi munosabatlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bizningcha qaynona va kelin munosabati ham to‘liq yoritilmagan. To‘g‘ri, Aziza kelinlarga xos bo‘lgan munosabatni olib borishga harakat qiladi. Biroq Mehri xolaning Azizaga bo‘lgan simpatiya yoki antisimpatiyasi haqidagi ma’lumotga duch kelmaymiz. Asarda faqat Mehri xolaning Ra’noga bo‘lgan munosabati aniq ochiqqlangan. Uni xush ko‘rmaydi. Birovning bolasi esa farzand bo‘la olmaydi, degan qat’iy qarori bor. Demak, adiba faqat Mehri xola va Ra’no munosabatini tilga oladi, xolos. Mana shu o‘rinda ham qarashlar faqat bir tomonlama. Ya’ni Ra’noning Mehri xolaga munosabati haqida lom-mim deyilmaydi. Bizningcha, shu bois ham obrazlardagi ruhiy talqinlar to‘liq ochib berilmagan.

Asarda Ra’no obrazi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan obrazdir. U Aziza va Qodirjonning xarakterini ochishga yordam beradi: *“Aziza Tolibning xulq atvori to‘g‘risida Ra’noga gapirib berdi. Ra’noning rangi oqarib ketdi-yu, lekin hech narsa demadi. Bir-ikki kun ma’yus bo‘lib yurdi. Ammo yigit yana telefon qiladigan, bu chiqib ketadigan bo‘ldi. Aftidan, Tolib bu gaplarni tuhmat deb, Ra’noni qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirgan. Aziza qizi bilan qattiqroq, ochiqroq gaplashishni mo‘ljallab yurgan edi, ulgurolmadi. Ra’no studentlar bilan paxtaga ketib qoldi.*

Egamov qizining suratiga qaraganda ana shu gaplar xayolidan bir-bir o‘tdiyu yuragi notinch bo‘lib qoldi. Fursat o‘tmasdan Ra’noga tushuntirish kerak. O‘zining yigitlik sha’nini pulga sotgan, yaxshi bir qiz qadrlashi mumkin bo‘lgan umrining eng go‘zal, shirin onlarini yengil hayotga almashgan, o‘ziga o‘zi hisob berolmagan, o‘zini o‘zi qaytarolmagan, nafratlanishni jirkanishni bilmagan bir kimsa Ra’noga er bo‘ladimi?”²²

Adiba Qodirjonning o‘y-xayollari orqali ijtimoiy qarashlarini berishga muvaffaq bo‘lgan. Aziza tetapoya qilib o‘stirgan qizini har kimga ravo ko‘rmaydigan inson. Tolibning kimligini bilganidan so‘ng esa Ra’noni qattiq siquvga olmasdan, unga yotig‘i bilan tushuntirishni maqsad qiladi. Qodirjon esa Azizadek uzoqni o‘ylaydigan, chuqur mushohada etadigan inson emas. Shu bois ham o‘zining yigitlik sha’nini pulga sotganlarni odam sifatida ko‘rmaydi. Ularni jamiyatning manqurtlari deb biladi. Ayovsiz fosh qilishni oliy maqsadi deb biladi. Bizningcha, mana shu o‘rinda Qodirjonning bu kabi yigitlarga bo‘lgan munosabati faqat Qodirjonga tegishli emas, balki yuqorida ham ta’kid etganimizdek, muallifga ham tegishli.

Saida Zunnunova psixologik holatlarni tasvirlashda noverbal holatlardan ham unumli foydalanadi. Fikrimizga misol: *“Ra’no yerga qaradi. Oyog‘i uchi bilan yerni titkilab, jim qoldi. Egamov Ra’no bilan Tolib haqida hali ochiq gaplashmagan edi. Hozir indamasdan ketolmadi:*

- U yigit kim? Nima qilib o‘tiribdi?

Ra’no javob bermadi.

- Jo‘nat! Tushundingmi? Qadamini uzsini! Men uning basharasini qaytib ko‘rmay! – dedi.

Ra’no yerga qaragancha norozi qiyofada qoshini chimirdi.

Egamov yana gapirmoqchi edi-yu, o‘zii bosdi.

- Bor yupun chiqibsani-ku, shamollaysan! Shu bugunoq qizlarning yoniga chiqib ket, tushundingmi? Keyin uyga xat yoz.

Ra’no javob bermadi. Yerga qaragancha o‘girilib, xayrlashmasdan yotoq tomonga ketdi”²³. Inson tafakkuri, aql-idroki bilan ustundir. Shu xislati bilan borliqni izmiga sola oladi. Tafakkurda tengsiz insonlar mana endi bir-birini anglashga ojiz. Ra’no va Egamov o‘rtasidagi munosabat ham ojizlik qarshisida yolg‘iz qolgan. Adibaning munosabatni anglatish uchun keltirgan tasviridagi noverbal harakat ham mana shu ojizlikning bir ko‘rinishi. Ra’noning yer chizishi, qoshlarining

²¹ Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарк, 2007, - Б. 290.

²² Зуннунова С. Сўқмоқлар. www.ziyouz.com. Saida Zunnunova. So‘qmoqlar (qissa).pdf

²³ Зуннунова С. Сўқмоқлар. www.ziyouz.com. Saida Zunnunova. So‘qmoqlar (qissa).pdf

chimirilishi kabi holatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, itoatkor farzand sifatida bo'y ko'rsatgandek bo'lsa-da, ammo mana shu noverbal harakatlar orqali munosabatlarga isyon deb baholash mumkin bo'ladi. Ayniqsa xayrlashmasdan yotoqxonaga yo'l olishi, bir so'z gapirmasdan jim ketishi shunday xulosa chiqarishimizga olib kelgan omillardandir.

Saida Zunnunova "So'qmoqlar" qissasida qalb jarohatiga sabab bo'lgan fojiiylikni ham kiritadi. Bu fojiiylik Aziza xarakterini, uning ruhiy dunyosini ochishga xizmat qiladi: *"Aziza eshikni yopib chiqib ketdi. U tug'riqxonaning kuz sovug'idan gullari sarg'ayib, so'ligan xiyobonidan ohista borar ekan, ko'z oldiga Manzuraning stoldan o'zini tashlab qochib ketgani, praktikant yigitlarning bezrayib qarab turgani keldi. Bunday voqealar avvallari ham bo'lar edi. Biroq, bemorning noroziligi, janjaliga, yig'isiga quloq solishmas, ba'zi hollarda esa qattiq azobda yotgan bemor ayol dunyoga kelganiga pushaymonlar bo'lib, ko'zini chirt yumganicha laboratoriyaga olib kelingan baqadek hissiz, sharmandalikni bo'yniga olib o'likdek yotardi. Aziza bunday kezlarda juda ezilib ishlardi. Go'yo stolda bemor emas, o'zi yotgandek praktikant yigitlarning yuzlariga qaray olmas, biroq tishini-tishiga qo'yar, indamas edi. Nimagadir bu gal chidab turolmadi. Balki, qalbidan kechgan o'sha hislar, bosh vrach aytganidek, isyonga boshladimi?! Aziza chuqur bir hursinib qo'yib, xayol changalidan o'zini qutqarmoqchiday, boshini bir silkitdi-da, tez-tez yurib ketdi"*. Avvalo, Saida Zunnunova tug'riqxona, tug'riq jarayonini chuqur o'rgangan. Qissada bu jarayon bilan bog'liq og'riqli nuqtalarini olib kiradi. Aziza juda matonatli, mehnatkash ayol. U nohaqlikka chidab tura olmaydi.

Adabiyotshunos A.Sabirdinov "Ma'naviyat va ma'rifat chashmalari" asarida ta'kid etganlaridek, ulug' ijodkorlarning yetuk asarlari, avvalo, ularning o'z ijodiga bo'lgan talabchanligi tufayli yuzaga kelgan²⁴. Sharq ayollaridagi bu kabi ulug'vor tuyg'ularni oyoq osti qilishga hech kimning haqqi yo'q. Asarda esa ayol kishining eng qimmatli xazinasini sharm-xayosi, iffati, ibosida ekanligi xulosa sifatida, nafaqat xulosa, balki qat'iy qonun bo'lib jaranglaydi. Saida Zunnunova o'zining qarashlarini haq ekanligi isbotlash uchun tarixga ham murojaat etadi. Tarix sahifalari esa Nodirabegimning so'nggi daqiqalari bilan bog'liq voqelikda zuhur topgan.

Saida Zunnunova qissa va hikoyalari (lirikada ijod etgan, mahorat ko'rsata olgan bo'lsa-da) lirik monologlardan ichki kechinmalarni yoritish uchun umuman foydalanmaydi, balki noverbal vositani old fonga chiqaradi. Tasavvurimizdagi juda oddiy noverbal ko'rinishlardan o'ziga xos fazilat yasay oladi. Bizningcha, ijodkor oddiylikdan murakkablikka va murakkablikdan buyuk soddalikka tomon tinimsiz intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гинзбург Л. О психологической прозе. – Ленинград: «Художественная литература», 1976, - 448 с.
2. Зуннунова С. Сўқмоқлар. www.ziyouz.com. [Saida Zunnunova. So'qmoqlar \(qissa\).pdf](#).
3. Рубинштейн С. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – С. 13.
4. Овсянко-Куликовский Д. Вопросы психологии творчества. – СПб.: Издание, 1902. – 301 с.
5. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007, - Б. 290.
6. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Академнашр, 2016,- Б. 64.
7. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004, - Б. 194.
8. Халова, М. А. (2021). Istiqlol davri she'riyatida ayollar obrazi. Международный журнал искусство слова, 4(2).
9. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Академнашр, 2016,- Б. 64.

²⁴ Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Академнашр, 2016,- Б. 64.

ОБ ИЗУЧЕНИИ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕПОЧЕК ИМЁН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В РУССКОМ И УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКАХ

И.Т. Бабакулов, д.ф.н., профессор УФ СамГУ имени Ш.Рашидова
Бобокулова С.А., Пулатова Л.Б., Умрзакова М.И., студентки УФ СамГУ имени
Ш.Рашидова

Аннотация

В данной статье рассматриваются словообразовательные цепочки в русском и узбекском языках. По наблюдением автора, словообразовательная цепь минимально состоит из одной словообразовательной пары, максимально – из 7 пар.

Ключевые слова: синтагматическая единица, словообразовательная цепь, ступени словообразования, лексические цепи, семантические соотносительности, смысловые связи.

В процессе словообразования новые слова возникают как производные, вне зависимости от того, какой была производящая основа: не произведённой или произведённой. Как отмечает А.Н. Тихонов к непроизводным относятся слова которые не образованные от других слов. Не производными являются также слова с связанным корнем хотя они кроме корня в составе основной вычленяют полноценные словообразовательные аффиксы. К производному относятся слова, образованные от других слов. Как важнейшая синтагматическая единица в структуре гнезда, словообразовательная цепь характеризуется сложными формальными и смысловыми отношениями слов, представляющих все её звенья.

Очень разнообразны словообразовательные цепи по своему строению. Ограничение на структурное разнообразие словообразовательных цепей накладывает возможное количество звеньев: словообразовательная цепь минимально состоит из одной словообразовательной пары, максимально – из 7 пар. Седьмым звеном исчерпываются словообразовательные возможности русского языка на синтагматической оси.

Цепи из 7 звеньев встречаются редко для русского языка наиболее характерны цепи из 3-4 звеньев.

Разная последовательность частей речи и их комбинация в словообразовательных цепочках – это и разная последовательность, разные комбинации смыслов в них.

Слова всех звеньев словообразовательной цепи чаще всего сохраняют ясные лексические связи.

Обычно не все значения исходного слова передаются по цепи. У производных слов, относящихся к различным ступеням словообразования, развиваются свои значения, которые также могут передаваться дальше по словообразовательной цепи.

Появление у производных слов различных ступеней словообразования значений, отсутствующих у слов, относящихся к предыдущим ступеням, иногда ведёт к ослаблению смысловых связей между звеньями. Нередко это приводит к потере прямой семантической соотносительности или к семантической декорреляции таких производных с исходным словом и со словами предшествующих звеньев словообразовательной цепи.

В современном русском языке смысловые связи между членами таких пар настолько слабо выражены, что может возникнуть сомнение в наличии у них родственных отношений. Однако при внимательном рассмотрении между ними обнаруживаются вполне реальные, синхронно связи.

В роли исходных выступают слова большинства частей речи. В конечном его звеньев образуются слова основных частей речи. В средних звеньях встречаются также слова всех основных частей речи и их разнообразные последовательности. Слова всех звеньев словообразовательной цепи чаще всего сохраняет ясные лексические связи. Возникают

словообразовательные цепочки имён существительных, в начале которых находится слово с не производённой основой. В русском и узбекском языках часто встречаются цепи из 8, 9, 10, 11, 12 звеньев, например:





Таким образом, в русском и узбекском языках часто встречаются цепи из 6,7,8, 9, 10, 11, 12 звеньев. В словообразовании изучаются как комплексные типы отношений, только формальные или только семантические, которые существуют между парами слов, между непосредственно производящим и производным, так и целые ряды однокоренных слов, связанных отношениями последовательной мотивации. Такие ряды называют словообразовательными цепочками.

Литературы:

1. А. Н. Тихонов. Словообразовательный словарь русского языка. В двух томах. М. Наука. 1980.
2. Е. А. Земская. Современный русский язык Словообразование. М.Наука. 2011.
3. В. Н. Немченко. Современный русский язык Словообразование. М. Высшая школа. 1984.
4. А. Ф. Пантелеев. И. В. Ковтуненко. Современный русский язык Словообразование. М. Риор. 2024.
5. Т. А. Гридина. Н. И. Коновалова. Словообразование. Теория, алгоритмы анализа, тренинг.
6. Реформатский. А. А. Введение в языковедение. -М: Аспект Пресс, 2004. -536 с.

РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ В УЛУЧШЕНИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Самадов Миршод, кандидат пед. наук,

Таджикский пед. институт в городе Пенджикент,

В современном мире, где развитие информационных технологий и сидячий образ жизни становятся все более распространенными, вопрос физического здоровья подрастающего поколения и его влияния на учебную деятельность является одним из важнейших. Многочисленные исследования показывают, что регулярная физическая активность не только способствует физическому развитию учащихся, но и оказывает положительное влияние на их умственную деятельность и успеваемость.

Одним из основных путей воздействия физической активности на учебную деятельность является улучшение кровообращения в головном мозге. Во время физических упражнений сердце работает активнее и переносит кровь, обогащенную кислородом и питательными веществами, ко всем органам, включая головной мозг. Это хорошее кровоснабжение способствует активности нейронов, улучшая способность к восприятию информации, концентрацию и память.

Кроме того, физическая активность способствует выработке важных нейротрансмиттеров, таких как дофамин и серотонин, которые отвечают за регуляцию настроения, мотивации и внимания. Учащиеся, которые регулярно занимаются физическими упражнениями, реже подвержены стрессу, тревожности и депрессии, которые негативно влияют на учебную деятельность.

Физические упражнения также могут способствовать развитию важных когнитивных навыков, таких как планирование, организация и решение проблем. Командные виды спорта и подвижные игры побуждают учащихся к сотрудничеству, общению и быстрому принятию решений в различных ситуациях, что также важно в процессе обучения.

Исследования показывают, что учащиеся, которые активно участвуют в уроках физической культуры и занимаются различными видами спорта вне школы, демонстрируют лучшие показатели и по другим предметам. Они обладают большей способностью к концентрации, усвоению учебного материала и успеху на экзаменах.

Несмотря на это, во многих школах время, отведенное на уроки физической культуры, недостаточно, а ее значение иногда недооценивается. Родители также не всегда стимулируют своих детей к занятиям физической активностью. В то же время обеспечение благоприятных условий для регулярной физической активности учащихся является важной задачей образовательных учреждений, семей и общества в целом.

Для улучшения учебной деятельности учащихся рекомендуется:

- **Увеличить время, отведенное на уроки физической культуры** в учебной программе.
- **Внедрять разнообразные программы физической активности**, соответствующие интересам и способностям учащихся.
- **Обеспечить благоприятные условия** (спортивные площадки, необходимое оборудование) для занятий физической культурой в школах.
- **Стимулировать учащихся** к участию в спортивных секциях и соревнованиях.
- **Проводить разъяснительную работу** с родителями о важности физической активности для всестороннего развития детей.
- **Интегрировать двигательные элементы** в уроки других предметов для повышения активности учащихся.

В заключение следует отметить, что физическая активность является важной составляющей здорового образа жизни и успешного развития учащихся. Инвестиции в физическое воспитание подрастающего поколения являются инвестициями в их светлое будущее и общество в целом.

Литература

1. **Зациорский, В. М.** (2009). Физическая культура и умственная работоспособность школьников. *Теория и практика физической культуры*, (7), 2-6.
2. **Лях, В. И.** (2006). Физическая культура и интеллектуальное развитие детей школьного возраста. *Физическая культура в школе*, (2), 7-11.
3. **Семенова, Г. И.** (2012). Влияние занятий физической культурой на когнитивные функции младших школьников. *Начальная школа*, (5), 34-37.
4. **Сидоров, К. Р.** (2015). Физическая активность как средство повышения учебной мотивации подростков. *Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Естественные науки*, (3), 45-52.
5. **Иванова, Н. В., & Петрова, О. П.** (2018). Взаимосвязь двигательной активности и академической успеваемости студентов. *Современные проблемы науки и образования*, (2), 156.
6. **Мартиросова, Т. А., & Николаева, Е. В.** (2019). Влияние различных видов физической активности на когнитивные способности старшеклассников. *Педагогика и психология образования*, (4), 87-99.
7. **Смирнов, И. П.** (2007). Физическая культура как фактор оптимизации интеллектуальной деятельности учащихся. *Стандарты второго поколения*, 120-135.
8. **Фомин, Н. А.** (2005). Физиология человека. Учебник для институтов физической культуры. (Разделы, касающиеся влияния физической нагрузки на ЦНС и когнитивные функции).

IKKINCHI JAHON URUSHINING O'ZBEK VA ISPAN ADABIYOTIGA TA'SIRI

Tursunkulov Sanjar Dilmurod o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ispan va italyan filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbek adabiyotida front va urushda qatnashgan insonlar haqidagi asarlar ko'paydi desak adashmagan bo'lamiz. Urushdagi qahramonlikni tasvirlash, faqat jangovar ruhni emas, balki insoniylikni ham ulug'lashga e'tibor qaratildi. O'zbek adabiyotining bu davrida O'tgan kunlar va Qutadgu bilig kabi asarlar muhim o'rin tutdi. 20-asrda ispan adabiyoti va o'zbek adabiyoti o'ziga xos rivojlanish bosqichlaridan o'tgan va har biri o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlariga ta'sir qilgan.

Ispaniya va O'zbekistonning 20-asr adabiyoti o'zaro turlicha rivojlanib, o'ziga xos xarakterga ega bo'ldi. Ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. 20-asrning boshlarida ispan adabiyotida modernizm va avangardizm boshqaruvchi uslublar bo'ldi. Bu davrda ispan adabiyotida tasviriy va tajriba qilishga oid yangiliklar kuzatildi. Avangardizm, masalan, Luis Buñuel va Salvador Dalí kabi san'atkorlar tomonidan yangi estetik uslublar yaratildi.

Ispaniya fuqarolik urushi (1936-1939) va undan keyingi diktatura davri ispan adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Urush va diktaturaning vahshiyliklari, insonning erkinligi va iztiroblari haqida ko'plab asarlar yozildi. Ispan adabiyotida urush va uning oqibatlariga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratildi, eng mashhurlari orasida Miguel de Unamuno, Antonio Machado, Federico García Lorca, va Camilio José Celaning asarlari bor.

20-asrning 1920-1930-yillarida "Generatsiya 27" deb nomlangan adabiy oqim shakllandi. Bu oqimda ispan adabiyotining eng mashhur shoirlari, yozuvchilari va dramaturglaridan biri bo'lgan Federico García Lorca, Luis Cernuda, Rafael Alberti va Vicente Aleixandre bor edi. Ularning asarlari, ayniqsa, ijtimoiy va siyosiy tazyiqlarni, insoniyatning murakkab his-tuyg'ularini tasvirlashga qaratilgan.

Post-fuqarolik urushi adabiyoti:

Fuqarolik urushidan keyin, Ispaniyada diktator Francisco Franco rejimi o'rnatildi, bu davrda adabiyotni tsenzura qilish va ideologik bosimlar hukmron edi. Shu bilan birga, Camilio José Cela, Ana María Matute, va Luis Martín-Santos kabi yozuvchilar 20-asrning oxirida realistik va psixologik adabiyot yaratdilar, bu esa Ispaniyaning siyosiy va ijtimoiy vaziyatini aks ettirdi.

O'zbek adabiyotining 20-asr boshlaridagi rivojlanishiga jadidchilik harakati katta ta'sir ko'rsatdi. Jadidlar o'z asarlarida xalqni ma'rifatli, zamonaviy va ilm-fanga asoslangan jamiyatga chaqirishgan. Ular ta'limni rivojlantirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va o'zbek xalqining madaniyatini yangilashga intilishgan. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Muhammad Amin, va Abdurauf Fitrat kabi adiblar jadidchilik harakatining muhim vakillaridir.

Sovet davrida, 20-asrning 30-40 yillaridan boshlab, O'zbek adabiyoti sotsrealizm uslubida rivojlandi. Bu davrda asarlarning asosiy maqsadi mehnat insonini ulug'lash va Sovet tizimini madh qilish edi. Biroq, bu davrda Cholpon, Fitrat, A'zam Asrori, va Abdulla Qodiriy kabi adiblar zamonaviylikni ko'rsatgan va xalqni yangiliklarga chaqirgan asarlar yaratishgan.

O'zbek adabiyotida 20-asrda xalq adabiyotining o'rni ham katta bo'ldi. Shu davrda xalq og'zaki ijodini, maqol-mazmunlarni, dostonlarni va afsonalarni yozma shaklda yig'ish va ularni saqlashga e'tibor qaratildi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy kabi adiblar milliy adabiyotning yangi shakllarini yaratishda muhim rol o'ynadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbek adabiyotida front va urushda qatnashgan insonlar

haqidagi asarlar ko‘paydi. Urushdagi qahramonlikni tasvirlash, faqat jangovar ruhni emas, balki insoniylikni ham ulug‘lashga e‘tibor qaratildi. O‘zbek adabiyotining bu davrida O‘tgan kunlar va Qutadgu bilig kabi asarlar muhim o‘rin tutdi.

Ispaniya va O‘zbekistonda ham milliy o‘zlikni anglash va xalq adabiyotini saqlashga qaratilgan sa’y-harakatlar mavjud edi. Ispan adabiyotida bu avangardizm va postmodernizm orqali amalga oshirildi, O‘zbekistonda esa jadidchilik va mustaqillik davrida milliy qadriyatlarni tiklashga alohida e‘tibor berildi.

Xulosa

20-asr ispan va o‘zbek adabiyotlari o‘ziga xos siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarda rivojlanib, zamonning o‘zgaruvchan talablariga javob berishga intildi. Ispaniya va O‘zbekistonning har bir adabiyoti o‘z xalqining tarixiy sharoitlari, madaniy merosi va siyosiy holati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning asarlari turli shakllarda milliy o‘zlikni va insoniyatning umumiy qadriyatlarini tasvirlashga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, A. (1980). O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
2. Shoislomov, Sh. (1997). Jadidchilik harakati va uning ma’naviy merosi. Toshkent: Ma’naviyat.
3. G‘afurov, B. (2005). O‘zbek adabiyotida urush mavzusi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
4. Jurayeva, Z. (2010). Sovet davri o‘zbek adabiyotida sotsrealizm uslubi. Toshkent: Ilm Ziya.
5. Crow, J. A. (1985). Spain: The Root and the Flower – An Interpretation of Spain and the Spanish People. University of California Press.
6. Debicki, A. (1994). Spanish Poetry of the Twentieth Century: Modernity and Beyond. University Press of Kentucky.
7. Labanyi, J. (2010). Spanish Literature: A Very Short Introduction. Oxford University Press.
8. Graham-Luján, J., & O’Connell, R. L. (Eds.). (1976). Blood Wedding and Yerma by Federico García Lorca. New Directions Publishing.
9. Cela, C. J. (1984). The Family of Pascual Duarte. Trans. Anthony Kerrigan. New York: New Directions.
10. Matute, A. M. (1998). The Forgotten King Gudú. Trans. Robert Nugent. New York: Hyperion.

EFFECTIVE WAYS TO TEACH WRITING AN ESSAY

Aminjanova Mekhriniso Adiljanovna
teacher at SamSIFL,
Adilova Santalat Zufar kizi
1st-year student

Introduction

It's widely acknowledged that teaching essay writing to students particularly beginners requires a structured, supportive method that demystifies the process and builds confidence. Educators first model each component of essay writing, then offer guided practice with clear examples, followed by opportunities for independent composition. Vital strategy begins with understanding the parts of an essay introduction, body paragraphs, and conclusion and emphasizes outlining, thesis development, paragraph cohesion, and revision.

Before beginning this method, Students need to be explained the purpose of essays: to present a clear argument or perspective supported by evidence. And also explaining the standard structure and the logical flow from introduction to conclusion.[1] The essay is a written composition giving expression to one's own personal ideas or opinions on some topic; but the term usually covers also any written composition, whether it expresses personal opinions, or gives information on any given subject, or details of a narrative or description. As for the characteristics of essay-writing, A good essay must contain the following characteristics: Unity, order, brevity, style, personal touch. An essay must be a unity, treating in an orderly manner of one subject; it should be concisely written and not too long, and the style should be simple, direct and clear; and it should have an individuality, or show the personal touch of the writer.

Main body

How to write an effective essay?

- Every essay has a beginning, a middle and an end. In a 5 paragraph essay, the first paragraph is called the introduction. The next three paragraphs consist of the body of the essay. The fifth and final paragraph is the conclusion.[2]

Parts of an Essay

1. Introduction

The introduction paragraph is the first paragraph of your essay. Here you show the main idea of your essay. It must be interesting reader and must say why your topic is important. First of all, write the thesis. The main idea of the essay is stated in a single sentence called the thesis statement. Provide some background information about your topic. You can use interesting facts that you will use later in the essay. Connecting the topic to a current event, trend, or cultural moment makes the introduction relevant and urgent. This grounds the essay in the present and emphasizes its significance. Apart from that, explaining a central term or idea with a fresh perspective adds clarity and shows the writer's unique voice.[3] This approach is especially effective in analytical or reflective essays.

Thesis statement. A very basic thesis statement is one or two sentences at the end of the first paragraph that tells the reader the main idea of the essay. A thesis statement should do these three things: It should clearly express what the essay is about. It should make a discussible point. It should indicate the structure of the essay. As an example, instead of writing "Technology is bad," a stronger thesis might be "While technology enhances communication, it also undermines deep interpersonal connections by encouraging superficial interactions." Students can practice turning general ideas into sharp thesis statements through peer feedback or sentence-starter exercises.

Developing Body Paragraphs with Topic Sentences

Each body paragraph should begin with a clear topic sentence that supports the thesis. Each paragraph in the body of the essay contains the following sentences:

2. TOPIC SENTENCE: This sentence tells the reader what the paragraph is going to be about.

3.DETAIL SENTENCE: Your paragraph can have many detail sentences. The detail sentence tells your reader a little more about your topic. Each detail sentence must include an EXAMPLE.

4.CONCLUDING/TRANSITIONAL SENTENCE: This sentence wraps up what you have already told the readers and gets them ready for the next paragraph. There is a detailed explanation of how to develop strong body paragraphs with effective topic sentences a cornerstone of well-structured essays.[4]

Body paragraphs are the core of an essay, where the main ideas are developed, supported, and explained. Each paragraph should focus on one clear point that supports the thesis. Moreover, there are key elements of a body paragraph.

2. Topic Sentence: A topic sentence is the first sentence of a body paragraph. It serves as a mini-thesis for that paragraph, outlining the main idea the paragraph will discuss. For instance:

1. One compelling aspect of this issue is that...
2. Significantly, it must be acknowledged that...
3. Complementing this viewpoint is the idea that...
4. While this may be true, it is also critical to consider that...

2.1. Supporting Evidence or Examples

This may include: statistics, facts, quotations, real-life examples, research findings. As an example:

1. Studies show that over 70% of teenagers use social media daily.
2. According to the World Health Organization, air pollution causes millions of deaths each year.
3. If students don't get enough sleep, they can't focus in class.
4. Research shows a clear link between physical activity and mental health.[5]

2.2. Explanation or Analysis

These expressions clarify the "why" and "how" of our points, ensuring our ideas are critically examined and well-connected.

1. Its significance becomes clearer when one considers...
2. As a consequence, we begin to observe...
3. From a critical perspective, this can be seen as...
4. This analysis opens up further questions regarding...

2.3. Transition or Link to Next Idea

These expressions elevate the flow, coherence, and sophistication of our writing—ideal for university-level academic essays, research papers, and analytical texts.

1. Nevertheless, this view does not fully capture...
2. Having addressed this aspect, the discussion naturally turns to...
3. As a consequence of this, we must also consider...
4. In addition to the previous argument, there is also...

3. Detail sentences

Detail sentences form the foundation of well-developed body paragraphs in essay writing. While topic sentences introduce the central idea, detail sentences elaborate, explain, and provide the proof that makes the argument persuasive and coherent. In both academic and creative essays, mastering detail sentences allows writers to connect claims with clarity and depth, elevating their work from simplistic assertions to nuanced analysis. Detail sentences serve multiple functions:

1. Supporting the main idea presented in the topic sentence.
2. Providing evidence such as facts, statistics, examples, or anecdotes.
3. Explaining or analyzing how the evidence proves or enhances the argument.
4. Connecting ideas smoothly, ensuring logical progression and coherence within the paragraph.

Without strong detail sentences, body paragraphs risk becoming vague or unconvincing.[6]

4. Conclusion

This part contains the conclusions or findings. Proves that the theme announced at the beginning of the essay is fully disclosed. Necessarily express your personal opinion about the work done. The concluding paragraph typically has two parts:

1. The summary statement is one or two sentences which restate the thesis in a fresh way to

reinforce the essay's main idea.

2. The clincher is a final thought which should create a lasting impression on the reader. It is also referred to as the closer, is our last opportunity to connect with the reader.

5. Revision

Revision is actually something a good writer does throughout the writing process. Revision does not mean "recopying" what we've already written. Revision means making changes to the content of the paper so that every word, sentence, and paragraph makes sense to the reader. Three areas in particular to examine as we consider how to improve the content and style of your essay are as follows:

- Clarity: Is the essay clearly and logically written?
- Unity: Do all the paragraphs relate to the central idea?
- Coherence: Do the ideas flow smoothly?[7]

Conclusion

When students connect personally with their writing, their motivation and performance improve. Meaningful topics transform essay writing into a vehicle for exploration, expression, and empowerment. Teachers who create space for voice and relevance inspire lifelong writers. Mastering essay structure empowers students to write clearly and effectively across subjects. When structure becomes second nature, students focus more on ideas and less on form. Consistent practice, targeted feedback, and teacher modeling can transform hesitant writers into confident communicators.[8]

By breaking the process into manageable steps and offering guided support at each stage, educators foster a deeper understanding of essay construction. As students move through the stages of brainstorming, outlining, drafting, and revising, they develop both the skills and mindset necessary for academic and personal writing success.

References

1. "Essay writing skills with reading" John Langan, Sharon Winstanley [20 page]
2. Essay writing for english written by Gabi Duigu [35 page]
3. Cusit joirals "Effective strategies for improving essay writing skills"[15 page]
4. Scoir <https://www.scoir.com>
5. Al Essay Grader for Teachers <https://www.essaygrader.ai>
6. Guided writing in the teaching to write an essay
7. <http://www.slideshare.net/guestb9454e5/how-to->
8. <http://www.slideshare.net/guestb9454e5/how-to- write-a-good-essay>

TILSHUNOSLIKDA UYUSHIQ BO'LAKLARNING O'RGANILISHI

Rustamov Mirjalol Azamat o'g'li,

SamDCHTI, O'zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrası o'qituvchisi,
mirjalolrustamov280@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar tahlil qilingan. Bundan tashqari murakkablashgan sodda gaplarni yuzaga uyushiq bo'laklarning tilshunoslikda o'rganilishi va o'ziga xos xususiyatlari xususida bahs-munozaralar yuritilgan.

Kalit so'zlar: uyushiq bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh va ravishdosh o'ramlar, harakat nomli tizimlar.

Har bir tilning ma'lum sathini tadqiq etishda uning o'rganilish tarixiga ham nazar tashlanadi. Tarixiylik va zamonaviylik bir-biriga bog'liq holda rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Jumladan, sodda gaplarni murakkablashtiruvchi sintaktik sath birliklari-undalmalar, uyushiq bo'laklar, ajratilgan izoh bo'laklar, kirish va kiritmalar ham o'rganilish, tadqiq etish tarixiga egadir. Quyida ularning o'rganilish tarixiga to'xtalamiz.

Bir xil sintaktik qiymatga ega bo'lgan va ular gapning boshqa bir bo'lagiga tegishli bo'lib, shu bo'lakka nisbatan birday sintaktik munosabatda bo'lgan birdan ortiq gap bo'laklari uyushiq bo'laklar sanaladi.

"Gapning uyushiq bo'laklari", "uyushiq bo'lakli gaplar", "murakkab gaplar", "uyushiq qurilmalar" kabi atamalar sifatida nomlanib kelinayotgan bu sintaktik birliklarning qo'llanilishini qadim davrlar yozma manbaalarida ham uchratishimiz mumkin. Xususan, XI asr yozma yodgorligi bo'lgan "Devonu lug'atit turk"da uyushiq bo'laklar fikrni ta'sirchan ifodalash vositasi sifatida qo'llanilgan:

Qush, qurt qamug' tirildi,

Erlik tishi terildi.

O'kur olib tarildi

Yinqa yana kirgusuz (M.Qoshg'ariy "Devoni lug'atit turk").

Asarda qo'llanilgan qush, qurt,erlik,tishi so'zlari uyushiq ega bo'lib, sanash ohangi bilan aytilmoqda.

Uyushiq bo'laklarning qo'llanilishi qadim davrlarga borib taqalsa, ularning tilshunoslikda tadqiq etila boshlanganligi XX asrning 30-40-yillariga to'g'ri keladi. G.D.Sanjeev „Qalmoq tili grammatikasi" nomli asarida asosan uyushgan kesimlar haqida fikr yuritadi, shuningdek, to'ldiruvchilarning uyushishi ustida bir oz to'xtaydi. Muallif uyushgan to'ldiruvchilarning juft so'zlardan bo'lishini, ular sinonimik va bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlar orqali ifodalanishini ko'rsatib o'tadi, lekin aniqlovchi va hollarning uyushishi to'g'risida hech narsa demaydi.

N.P.Direnkova „Shor tili grammatikasi" asarida uyushgan bo'laklar va ularning bog'lovchi vositalar yordamida birikishi haqidagi mulohazalarini yoritib beradi.

Prof. A.N.Kononov o'zbek va turk tillariga oid grammatikalarida uyushgan bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni alohida-alohida bayon etadi. Olimning ta'kidicha, morfologik ko'rsatkichlar orqali uyushiq bo'laklarning ifodalanishi 2 xil yo'l orqali amalga oshiriladi: 1) morfologik ko'rsatkich uyushiq bo'lakning har bir a'zosiga alohida-alohida qo'shiladi; 2) bu ko'rsatkich uyushiq bo'lakning faqat oxirgi a'zosiga qo'shiladi. A.N.Kononovning tadqiq ishidan shu narsa oydinlashadiki, morfologik ko'rsatkich uyushiq bo'lakli gapning har bir a'zosi tarkibida kelishida mantiqiy urg'u asosiy rol' bajarsa, ikkinchi holatda esa o'xshash sub'ekt va ob'ektlar orasidan mantiqan tanlanmagan uyushiq bo'lakli gap a'zolari uchun ishlatiladi. Muallif turk tili grammatikasiga oid asarida mazkur tildagi uyushiq bo'laklarning ifodalanishi, ularning bog'lovchi vositalar bilan qo'llanishi hamda ayrim xususiyatlari haqida mulohaza yuritadi.

Prof. M.B.Balakaev qozoq tilining sodda gap sintaksisiga oid asarida gapning uyushiq bo'laklari to'g'risida ancha keng ma'lumot beradi. Muallif uyushiq bo'laklarning tiplari, ularning shakllanishi, yoyiq va yig'iq bo'lib kelishlari, bog'lovchi vositalar bilan qo'llanishi kabi masalalarni alohida yoritadi.

D.Mayrikov ham qirg'iz tilidagi uyushiq bo'laklarni maxsus tadqiq etib, ularning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini ancha batafsil ochib berdi.

Ma'lumki, Fitratning "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Nahv" kitobi o'zbek

tilshunosligi tarixidagi muhim manbaa hisoblanadi. Hali o'zbek tili sintaksisi to'lig'icha rivojlanmagan, ayrim sintaktik atamalar tizimi izga solinmagan davrda Fitratning ushbu darsligi o'zbek tilshunosligi tarixida katta yangilik bo'ldi. Bu darslik 1925-1930 yillar davomida uch marta nashr etildi. Uning 1930 yilda nashr etilgan varianti nisbatan mukammal bo'lib, "gapning uyushg'on bo'laklari yoki qisqacha uyushmalar" atamaları bilan nomlangan uyushiq bo'laklar dastlab Fitratning shu asarida keltiriladi. Shuningdek, aniqlov va sifat uyushmalarida qaratqich va sifatlarning birdan ortiq kelishi ta'kidlanadi. "Til saboqlig'i" va "Nahv" asarlaridagi uyushiq bo'laklarga oid fikrlar hozirgi davrga nisbatan ancha sodda bo'lsa ham, lekin tilshunoslik uchun muhim ilmiy qarashlardan hisoblanadi.

N. Said va A. Yo'ldoshevlarning „Grammatika“ sida uyushiq bo'lakli gaplar „Uyushiq muchalli gaplar“ deb atalgan va bu bob birmuncha keng yoritilgan. Ular ham ba'zi tilshunos olimlar singari uyushiq hollarni uyushiq to'ldiruvchilarga kiritgan.

“Sovremenniy uzbekskiy yazik“ asari muallifi, tilshunos olim V.V. Reshetov uyushiq bo'lakli gaplarning tarkib jihatidan sodda yoyiq H.Xoliqov yozuvchi Abdulla Qahhor asarlari misolida murakkablashgan sodda gaplar uslubiyatini tadqiq etish jarayonida uyushiq bo'laklarning uslubiy xususiyatlarini alohida planda o'rgangan.

Badiiy uslub faqat zamonaviy yoki tarixiy asarlarga oid bo'lmasdan, xalq og'zaki ijodi namunalari ham shu uslubda yaratiladi. Ertaklarga ma'lum xalqning og'zaki ijodi namunasi sifatida ta'rif berilar ekan, ularning mazmunini yoritish til birliklari vositasida amalga oshiriladi. Yuqorida uyushiq bo'laklarda harakat dinamikligini amalga oshiruvchi xususiyat borligini ta'kidlagan edik. Ertaklarda voqea-hodisalar albatta xatti-harakat orqali ifodalanadi. Shu jihatdan o'zbek xalq ertaklaridagi aniqlovchilarni maxsus tadqiq etgan N.Dosanov bu bo'laklarning uyushiq holda qo'llanilishiga ham e'tiborni qaratadi. Uning fikricha, uyushiq bo'laklar fikrni aniq, to'liq, obrazli ifodalab, nutqqa ifodalilik, emotsionallik va ko'tarinkilik berish uchun xizmat qiladi. Bular ayniqsa, ertak tili uchun juda zarur xususiyat ekanligini ta'kidlaydi.

Tilshunoslik ijtimoiy fan sifatida o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Sababi bu kabi fanlarda ma'lum fikr, masala doirasida qat'iylik va turg'unlikni uchratishimiz qiyin. Bir mavzu doirasidagi fikr va mushohadalar vaqtga va qarashlarga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Jumladan, e'tiborimizni qaratayotgan uyushiq bo'laklar to'g'risidagi fikr va mulohazalar ham bir xillikni tashkil etmaydi. Tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida "uyushiq bo'laklar" atamasining noo'rin qo'llanishi haqidagi qarashlar ham yuzaga kelgan. Ma'lumki, uyushiq bo'laklar o'zaro teng aloqa munosabatiga asoslanuvchi, ikki va undan ortiq gap bo'laklarining bir xil sintaktik vazifani bajaruvchi, shuningdek, so'rog'i ham bir xil bo'lgan til sathi birligidir. Sh.Rahmatullaev fikricha, "uyushiq qator hosil etuvchi ikki va undan ortiq a'zo (leksemashakl, birikmashakl) bir butun holda bitta sintaktik bo'lak vazifasida keladi, shunga ko'ra uyushiq qator bilan ifodalangan ega, sifatlovchi va h.k. haqida gapirish to'g'ri, "uyushiq bo'laklar" terminini ishlatish noo'rin, chunki –lar affiksi "bir necha bo'lak" tushunchasini beradi, vaholanki sintaktik bo'lak bitta, faqat u uyushiq qator bilan ifodalangan".

An'anaviy tilshunoslikning sintaksis bo'limida o'rganilayotgan ega tarkibi va kesim tarkibi, rema va tema kabi ilmiy atamalar har qanday gap uchun aloqadordir. Bu aloqadorlikka binoan so'z va gaplar mazmunan hamda shaklan kengayadi. Tilshunos Yo.Tojiev mana shu jarayonga e'tiborini qaratgan holda sodda gapdagi tema va rema qismlarining kengayishidan murakkablashgan sodda gapning hosil bo'lishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, sodda gapning murakkablashgan sodda gapga aylanishini belgilovchi aniq bir o'lchov, me'yor yoki qandaydir aniq chegara, tamoyil yo'q. Barcha murakkablashishlar tema va remaning kengayishi va izohlanishi natijasida yuzaga kelishini aytadi... Murakkablashgan sodda gaplarning barcha asosiy andozalarini belgilab chiqish esa gap tema va rema qismlarini belgilovchi ega va kesimning kengayishi imkoniyatlari va qonuniyatlarini belgilashdan boshlanadi.

O'zbek tilshunosligida sodda gaplarning murakkablashuvini "sintaktik shakl kengayishi" deb ataluvchi fikr ilmiy fakt sifatida o'z isbotini topayotganini yuqorida aytgan edik. R.Samandarov ham gap shaklining sintaktik murakkablashuvi kirish so'z va birikmalar, undalmalar va kiritma qurilmalar orqali ro'y berishi mumkinligi, mazkur vositalarning gap tarkibiga kiritilishi uchun pragmatik voqelik tomonidan ehtiyoj sezilishi lozimligi haqida o'z fikrini bayon etgan. Olimning qayd etishicha, mazkur vositalarning sintaktik faolligi applikativ model doirasida ro'y bermaydi. Zotan, ular gap tarkibida qatnashayotgan so'zlar bilan to'g'ridan-to'g'ri sintagmatik munosabat tashkil eta olmaydi.

O'zbek tilshunosligida sodda gap va uning transformalarini hosil qilish haqidagi nazariyalar ilgari surilgan ilmiy tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Xususan, Sh.A.Alievaning ilmiy tadqiqotida ikkinchi darajali bo'laklar, undalmalar, ajratilgan bo'laklar, kirish va kiritmalar kabi kengaytiruvchi sintaktik qurilmalarning sodda gap transformalarini hosil qilishi asoslangan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, uyushiq bo'laklar tilshunoslikda ma'lum darajada o'rganilgan va o'rganilmoqda. Tilshunos olimlarni qiziqtirayotgan mavzu bo'lgani uchun ushbu sintaktik birlik to'g'risida bahsli fikr va mulohazalar ham bo'lmoqda. Muayyan mavzu atrofidagi bahslar esa har doim qiziqarli va salmoqli ilmiy yangiliklar yaratilishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. Т. : Фан, 1976, 208б.
2. Ғуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўқитувчи, 1987, 140 б.
3. Абдурахмонов. Ўзбек тили грамматикаси. Т.: ўқитувчи, 1996, 47 б
4. Н. Маҳмудов, А. Нурмонов. ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т. : 1995, 97 б.
5. Б. Ўринбоев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Самарқанд, 2006, 120 б.
6. Фитрат А. Танланган асарлар. Наҳв. (IV жилд) –Тошкент: Маънавият, 2006. –Б. 197-200.
7. Ғуломов А. Содда гап. –Тошкент: ЎзФА, 1955. –Б. 92-97.
8. Ашурова Д. , Убаева Ф. , Болтабоева Ҳ. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари. – Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1962. – Б. 179.
9. Холиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилида мураккаблашган содда гаплар услубияти (А. Қаҳҳор асарлари материаллари асосида). Филол. фанлари номзоди. . . дис. автореф. – Тошкент, 1993. –Б. 8-10.
10. Тожиев Ё. Туркий тилларда гап бош бўлақларининг кенгайиш имкониятлари ва қонуниятлари // Тил илмига сadoқат. (Тўплам) –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 3-9.

SO‘Z-GAPLARNING BADI‘Y MATNDA TUTGAN O‘RNI XUSUSIDA

Ibragimova Muqaddas,

SamDCHTI, O‘zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrası o‘qituvchisi,

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gap va u bilan bog‘liq sintaktik nazariyaning tarixiy shakllanishi hamda o‘zbek tilshunosligida gap va uning turlari borasidagi qarashlar tahlil qilingan. Xususan, so‘z-gaplarning sodda gapning alohida bir ko‘rinishi sifatidagi lingvistik tabiati, ularning sintaktikasi, semantikasi va kommunikativ-funksional xususiyatlari, shuningdek, bu qurilmalarga gap maqomining berilishidagi munozarali o‘rinlar xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: gap, so‘z-gap, sistem-struktur paradigma, antropotsentrik paradigma, semantika, sintaksis, grammatika, gap bo‘lagi, predikativlik, modallik, prosodika.

Tilshunoslik adabiyotlari ko‘zdan kechirilganida, sintaktik masalalarning tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning ham juda katta ko‘lamda, uzoq tarixiy taraqqiyot davomiyligida amalga oshib kelayotganligining guvohi bo‘lamiz. Ushbu o‘rganishlarimiz jarayonida sintaktik birlik tushunchasi nima bilan bog‘liqligi xususidagi qarashlarni kuzatar ekanmiz, bu, hech shubhasiz, gap tushunchasiga borib taqaladi. Sintaktik masalalarning markazida asosiy o‘rinni gap va uning lingvistik tabiatini yoritish turganini inkor etish qiyin. Chunki so‘zlarning nutqda faollashuvi ham, lug‘aviy birlikning leksik jihatlarining namoyon bo‘lishi ham, morfem birliklarning reallashuvi ham, fonetik birliklarning funksional tomonlari ham tom ma’noda nutqda, boshqacha aytganda gap tarkibida to‘la amalga oshadi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, gap nutq lingvistikasi tadqiqida ham markaziy o‘rinlardan birini taqozo qiladi. Gap tushunchasi tilshunoslikda ko‘plab masalalarning yechimi uchun asos bo‘lganini inkor etish qiyin. Bu, ayniqsa, tilshunoslikda hozirgi davr uchun asos yaratilishiga zamin bo‘lgan sistem-struktur paradigma mohiyatini anglash, uni amalda ishlashining natijalaridan biri sifatida qayd etish to‘g‘ri bo‘ladi.

Gap haqida fikr borar ekan, uning sintaksisga tegishliligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasavvurga keladi. Biroq gap sintaksisda o‘rganilgan birlik sifatida yagona hisoblanmaydi. Bu so‘z birikmasi, sodda gap va uning turlari, qo‘shma gap va uning turlarini uzoq davrlardan beri shu maqomdagi birlik sifatida o‘rganilib kelinayotganining o‘zini yodga olish bilan aniq tasavvurni keltirib chiqaradi. Munosabat bildirmoqchi bo‘lganimiz so‘z-gaplar ham sodda gapning alohida bir ko‘rinishi sifatida jahon tilshunosligida, xususan, uning ajralmas bir qismi bo‘lgan o‘zbek tilshunosligida ham atroflicha tadqiq etilgan. Bu borada masala mohiyatining muammoli ekani, uning sintaktik shakllanishi va funksional tomoni, semantik salmog‘i, kommunikativ jihatlarini tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan va bugungi kunda ham ushbu yo‘nalishda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Albatta, asrlar davomida shakllangan mavjud lingvistik qarashlar gap tushunchasi doirasida so‘z-gapni sodda gapning alohida bir turi, ko‘rinishi sifatida tavsiflashga erishganini alohida qayd etamiz. Zotan, bu sintaktik qurilma gapga xos bo‘lgan prosodik, predikativlik va modallik xususiyatlariga ega ekani bilan sodda gapga tenglashtiriladi.

Undagi prosodik belgi shakllangan grammatik mezonlar asosidagi gapning shunday xususiyatiga muvofiq keladi. Bunda ularning har ikkisi ham kuzatiladigan ohangning tugal ekani bunday fikr bildirish imkonini beradi. A.Nurmonovning qayd etishicha, prosodik aktuallashtiruvchi vositalar sirasiga gap bo‘laklarining aktuallashtirishida so‘z tartibidan tashqari boshqa vositalar ham, jumladan, prosodik vositalar xizmat qiladi. Bunday aktuallashtiruvchi vositalarga mantiqiy urg‘u va u bilan bog‘liq nutq tempi hamda pauza kiradi [2, 294].

Gap uchun muhim bo‘lgan yana bir belgi bu predikativlik xususiyatidir. Predikativlik va uning shakllanishi borasida tilshunos olimlarning qarashlari bir xil emas. Uning ifodasi uchun nimalar kerakligi, sintaktik qurilmada qanday xususiyatlar bo‘lishi lozim ekani borasida mushtarak qarashlar shu kungacha ham tom ma’noda mavjud deyish qiyin. Modallik tushunchasi ham sintaktik qurilma sifatida gapga,

jumladan, soʻz-gapga ham xosdir. Modallik obyektiv va subyektiv turlarga boʻlinishini, uning har ikki turi ham jumlada oʻziga xos tarzda shakllanishini hisobga olar ekanmiz, soʻz-gapda uning reallashuvi masalasi ham eʼtiborli masalalardan biri boʻlishi lozim.

Soʻz-gap yuqorida qayd etilgan belgilariga koʻra grammatik jihatdan toʻla shakllangan sodda gapning barcha belgilarini oʻzida mujassam etadi. Biroq masalaning yana shunday tomonlari ham borki, unga koʻra soʻz-gapning lingvistik tavsifida oʻziga xos sintaktika, oʻziga xos semantika va oʻziga xos funksional-kommunikativ xususiyatlar alohida tadqiq etishga loyiq koʻrinadi. Albatta, fan taraqqiyotida soʻz-gap tushunchasining shakllanishi, uning barcha xususiyatlari bilan uzviylikdagi lisoniy mohiyati oʻrganilgani aniq. Ammo uning nutqdagi xususiyatlari, sof lingvistik mohiyati nutq lingvistikasi mezonlari asosida koʻrib chiqilishi masala tavsifining yanada samarali boʻlishiga yoʻl ochadi.

Nutq kommunikativ jarayondir. Shunday ekan, har qanday nutqiy qurilma kommunikativ maqsad uchun shakllanadi va bu jarayonda oʻz vazifasini bajaradi. Bu sintaksisning formal-struktur tomoniga toʻgʻridan-toʻgʻri dahldor boʻlmasligi mumkin, biroq sintaktik qurilmaning semantik-sintaktik tomoni bilan aloqador ekanini inkor etib boʻlmaydi. Bunda modallik oʻziga xos ahamiyatga ega boʻladi. Albatta, propozitiv (nominativ) va modal aspektlar gapning formal-struktur tomonini, boshqacha aytganda, uning denotativ va signifikativ mazmunini aks ettirishga xoslangan boʻlsa, jumlaning kommunikativ aspektida, avvalo, soʻzlovchining kommunikativ moʻljali – niyati, mazkur qurilmada ifodalangan obyektiv mazmun elementlarining ahamiyatlilik darajasini belgilashni, shuningdek, darak, soʻroq, buyruq kabilarni ifodalashini aks ettiradi. Bundan tashqari, presuppozitsiya axborotini oʻz ichiga olishini olimlar qayd etishadi [3, 92].

Koʻrinadiki, gap til birligi sifatida qaralganida uning faqat nominativ aspekti, yaʼni propozitsiyasi tasavvur etilsa, uning kommunikativ aspekti qurilmaning mazmuniy, yaʼni semantik tomoni bilan bogʻliqdir. Bu uning nutq birligi sifatidagi xarakteristikasida oʻz ifodasini topadi.

Darhaqiqat, jahon tilshunosligida sintaktik qurilmalar, ularning turlari, hosil boʻlish yoʻllari xususidagi masalalar borasida katta yutuqlarga erishilgan. Biroq bu borada muayyan darajada tavsif qilinishi lozim boʻlgan masalalar ham borki, ular sirasiga gap va uning turlariga oid nazariy qarashlarning tavsifidagi boʻshliqlar, toʻldirilishi lozim boʻlgan oʻrinlar alohida ahamiyatga ega. Bunday holat soʻz-gap va uning sintaktikasi, semantikasi doirasida ham kuzatilib, oʻziga xos munozarali oʻrinlarga egaligi bilan eʼtiborni tortadi.

Oʻzbek tilining akademik grammatikasi kitobining ikkinchi tomida gap grammatik shakllangan, intonatsion tugallikka ega boʻlgan, nisbiy tugal fikr bildiradigan soʻzlar kompleksidan yoki ayrim bir soʻzdan tashkil topishi, gap boʻlaklari tushunchasi birdan ortiq soʻzdan tashkil topgan gaplarga tatbiq qilinishi, yolgʻiz bir soʻzdan iborat boʻlgan gaplarda (bas, ha, yoʻq tipidagi soʻz-gaplarda) gapning boʻlaklari toʻgʻrisida soʻzlash mumkin emasligi, chunki gapning boʻlaklari gap sostavidagi soʻzlarning maʼlum qonun-qoidalar asosida oʻzaro bogʻlanishidan hosil boʻlgan sintaktik butunlikning qismlari ekani qayd etiladi [4, 114].

Tilshunosligimizda bir sostavli gaplar haqida fikr bildirilganida ularning quyidagi tiplarga boʻlinishi koʻrsatib oʻtilgan: 1) shaxsi nomaʼlum gaplar; 2) shaxsi umumlashgan gaplar; 3) shaxssiz gaplar; 4) infinitiv gaplar; 5) nominativ gaplar; 6) soʻz-gaplar [4, 184].

Gap haqidagi sintaktik nazariyaga koʻra sintaktik qurilma gap maqomini olishi uchun, avvalo, grammatik asosga ega boʻlishi, muayyan gap boʻlaklaridan tashkil topishi shart. Ammo soʻz-gap termini ostida mujassam boʻlgan sintaktik qurilmalarning shakllanishi, tuzilishi mavjud sintaktik nazariyaning gap bilan bogʻliq boʻlgan mezonlariga mos emas.

Grammatikaning gap haqidagi qismida soʻz-gap bir tarkibli gapning alohida bir koʻrinishi sifatida tavsiflanadi. Bir tarkibli gaplar esa sodda gapning bir tipi sifatida qayd etiladi. Bu tavsiflarga koʻra, soʻz-gap sodda gap anglatgan fikr ifodasini bera olishi, uning funksional vazifalarini bajara olishi, sodda gapda

mavjud bo'lgan semantik qimmatga egaligi, kommunikativ jarayonda u bilan bir xil vazifa bajarishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi.

So'z-gaplar bir sostavli gaplarning alohida guruhini tashkil etishi, ularda grammatik ega ham, kesim ham bo'lmasligi, bu xil gaplar kishining turli tuyg'usi va voqea-hodisaga bo'lgan emotsional munosabatlarini ifodalovchi modal so'zlardan bo'lishi qayd etilgan [4, 185].

So'z-gaplar haqida fikr bildirilganida, ular birgina so'zdan iborat bo'lib, turli his-tuyg'ular ifodalanayotgan fikrga modal munosabatlarni bildirishi mumkinligi alohida qayd etiladi.

G'.Abdurahmonovning qarashlarida bunday gaplar tobe yoki hokim bo'laklarni talab ham etmaydi, ularda biror bo'lakning «yashiringani» ham sezilmaydi. Ular oldin aytib o'tilgan fikrga ekspressiv-modal munosabatlarni ifodalaydi. Shuning uchun ham ular ko'proq dialog, ba'zan monolog gaplarda qo'llanadi. Ana shu xususiyatlariga ko'ra, ular to'liqsiz gaplardan ham, hatto bir sostavli gaplardan ham farqlanib turadi (chunki bir sostavli gaplarda grammatik jihatdan ega yoki kesim ifodalanadi, bu xil gaplarda grammatik jihatdan ham, logik jihatdan ham ega yoki kesim bo'lmaydi). So'z-gaplarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning maxsus intonatsiyaga ega bo'lishi va ma'lum situatsiyani, kontekstni talab etishidir. Agar bu shartlar bo'lmasa, so'z-gaplar o'z funksiyasini bajara olmaydi [4, 196].

Muallif tomonidan fikr dalili uchun quyidagi misollar keltiriladi:

– Plan bajarildimi? – Ha.

– Darsdan kech qolganlar bormi? – Yo'q.

O'zbek tilida so'z-gaplar, asosan, quyidagi to'rt turga ajratiladi:

1. Tasdiq bildiruvchi so'z-gaplar.

2. Inkor so'z-gaplar.

3. So'roq so'z-gaplar.

4. Emotsional-modal so'z-gaplar.

So'z-gaplarning qayd etilgan turlari o'ziga xos belgi-xususiyatlariga ko'ra biri boshqasidan farqlanishi alohida-alohida tavsiflanadi.

1. Tasdiq bildiruvchi so'z-gaplar. Bunday so'z-gaplar so'zlovchining aytilayotgan fikrni tasdiqlashi yoki biror fikrga qo'shilishini ko'rsatadi. Tasdiq so'z-gaplar vazifasida ha, shunday, to'g'ri, yaxshi, albatta, xo'p, bo'lmasa-chi kabi so'zlar ishlatiladi. Bu tipdagi so'z-gaplar berilgan savolga javob bo'ladi (Fikrimni tushundingizmi? – Ha) yoki ifodalanayotgan fikrni tasdiqlaydi (Men sizni juda yaxshi bilaman! Ha!).

– Xalq?!

– Shunday, taqsir, shunday. (Tog'ay Murod, 19-b.)

– Qizillar Hayitkalning jaridan o'tadimi?

– Esa-chi. (Tog'ay Murod, 31-b.)

2. Inkor so'z-gaplar. Berilgan savolga so'zlovchining inkor javobini yoki ma'lum fikrga qo'shilmaganini ifodalaydi. Bu inkor ayrim o'rinlarda ekspressiv ma'noni anglatadi. Inkor so'z-gaplar vazifasida yo'q, hech, aksincha kabi so'zlar ishlatiladi: – Siz ham shunday o'ylaysizmi? – Aksincha! (yoki yo'q).

– Masjid Xudoi taolo dargohidur, taqsir. Xudoi taolo dargohidur.

– Ol-a, eshon, ol-a! (Tog'ay Murod, 18-b.)

– Meni qizillar yo'qlamayaptimi?

– Yo'g'-a. (Tog'ay Murod, 30-b.)

3. So'roq so'z-gaplar. So'zlovchining savoli, taajjubini anglatadi yoki tinglovchini javob berishga, biror ish-harakatga undaydi. So'roq so'z-gaplar vazifasida shundaymi, yo'qmi, nahot, rost, bilan-a, bo'ptimi, yaxshimi kabi so'zlar va bu xil so'zlarning yuklama yoki ayrim ko'makchilar bilan

birikuvi orqali ifodalanadi: – Salim bugun darsga qatnashmabdi? – Nahot?!

- ...Aslo, aslo sening tuprog‘ing emas!
- Labbay-labbay?
- Sen bunday qaymoq tuproqqa yarashmaysan!
- Nima-nima? (Tog‘ay Murod, 22-b.)

4. Emotsional-modal so‘z-gaplar. Ayrim so‘z-gaplar ma‘lum xabarga yoki voqea, hodisaga, yoki ba‘zi tushunchalarga bo‘lgan so‘zlovchining emotsional-modal munosabatlarini bildiradi. Bunday emotsional-modal so‘z-gaplar undov so‘zlar bilan yoki so‘zlovchining ma‘lum xabarga, predmet, voqea, hodisalarga bo‘lgan modal munosabatini anglatuvchi so‘zlar bilan ifodalanadi (Oh! Voydod! Ura! Ura!). Emotsional-modal so‘z-gaplardan emotsional gaplar farq qiladi. Emotsional gaplar faqat ayrim so‘z bo‘lib qolmay, birikma holida bir necha so‘z bilan ham bayon etiladi. Bundan tashqari, emotsional gaplar har vaqt ma‘lum fikrga bo‘lgan munosabatni anglati bermaydi. Emotsional gaplar salomlashish, xayrlashish, tashakkur, kechirim, rag‘batlantirish, mamnunlik kabi ma’nolarni ifodalaydi [4, 114].

So‘z-gap o‘zbek tilshunosligida mohiyati, turlari, ularning leksik materiali tavsifi, qo‘llanish xususiyatlari empirik asosda atroflicha o‘rganilgan [1]. Substansial tilshunoslik gapning eng kichik qolipini [WPm] tarzida qayd etganidan so‘ng mazkur masalani ham qayta ko‘rib chiqish ehtiyoji ortib bormoqda [1]. Bunda, albatta, mazkur darslikda qayd etilgan fikrlarni hisobga olish va so‘z-gap borasida jahon tilshunosligida hamda o‘zbek tilshunosligida ham shakllangan qarashlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keldi.

Bunday fikr bildirishimizning ham o‘ziga xos sabablari bor. Chunki til va nutq dixotomiyasi nuqtai nazaridan mazkur masalaga nazar tashlar ekanmiz, uning so‘z-gap tarzida nomlanishining o‘zi ham e‘tiborni tortadi. Gap gap bo‘laklaridan tarkib topishi ilmiy qarashlar asosida shakllangan xulosaga olib keladi. Biroq bu bo‘laklarning so‘zlardan vujudga kelishiga ahamiyat qaratari ekanmiz, so‘z tushunchasi va gap tushunchasining ushbu nutqiy sintaktik qurilmada mujassamlashganini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. So‘z-gaplarning lingvistik tavsifiga murojaat etish bu qurilmalarning bugungi kun tilshunosligi uchun mohiyat, qurilishi materiali, kommunikativ hamda funksional xususiyatlari jihatidan boshqacha tavsiflanishiga ehtiyoj borligini keltirib chiqarmoqda.

Buning birinchi sababi gap tushunchasining nazariy asoslariga yangicha yondashuv bilan munosabat bildirish lozimligi bo‘lsa, ikkinchi sabab so‘z-gap tushunchasining tilshunoslikning bugungi ilmiy-nazariy yutuqlari asosida tavsiflanishiga bo‘lgan ehtiyojdir.

Bizningcha, so‘z-gaplarning gap maqomini olishi masalasi izohtalabdir. Chunki bunday sintaktik qurilmalarda gapga xos bo‘lgan belgilardan asosiylari sifatida qayd etiluvchi grammatik asos, komponentlararo tobe-hokim munosabat, kesimlik belgilari, grammatik shakllanish kabi mezonlarning amal qilmayotgani ro‘yi-rost ko‘rinib turadi.

Nazarimizda, so‘z-gap tushunchasining shakllanishi qurilmaning sintaktikasiga emas, balki uning tom ma‘nodagi kommunikativ-funksional tomoniga asoslanish orqali vujudga kelgan. Zotan, bunday gaplarda voqelikka munosabat, obyektiv va subyektiv modallik, ohang jihatidan tugallik mavjud bo‘lib, til birligi hisoblangan so‘zning tilga xos belgilaridan sanaluvchi virtuallik xususiyati bunday maqomda kelgan tashkil etuvchi birlikka begona. Shunday ekan, so‘z-gapni shakllantiruvchi so‘z nutq birligi sanaladigan birlik, ya‘ni gapga xos bo‘lgan aksariyat belgi-xususiyatlarni o‘zida mujassam eta oladi. Ammo unga gap maqomini berishga dalil bo‘luvchi xususiyatlar qurilmaning sintaktikasidan ko‘ra ham uning ifoda planiga – mazmuniy salmog‘iga tegishli ekani ko‘zga tashlanadi.

Nutqning minimal birligi tushunchasi gap bilan bog‘lab izohlanayotgan [5, 70] bugungi kunda, nutqda gap bilan teng kommunikativ funksiya bajarayotgan, biroq tarkibiy sintaktikasi gap uchun amalda mavjud bo‘lgan mezonlarga muvofiq bo‘lmagan qurilmalarning turlari ham borligi haqida muqobil qarashlar ham kuzatilayotgani mazkur masala tavsifini yangicha yondashuvlarga tayanib, tilshunoslikning

zamonaviy yoʻnalishlarida shakllangan tahlil va tadqiq metodlari yordamida oʻrganish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, soʻz-gaplarning nutqda mavjudligi inkor etib boʻlmas haqiqatdir. Biroq ularning gap deb nomlanishida, boshqacha aytganda, ularga gap maqomining berilishida izohtalablik kuzatiladi. Chunki nutqda minimal kommunikativ birlik sifatida shakllangan sintaktik qurilmalarning barchasi ham gap emas. Ularning aksariyati nutqda shakllangani va kommunikativlikka egaligi bois jumla maqomini olishga haqlidir. Jumla esa gapga nisbatan qoʻyiladigan grammatik talablar asosidagi mezonlarning ayrimlariga ega boʻlmasligi ham mumkin. Biroq har qanday jumla nutqda shakllanadi. Shu bois unda nutqqa xos boʻlgan kommunikativ vazifa bajarish holati kuzatiladi. Nutqqa tegishli boʻlgani sababli u doim aktual boʻladi va koʻrinishi til birligi hisoblangan soʻzdan yaqqol farqlanmasa ham, til birligi maqomidagi soʻzdagi virtuallik unda mavjud boʻlmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – 280 b.
2. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент, 2012. – 258 б.
3. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 294 б.
4. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.
5. Хайруллаев Х. Об особенностях изучения объекта речевой лингвистики // Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2019. – № 2 (71). – С. 17–20.
6. Хайруллаев Х. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. – Самарқанд, 2008. – 70 б.

MUNDARIJA

Xolikov B.A. Filologik ta'lim - ma'naviy tarbiya ostonasi.....	3
1-sho'ba. ZAMONAVIY FILOLOGIK TA'LIMNING DOLZARB LINGVISTIK MUAMMOLARI	5
Секция 1. АКТУАЛЬНЫЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	5
Xayrullayev X.3., Amangeldiyeva G.S. Fan va ta'lim chorrahasida: til, tilshunoslik masalalari	5
Бушуй Т.А. Особенности составления учебных словарей по русскому языку	8
Turobov A.M. Komparativistikaning vujudga kelishi xususida.....	11
To'xtamirzayev M.Y. Inglizcha ko'p ma'noli sport atamalarining o'zbekcha sharda qo'llanilishi ...	14
Hashem Esmael Hammam Ali .Principles and external influences on the functional teaching of arabic in uzbekistan (هاشم إسماعيل همام علي أستاذ بجامعة اللغات العالمية، دكتوراه في طرق التدريس)	1
7	
Abdimomunova A., Alimjanova D., Amridinova Sh. Analysis of russian word formation in medicine	20
Кыдыкбаева У., Алимджанова Д., Расулова С. Инновации преподавания узбекского языка для иностранных студентов	24
Ahmed Mahmoud Ahmed Mohamed. Времена в арабском языке: между действием и интерпретацией: сравнение с английским, русским, узбекским и турецким языками	27
Давронов Б.Б., Журакулов Р.Д. Роль внеаудиторных мероприятий в формировании компетенций у будущих учителей.....	32
Faleeva A.V. Lexico-semantic features of australian colloquial english (based on the material of urban dictionary online)	34
Faleeva Y.V. The art of defining the new: peculiarities of compiling dictionary definitions for neologisms in english.....	37
Xolmuradova N. Rus tilining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari.....	40
Usmonova Z. Rus tilidagi stilistika va uning modernizatsiyasi: yangi davrda stilistik o'zgarishlar.. ..	42
Чориев Б., Марупов Ш. Функционально-семантические типы вокативных предложений в русском языке.....	46
Malikova I. Til birliklarining vertikal va gorizontalar harakati paradigmasi tahlili	48
Kuchiyev M.A. Frazologik birliklarning ilova ilovalari element sifatida qo'llanilishi.....	50
Ахмедова П. Интертекстуальные включения в художественном тексте: структура, типология, влияние.....	52
Xolmurodova M. Unlilar tizimida interferensiya va ko'p tillilik muammosi.....	54
2-sho'ba. TIL TA'LIMI MASALALARI HAMDA TA'LIM PLATFORMALARI MUHOKAMASI	57
2 секция. ОБСУЖДЕНИЕ ВОПРОСОВ ЯЗЫКОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ.....	57
Умурова Г.Х. Методы обучения русскому языку как иностранному: традиции и инновации	57
Ван Сяосюй, Ахмедова П. Проектная деятельность как средство формирования языковой компетенции студентов-филологов (на примере учащихся направления 60230100 – филология и обучение языкам: русский язык)	61
Mansurova F.Sh. O'zbek tilshunosligida ommaviy nutq: tarixi, ijtimoiy tarmoqlarda holati va istiqboli.....	65

Qodirov S.S. Sayyohlik reklamalarining ayrim sotsiologiyistik jihatlari	68
Yusupov A.Sh. Amerika adabiyotida horror janri	70
Yusupova Sh.Sh. Ingliz adabiyotida Agata Kristi	73
Раджабова Е.С., Семенова М.А. К вопросу изучения родственных славянских языков	75
Очилова М.И. Топонимы как художественное средство в поэме «Фарход и Ширин» Алишера Навои	78
Samadova S.S., Mamadova M.E. Methodology of learning a foreign language from the point of view of psychology.....	82
Musoyeva A.B. The role of data analysis tools in developing research competence of future educators.....	86
Ashrapov B., Nazhmidinova N. Some considerations beset with morphological peculiarities of the tajik particle <i>hatto</i> and its english equivalents.....	88
Mamasoliyev Ikrom U., Matlabjonova M. German tillari sodda va murakkab gap tizimida bog‘lovchisiz ilova konstruksiyalarning ifodalanishi	91
Kamolova S., Xolmuradova N.F. Rus tili, turk tili va o‘zbek tilida jo‘nalish kelishiklarini qiyoslash orqali tilni o‘rganish	93
Usmanov F. Text linguistics and critical discourse: evolution, history and approaches	95
Haydarov K., Sadullayev S. Loyihalash metodi – talim samaradorligini oshirishning muhim omili	97
Худайбердиева Д.М. Интеграция цифровых технологий в процесс преподавания русского языка как иностранного: современные подходы и перспективы развития	99
Аминжонов М. Эффективные методы преподавания русского языка как иностранного	103
Айбергенова А. Цифровая трансформация и лингвистические вызовы в современном филологическом образовании	106
Шарипова Г., Азмиева Э., Бургутова У. Анализ особенностей преподавания русского языка и литературы в узбекских школах.....	108
Зиёвиддинзода З. Интерактивных учебных материалов по математике в дистанционном обучении.....	111
Rasulov N., Uralova R. Analysis of lexicon expressing “spirituality and enlightenment” in english and uzbek.....	113
Шаропова Н. Гротеск и сатира в повести М.А. Булгакова «Собачье сердце»: критика идеологических искажений	116
Шаропова Н. Использование иронии и сарказма для обнажения абсурда общественной реальности в «Собачьем сердце»	118
Eshqobilov A.K., Mirzakulova D.K., Kazakova Ch. Jadidlarga hamnafas siymo (Said Rizo Alizoda (1887-1945) hayoti va ijodiy merosiga chizgilar)	120
3-sho‘ba. BADIY MATN PRAGMATIKASI VA TARJIMA MASALALARI.....	124
3 секция. ПРАГМАТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА И ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДА	124
Eshqobilov A.K. I.S.Turgenevning “Rudin” romani onomapoetikasining pragmatik xususiyatlari	124
Журакулов Р.Д., Журакулий Г.Р. Фразеологизмы в учебниках «Русский язык» для узбекских школ	127
Мусинова З.Т. Концепт историзма в мировой литературе	129
Тоирова Д.Ф. Лингвокогнитивные проблемы художественного перевода: теоретико-практический аспект	131
Nasrulloeva N.S. Linguistic features of computer and the internet jargons	133
Bayram Bilir. She‘r janrlarida sun‘iy intellektdan foydalanishni baholash.....	136
Казакова М. Аристотелнинг “Поэтика” асари ва хотира концепцияси: адабиётшунослик категорияси сифатида	139
Abdunabiyeva B. Ingliz va o‘zbek adabiyotidagi badiiy tarjima muammolari: pragmatik yondashuv	142
Bobojonova Sh. O‘zbek tilidagi “Axloq” konseptosferasining yoshlar ma’naviyatini	

yuksaltirishdagi ahamiyati.....	144
Eliboyeva Z. Ertak janrı taraqqiyoti va yozma adabiyotda ertak janrı	146
Эшкобилов А.К, Каршиева Ж. Лингвопоэтика: язык как искусство выражения прагмосемантики	148
Мусаев А. Релевантность переводов русских фразесочетаний на узбекский язык.....	150
Shukurova R. Features of utopia and dystopia as literary genres	152
Гавхарой Исроилжон кизи, Мухаммадова М. Роль иронии в изображении человеческой натуры в рассказе «Хамелеон» А.П. Чехова: биографический и художественный аспекты	154
Ахмедов Ф. Марупов Ш. Прагматический аспект художественного текста и проблемы перевода	156
Makhammatkulova I. Nonverbal communication in literary texts and its characteristics (with examples from english and uzbek literature).....	158
Усманова З., Насирова Х., Равшанова А. Сравнительный анализ местоимений в английском, узбекском и русском языках... ..	160
Sodiqov L. Maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	163
Absamatova G. The sociolinguistic power of sign language translation.....	166
Daminov N. The complexities of simultaneous interpreting from uzbek into english... ..	168
Akhrorova N. Discussion of tom robinson’s vulnerability in “to kill a mockingbird” by harper lee	170
Кенжаев А.Л., Рузибаев М.М., Тохирова С.Б. О важных образах в «Сказке о золотом петушке» А.С. Пушкина.....	172
Хо`jayev A.G‘. Shoir Faqiriyning devoni haqida	175
Ergasheva D., Sherzodova Sh. Global jamiyatda ingliz tilini o'rganish: samarali metodlar va texnologiyalar.....	178
Мамасолиев Илхом У., Рузбобоев М.М., Семантические заимствования в русском и узбекском языках являющиеся неотъемлемой частью языковой эволюции.....	182
Muxtorova Sh.F. Zamonaviy filologik ta’limning dolzarb lingvistik muammolari: nazariy va amaliy yondashuvlar	185
Nurmurotov I.B., Es hmurodova Z.Z. O‘zbek va ingliz tilida punktuatsion belgilarga xos funksiyalar taraqqiyoti.....	187
Давронов Б.Б., Рузибаев М.М. Педагогический контроль и оценка учебной деятельности на уроках	189
Akbarov A. A. Modern strategies for stimulating students' interest in learning foreign languages: innovative methods	192
Israilova N.X., Matqosimova M.E., Zokirjonova Z.Sh. Interaktiv texnologiyalar asosida til o‘qitishning samaradorligi: zamonaviy pedagogik yondashuvlar.	194
Qodirova N.G‘. Ingliz tilida boylikni nomlovchi frazeologik birliklarning o'zbek tiliga tarjima qilishning lingvomadaniy xususiyatlari	196
To‘layeva M., Jo`raqulov R.D. Koreys adabiyotida ertak janrining ayrim jihatlari.....	199
Amonova D. Saida Zunnunovanning poetik uslubi.....	200
Бабакулов И.Т., Бобокулова С.А., Пулатова Л.Б., Умрзакова М.И. Об изучении словообразовательных цепочек имён существительных в русском и узбекских языках	203
Самадов М. Роль физической активности в улучшении учебной деятельности учащихся	207
Tursunkulov S.D. Ikkinchi jahon urushining o‘zbek va ispan adabiyotiga ta’siri.....	209
Aminjanova M.A., Adilova S.Z. Effective ways to teach writing an essay	215
Rustamov M..A.. Tilshunoslikda uyushiq bo‘laklarning o‘rganilishi	218
Ibragimova M.. So‘z-gaplarning badiiy matnda tutgan o‘rni xususida	221

ZAMONAVIY FILOLOGIK TA'LIMNING LINGVISTIK VA KULTUROLOGIK ASPEKTLARI: LISONIY VA MADANIY MULOQOT

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

Samarqand, 2025-yil 26-27-aprel

Muharrir: Rahimova Gulbaxor
Tex.muharrir: Mamatkarimova Munira
Musahhih: Abduraximov Shoxjahon

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti,
140104, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93.

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosmaxona tasdiqnomasi:



4268

Bosishga ruxsat etildi: 22.04.2025-yil.
Ofset bosma qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.
“Times New Roman” garnituras. Ofset bosma usuli.
Hisob-nashriyot t.: 12,8. Shartli b.t.: 16,9.
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma № 19/04.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo'limida chop etildi.
Samarqand sh., Bo'stansaroy ko'chasi, 93-uy.